

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Tasdiqlandi:

O'quv ishlari prorektori

dots

20__ yil __ avgust

**Falsafa kafedrası
“Ijtimoiy falsafa” fanidan
MA'RUZALAR MATNI**

**(Kafedra yig'ilishida (20__ yil, _ avgust, _ -sonli bayonnoma)
tasdiqlangan)**

Katta o'qituvchi Z. Suyarov

Assistent D.Samatov

Andijon 2015

ANNOTASIYA

“Ijtimoiy falsafa” fani Milliy istiqlol g’oyasi: xuquq va ma’naviyat asoslari ta’lim yo’nalishi bakalavriat bosqichi III-kurs VI- semestriga mo’ljallangan fan bo’lib, 34 soat ma’ruza o’quv rejasida belgilangan. Shuningdek ushbu fan milliy g’oya ma’naviyat va huquq ta’limi yonalishining II-kurs III-semestrida 40 soat ma’ruza o’quv rejasida belgilangan.

Mazkur fandan ma’ruzalar matni O’zbekiston Milliy universiteti Falsafa kafedrasidan “Ijtimoiy falsafa” dan tayyorlangan dastur (2008) asosida tuzilgan. Ma’ruza matnlarida Ijtimoiy falsafa fanining bahs mavzusi, vazifasi, tarixi, jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy va ijtimoiy omillari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy hayoti, fan, madaniyat va qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o’rni, ahamiyati, shaxs ijtimoiy taraqqiyotning sub’ekti va xarakatlantiruvchi kuchi ekanligi, O’zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo’shilib borishi masalalari qamrab olingan. Har bir mavzuda unga oid tayanch tushunchalar, talabalar o’zlashtirishi uchun savollar, tegishli adabiyotlar berilgan. Matnlarni chuqur o’zlashtirilishi uchun sxema va diogrammalar ham berilgan.

1- mavzu: Ijtimoiy falsafa fanining bahs mavzusi va vazifasi

Reja:

1. Ijtimoiy falsafaning predmeti, o'rganish ob'ekti.
2. Falsafa va ijtimoiy falsafa.
3. Ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari va tamoyillari.
4. Ijtimoiy falsafaning jamiyat hayotidagi urni va funksiyalari

Tayanch tushunchalar

Falsafa, ijtimoiy falsafa, antropologiya, gnoseologiya, metodologiya, ontologiya.

Adabiyotlar

1. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «Sharq», 2004 yil, 154-152 betlar.
2. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. – T., «Sharq», 1999 yil, 252-255 betlar.
4. S.E. Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. Uchebnik dnya vuzov.- Moskva, Gumanitorno-izdatelskiy sentr «VLADOS», 1998 yil, 3-17 betlar.
5. V.S.Barulin «Sotsialnaya filosofiya» Uchebnik dlya vuzov.- Moskva, FAIR-PRESS, 1999 yil, 4-8 betlar.

Oraliq nazorat uchun savollar.

1. Ijtimoiy falsafaning predmetiga ta'rif bering.
2. Ijtimoiy falsafaning falsafa Fani bilan aloqasi.

3. Ijtimoiy falsafaning funktsiyalari ustida to'xtalib o'ting.
4. Ijtimoiy falsafaning dunyoqarashlik funktsiyasini tushuntirib bering.

Falsafa odam va olam taraqqiyotining eng umumiy qonunlari, insonning olamdagi o'rni to'g'risidagi fandır. Falsafa «Olam nima?» «Olam qanday?» «Uni bilish mumkinmi?» kabi savollarga javob izlash jarayonida eng qadimiy davrlardan boshlab shakllandi.

Falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti uning tarkibiy qismlari hisoblangan ontologiya (borliq falsafasi), gnoseologiya (bilish nazariyasi), antropologiya (inson to'g'risidagi ta'limot) hamda metodologiya (olmni bilish usullari haqidagi) ta'limotlardan o'z ifodasini topdi.

Olam, borliqning eng murakkab, o'ziga xos ko'rinishi inson va jamiyat bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa inson va jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi sifatida eng qadimiy davrlardan boshlab shakllangan bilim sohasi bo'lib hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, dastlabki falsafa Fani doirasida insonning barcha bilimlari mujassamlangan. Falsafa eng qadimda shakllangan fan bo'lib, keyinchalik uning tarkibidan boshqa fanlar, chunonchi gumanitar va tabiiy fanlar ajralib chiqqan.

Falsafa boshqa fanlarning ajralib chiqishi uning ahamiyatini pasaytirmagan, balki olamni yanada chuqur, yanada atroflicha o'rganish imkonini bergan.

Olam haqidagi bilimlarning tobora rivojlanib borishi, falsafa Fani doirasidagi bilimlardan alohida fanlarning ajralib chiqishi va taraqqiyotiga olib kelgan.

Dastlabki falsafa Fani tarkibidan tabiiy va ijtimoiy fan sohasining ajralib chiqqan boshlagan.

Bu jarayon uzoq davom etib, dastlab falsafadan matematika, geometriya, astronomiya, keyinchalik geologiya, geodeziya tibbiyot, mexanika, fizika, ximiya, biologiya kabi fanlar ajralib chiqqan. Keyinroq falsafa tarkibidan gumanitar va ijtimoiy fanlar (XVIII-XIX asrlarda) ajralib chiqish jarayoni ro'y bergan. Oqibatda sotsiologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik kabi fanlar shakllangan.

Falsafiy bilimlarning takomillashuvi jamiyat, uning moddiy va ma'naviy hayoti, ijtimoiy munosabatlar siyosiy, huquqiy, axloqiy muammolarning hal etilishi haqida ko'plab risolalarning yaratilishiga sababchi bo'lgan. Bularga Blatonning «Davlat», «Qonunlar», Aristotelning «Siyosat», Farobiyning «Fozil

shahar axolisi», «Siyosat ilmi», Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», Mirzo Ulugʻbekning «Toʻrt ulus tarixi», Al-Margʻinoniyning «Al-Hidoya», Tomas Gobsning «Prajdanin» toʻgʻrisida, Gegelning «Tarix falsafasi», «Huquq falsafasi» kabi asralar, risolalarini keltirish mumkin. Aynan ana shu risolalarda jamiyat, inson haqidagi falsafiy bilimlar oʻz ifodasini topgan.

Falsafa va ijtimoiy falsafa. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi sifatida falsafa fanidan kelib chiqqan. Agar falsafa olam va odam munosabatlari tahlili bilan shugʻullansa, ijtimoiy falsafa jamiyat va inson munosabatlarini tadqiq etadi. Agar falsafa olam, uning mohiyati, qonuniyatlari toʻgʻrisidagi fan boʻlsa, ijtimoiy falsafa olamning tarkibiy qismi boʻlgan jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar tizimi hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa falsafa fani bagʻridan oʻsib chiqqan. Uni falsafiy taʼlimotlarning oʻziga xos koʻrinishi sifatida tahlil qilmoq lozim. Ijtimoiy falsafa ontologiya, gnoseologiya, metodologiya, antropologiya taʼlimotlari bilan bevosita bogʻliq, u shu taʼlimotlarning jamiyatga izchil tatbiq etilishining natijasi va mahsuli boʻlib hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa borliq falsafasi, antologiya taʼlimoti bilan bevosita bogʻliq ravishda shakllangan. Falsafa borliqni bir butun yaxlit olam sifatida olib oʻrgandi. Ijtimoiy falsafa borliqning oʻziga xos koʻrinishi, ijtimoiy borliq, uning mohiyati, qonuniyatlarini aks ettirish.

Ijtimoiy falsafa gnoseologiya (bilish) bilan bevosita bogʻliq. Falsafa olamni bilishga dahldor muammolar bilan shugʻullansa, ijtimoiy falsafa inson oʻz ongi bilan jamiyatan bilishga qodirmi? degan savolga javob izlaydi. Falsafiy bilimlar ob'ektiv olamning inson ongida aks etish masalalari bilan shugʻullansa, ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotning inson ongida aks etish muammolarini oʻrganadi va Inson ongi jamiyatga qanday munosabatda? Degan savolga javob izlaydi.

Falsafada olamni bilish yoʻllari, usullari ishlab chiqilgan va bu metodologiya (usullar haqidagi) taʼlimotida oʻz ifodasini topadi. Falsafada olamni bilish usullari metodologiya taʼlimotida oʻz ifodasini topgan. Ijtimoiy falsafa inson va jamiyatni oʻrganish metodologiyasi haqida bahs yuritadi.

Koʻrinib turibdiki, falsafa va ijtimoiy falsafa uzviy birlikda dialektik aloqadorlikda boʻlib hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa falsafa fanining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa insoniyat falsafiy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning mohiyati,

qonuniyatlari hamda tamoyillari haqidagi fandır. Ijtimoiy falsafa fan, ilmiy bilimlar taraqqiyotida amal qiladigan differentsiatsiya jarayonining natijasi hisoblanadi. Ilmiy bilimlar taraqqiyotida differentsiya 2 xil tarzda kechgan.

Dastlabki davrlarda odamlarning bilimlari falsafa Fani doirasida jamlangan keyinchalik uning asosida boshqa fanlar shakllangan.

Ikkinchi yo'nalish muayyan fan doirasida bilimlarning chuqurlashuvi shu fanning tarmoqlarini keltirib chiqargan. Fan doirasida yangi bilimlarni o'zida mujassamlashtirgan fanning yangi sohalari paydo bo'lgan.

Falsafiy bilimlarning rivojlanib, chuqurlashib borishi oqibatida psixologiya, formal mantiq, etika, estetika kabi fanlar ajralib chiqqan. Ayni vaqtda falsafaning jamiyat, insonga bevosita dahldor muammolari va bu muammolar doirasida erishilgan ilmiy bilimlar ijtimoiy falsafaning shakllanishiga sababchi bo'lgan.

Ijtimoiy falsafa o'rganish ob'ekti – jamiyat. Ijtimoiy falsafa kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi haqida bahs yuritadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi eng umumiy bilimlar, tushunchalar majmui bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish yo'lida kelib chiqadigan muammolarni oqilona hal etish, jamiyat istiqbolini oldindan ko'rish imkonini beradi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida qarar ekan, jamiyatning ayrim sohasini tatqiq etuvchi fan vakillari e'tiborini ijtimoiy organizmning normal ishlashi uchun uning har bir a'zosi qanday rol o'ynashiga e'tibor qaratadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni kishilarning o'ziga xos uyushuvidan iborat ijtimoiy organizm, deb biladi va shu asosida jamiyatning eng kichik subatami – inson ekanligiga diqqatni qaratadi. Kishilik jamiyati va insonning kelib chiqishi, insonning jamiyatga munosabati, uning jamiyatdagi o'rni ijtimoiy falsafa tatqiq etadigan eng muhim muammolaridan biridir. Ijtimoiy falsafa jamiyat va insonni uzluksiz o'zgarib, rivojlanib boruvchi tizim sifatida o'rganadi va ijtimoiy taraqqiyotning mazmun-mohiyati, shakl va ko'rinishlari, ijtimoiy taraqqiyot qonunlari to'g'risida bahs yuritadi.

Ijtimoiy falsafa doirasidagi eng muhim muammo – jamiyatni bilish muammosidir. Ijtimoiy falsafa jamiyatda kechadigan ijtimoiy voqea va jarayonlarni ilmiy bilishning metodologik asoslarni ishlab chiqadi.

Shunday qilib, ijtimoiy falsafa muammolari deganda jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilish muammolari nazarda tutiladi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni o'z-o'zidan shakllanishi, uzluksiz taraqqiy etib boruvchi ijtimoiy organizm sifatida qaraydi, ya'ni jamiyat va insonni dinamikada – taraqqiyotda olib o'rganadi. Har bir fan olamning Biron-bir ko'rinishiga dahldor qonuniyatlarni ochishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat hayoti va taraqqiyoti ijtimoiy qonunlarning amal qilish orqali sodir bo'lishini, deb hisoblaydi va shu asosida jamiyat taraqqiyotida amal qiladigan qonunlarni yoritib berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Har bir fanning mazmuni uning tayanch tushunchalari, terminlarida ifodalanganidek ijtimoiy falsafaning o'z tushunchalari - kategoriyalari mavjud.

Ijtimoiy falsafaning asoiy tushunchalari deganda «jamiyat», «inson», «borliq», «ijtimoiy ong», «ijtimoiy munosabat», «ijtimoiy ishlab chiqarish», «ijtimoiy jarayon», «madaniyat», «ma'naviyat», «qadriyat», «ob'ektiv shart-sharoit», «sivilizatsiya», «sub'ektiv omillar», «manfaat», «shaxs», «oila, tadrijiy rivojlanishi», «iqtisodiy hayot», «ijtimoiy-siyosiy hayot» kabilar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat va inson haqidagi fan sifatida jamiyat hayotida muxim o'rin tutadi. Uning bu hususiyati funktsiyalarida namoyon bo'ladi.

1. Ijtimoiy falsafa xuddi falsafa kabi inson dunyoqarashini shakllantiradi. Albatta inson dunyoqarashini shakllantirishda barcha bilim sohalari qatnashadi. Lekin ijtimoiy falsafa jamiyat va inson haqidagi yaxlit ta'limot sifatida insonga jamiyat haqidagi, insonning jamiyatdagi o'rnini haqidagi bilimlarining shakllanishiga yordam beradi, jamiyatda ro'y beradigan turli ijtimoiy jarayonlarga o'z ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy falsafa jamiyat tizimi va rivojlanishidagi umumiylikning yechish, ijtimoiy hayot soxalarining o'rnini ko'rsatib berish, inson borlig'i va mohiyatini yoritish, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berish bilan boshqa xususiy ijtimoiy fanlar uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy falsafaning metodologik funktsiyasi deganda, ijtimoiy falsafaning jamiyatni to'g'ri anglash metodlar haqidagi fan ekanligi nazarda tutiladi. Falsafa tarixida olamni, shu jumladan jamiyat va insonni bilishning 2 asosiy metodi shakllangan. Bular: dialektika va metafizika. Ijtimoiy hayotni o'rganishda dialektika va metafizika turlicha yondashadi.

- agar dialektika ijtimoiy hayot xodisalarini o'rganishda, ular orasidagi eng umumiy universal aloqadorliklarga e'tibor berishni taqozo etsa, metafizika aloqadorliklarni faqat tasodif sifatida o'rganadi, har bir ijtimoiy jarayon, o'zgarish faqat o'ziga xos, takrorlanmas, deb biladi.

- agar dialektika ijtimoiy hayot va insonni o'rganishda taraqqiyot tamoyilidan kelib chiqsa, metafizika faqat miqdoriy o'zgarishlarinigina ta'n oladi.

- agar dialektika olamning barcha ko'rinishlari kabi jamiyat va inson olamning mohiyatida ziddiyatlar amal qiladi, ziddiyatlarning borligi va mutanosibligi jamiyat va inson mavjudligida namoyon bo'ladi, ayni vaqtda ziddiyatlar orasidagi munosabat taraqqiyotga olib boradi, deb bilsa, metafizika qarama-qarshiliklar ijtimoiy jarayonlarga xos emas, degan qoidaga asoslanadi.

3. Ijtimoiy falsafaning insonparvarlik funksiyasi. U komil insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson uning mohiyati, qadr-qimmatini qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining ma'nisini o'ylashdan boshlangan. Ijtimoiy falsafa «Inson va olam» muammosini hal qilishga yordam beradi.

I.Kant o'zini «Sof aql tanqidi» asrida falsafiy bilimlarning mohiyati 3 savolda ifoda topgan. Bular:

- Men nimani bila olaman?

- Men nima qilishim kerak?

- Nimaga umid qilishim, ishonishim kerak? Insoniyat barcha davrlarda ularga javob topishga intilgan, deganda haq edi.

4. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lda ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar tendentsiyasi va istiqbolini, kelajakni anglash, ilmiy bashorat qilish imkonini beradi.

5. Ijtimoiy falsafa insonparvarlik funksiyasini bajaradi. Uning gumanistik funksiyasi insonning tarbiyalashga, unda insoniy, ahloqiy xislatlarni jonlantirishga yo'naltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirish nazarda tutadi.

Ijtimoiy falsafa umuman falsafiy bilimlar bilan birgalikda barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning metodologik, dunyoqarashlik asosi xisoblanadi.

Ijtimoiy falsafa sotsiologiya, tarix, antropologiya, psixologiya, etnografiya, iqtisodiy nazariya kabi fanlar bilan uzviy birlik va aloqadorlikda mavjud bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa sotsiologiya bilan bog'liq. Ijtimoiy falsafa jamiyatning eng umumiy muammolari ustida bahs yurishsa, sotsiologiya mazkur jamiyatning

konkret muammolarini tadqiq eti shva hal etishga yordam berish bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy falsafa tarixiy ongni anglashning metodologik asosi hisoblanadi. Tarix muammolarini hal qilish chuqur falsafiy tahlilga suyanadi.

2- Ijtimoiy falsafa tarixi

Reja:

1. Qadimgi Sharqda shakllangan ijtimoiy – falsafiy qarashlar.
2. Qadimgi Yunon falsafasida jamiyat inson haqidagi ijtimoiy falsafiy qarashlar.
3. O'rta asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy- falsafiy qarashlari.
4. G'arb O'rta asrlar va yangi davr ijtimoiy falsafasi.
5. Mustaqil O'zbekiston sharoitida ijtimoiy falsafiy dunyoqarash

Tayanch tushunchalar

Pozitivizm, neopozitivizm, marksizm, sotsiologiya, sotsiologik oqimlar, ekzistentsializm.

Adabiyotlar

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 17-38 bet.
3. V.S.Barulin «Sotsialnaya filosofiya», FAIR-PRESS, 1999 yil, 4-22 betlar.
4. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. I qism.- T., 2004 yil.
5. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq», 1999 yil, 268-176 betlar.

6. G'arb falsafasi. – T., «Sharq», 2004 yil, 565-574, 579-580, 632-635 betlar.

Oraliq nazorat uchun savollar:

1. Falsafa va ijtimoiy falsafa, ular orasidagi aloqadorlikni qanday tushunasiz.
2. Ijtimoiy falsafiy bilimlar qaysi davrdan shakllana boshlagan.
3. Ijtimoiy falsafaning tarixiy bosqichlari nimalardan iborat?
4. Ijtimoiy falsafaning alohida fan sifatida shakllanishi.
5. XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar.
6. Prezident I.Karimov asarlarida ijtimoiy-falsafiy muommalasi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafasiy bilimlarni o'zida mujassamlantiradi. Falsafa fanining shakllanishi va taraqqiyot tarixi Ayni vaqtda ijtimoiy falsafaga ham bevosita dahldor, zotan falsafiy bilimlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson va uning olamga munosabati muammosini o'z ichiga oladi. Falsafa tarixi Ayni vaqtda ijtimoiy falsafa tarixi hamdir.

Ijtimoiy falsafaning tarixi olimlarni fikricha 3 bosqichni o'z ichiga qamrab oladi.

1. Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va taraqqiyoti. Bu XIX asrgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.
2. XIX asr ijtimoiy falsafaning maxsus yo'nalishi sifatida ajralib chiqishi.
3. XX asrda ijtimoiy falsafaning taraqqiyoti.

Ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti antik davr falsafasidan tortib to XIX asrga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda ilgari surilgan falsafiy qarashlar nafaqat olam, tabiatni Ayni vaqtda jamiyat va inson haqidagi, insonning jamiyatga munosabati haqidagi, insonning jamiyatga munosabati haqidagi bilimlarni ham o'z ichiga qamrab olgan edi. Shundan kelib chiqqan holda ijtimoiy-falsafiy bilimlar eng qadimiy davrlardan boshlab shakllangan, degan xulosaga kelish o'rinli. Ijtimoiy-falsafiy bilimlar qadimgi Sharq mamlakatlari – Xitoy, Xindiston, Markaziy Osiyoda shakllangan. Eramizdan

avvalgi V-VI asrlardan boshlab qadimiy yunoniston falsafasida jamiyat, inson muammolari tahlil qilingan. Aynan qadimgi Yunonistonda ijtimoiy falsafiy bilimlarga asos solingan.

Yunon faylasuflari Platon (e.a. 427-347 yillar) va Aristotel (e.a. 384-322 yillar) ning jamiyat, inson, uning jamiyatga munosabati haqidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlari uzoq vaqt mobaynida jamiyatni ilmiy anglash yo'llarini ko'rsatib bergan.

Aristotelning falsafiy qarashlarida jamiyatga taalluqli bir qator muammolar ko'tarilgan. Bular: jamiyatning kelib chiqishi, mehnat taqsimoti, qullik, tabaqalanishning kelib chiqishi, ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy hayot masalalari va hokazolar.

Ayni vaqtda Aristotel qarashlarida jamiyatni falsafiy anglashning 2 asosiy tomoni o'z aksini topgan. Bu, birinchidan, Aristotelning axloqiy ta'limoti va ikkinchidan, davlat to'g'risidagi ta'limoti. Aristotel jamiyatni davlat bilan uzviy birlikda olib qaraydi. Aristotelning fikricha, jamiyatni davlatdan ajratib bo'lmaydi, inson siyosiy mavjudod bo'lib tug'iladi. Aristotel 158 qadimgi Yunon shahar davlatlari tarixini tiklashga muvoffiq bo'lgan.

Jamiyat haqidagi ilk falsafiy qarashlar qadimdan boshlab Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan. Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi uzoq tarixga ega. U dastlab boy ma'naviy me'rosimiz – xalq og'zaki ijodida, so'ng esa qadimiy yozma madaniy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan. Bu madaniy yodgorliklarda; a) qadimgi bitiklar; «Avesto». Buyuk allomalarimiz qoldirgan manbalar kiradi.

Jamiyat va insonni falsafiy anglash muammolarini Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlarni Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy yirik olim, shoir Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlarida ko'tarilgan.

XIX asrga qadar falsafiy qarashlarda ijtimoiy falsafaga doir ikki muammo o'z yechimini topgan.

1. Jamiyatni, uning falsafiy tahlil etish.

2. Jamiyat tarixini falsafiy anglash.

Ingliz faylasufi Tomas Gobbs (1588-1679), frantsuz mutafakkiri Jan Jak Russo (1712-1778), Sen Simon (1760-1826), ingliz olimlari Adam Smit va David Rikkardo jamiyat, uning tarkibi haqidagi ilmiy bilimlarni ilgari surdilar. Masalan,

Jan Jak Russo «Odamlar o'rtasidagi tengsizlikning kelib chiqishi va uning sabablari haqidagi mulohazalar» asarida mulkiy tengsizlik, jamiyatning boy va qashshoqlarga bo'linishi ijtimoiy tengsizlikning birinchi bosqichidir. Ikkinchi bosqich davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Uchinchi bosqichda hokimiyat zulm va adolatsizlik hokimiyatiga aylanadi deb tahlil etish asosida ideal jamiyat g'oyasining ilgari suradi.

Jamiyat tarixini falsafiy anglash ijtimoiy falsafada eng qadimiy davrlardan boshlab yuzaga kelgan hisoblanadi. Bu tarix falsafasi, deb yuritiladi. Qadimiy yunon olimlari Geradot (er.av. 485-425 yillar atrofida), Fukidid (er.av.460-480 y.), Demokrit, Platon, Aristotel asarlarida jamiyatlar tarixi haqidagi falsafiy fikrlar ilgari surilgan.

Tarix falsafasi muammolari Avgustin Avreliy (354-430 yillar), Foma Akvinskiy (1225-1274) asarlarida ifodalangan.

Olimlar Volter (1694-1778 yillar), Djambattita Viko (1668-1744), Iogann Gottlib Fixte (1762-1814), Iogann Gotfrid Gerder (1744-1803) asarlari tarixni falsafiy anglashga qaratilgan.

Frantsuz faylasufi Volter o'zining butun umrini jamiyat manfaatlaridan yiroq monarxiya hokimiyatiga qarshi kurashga bag'ishladi va jamiyatni aql-zakovat asosida o'zgartirish mumkinligiga ishondi. Nemis olimi, ma'rifatparvari Gerdor «Insonni tarixi falsafasiga doir g'oyalar» asarida Germaniyada XVIII asr oxirigacha hukm surgan tarixni teologik tushunishga qarshi kurashdi.

Ijtimoiy falsafa tarakqiyotining ikkinchi bosqichi XIX asrda ilgari surilgan falsafiy g'oyalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning falsafiy g'oyalarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichning o'ziga xos tomoni shuki, jamiyat haqidagi uzoq tarix davomida to'plangan falsafiy bilimlar ijtimoiy falsafaning fan sifatida falsafa bag'ridan ajralib chiqishga, mustaqil ilm sohasiga aylanishiga sababchi bo'ladi. Shu davrdan ijtimoiy falsafaning predmeti, muammolari doirasini ishlab chiqish boshlandi.

Ijtimoiy falsafaning mustaqil ilm sohasiga aylanishida olimlar Hegel, Marks, Kant, Spenserlarning o'rni katta bo'ldi.

Hegel Vilgelm Feridrix (1770-1831 yillar) nemis klassik falsafasining yirik namoyondasi Hegel o'zining «Rux fonomenlogiyasi» «Tarix falsafasi» asarlarida jamiyatni falsafiy anglashning yaxlit tizimini ishlab chiqdi. U jamiyat tarixining tarixiy jarayonlarning mohiyati, umuman jamiyat, uning tarkibiy tizimini, fuqarolik

jamiyat, davlatni boshqarish usuli, axloq, oila haqidagi chuqur tahlilga asoslangan falsafiy bilimlarni ishlab chiqdi.

Gegel ijtimoiy falsafani fan darajasiga olib chiqdi.

Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va taraqqiyoti K.Marks nomi bilan bevosita bog'liq. U jamiyatga materialistik yondashish asosida o'ziga xo ta'limoti jamiyat falsafasi – tarixiy materializm ta'limotini ishlab chiqdi. U jamiyatni murakkab tarkibiy tizimiga ega ijtimoiy organizm sifatida ta'rifladi. Uning fikricha jamiyat taraqqiyoti – tabiiy – tarixiy jarayon bo'lib hisoblanadi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy falsafiy tahlili asosida jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv, qonuniy xarakterga ega ekanligini asoslab berdi va shu asosda jamiyatlar taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning taraqqiyoti va almashinuvi tarixidan iborat, degan xulosaga keldi va ideal jamiyatni kamunizm g'oyasida ifodaladi. Ma'lumki, olimlar, faylasuflarni azal-azaldan Tenglik, Adolat, Erk, Ozodlik, Farovonlik qaror topgan ideal jamiyatni orzu qilganlar va bunday jamiyatga erishishning yo'llari haqidagi turli-tuman qarashlarni ilgari surganlar. Marks g'oyalarida ham aynan shunday ideal jamiyat haqidagi fikrlar bayon etilgan. Lekin Marks ta'limotida ijtimoiy jarayonlarga sinfiylik asosida yondashuv, sinfiy kurash, proletariat diktaturasi va sinfsiz jamiyatga o'tish g'oyasi uning tarixiy cheklanganligi, insoniyat manfaatlariga zid kelishini ko'rsatdi. Bu narsa Marksizm ta'limotining qadrsizlanishiga olib keldi. Lekin bulardan qat'iy nazar marksizm ta'limoti ijtimoiy falsafaning muhim muammolarini ko'tarib chiqqanligi bilan xarakterlanadi.

Ijtimoiy falsafaning fan darajasiga ko'tarilishida G'arb falsafasining yirik vakili, frantsuz faylasufi Ognest Kant (1798-1857) o'ziga xos o'rni bor. Uning qarashlarida jamiyatning falsafiy tahlili alohida o'rin tutadi. Kant o'zining «Pozitiv falsafa kursi» (6 jildli) kitobida jamiyatni murakkab tuzilishga ega tafakkur shakllari vositasida rivojlanib boruvchi organizm, deb hisoblaydi. Uning fikricha fan va falsafa jamiyat qonunlarini bilib olish kerak. U jamiyat taraqqiyotini ilm taraqqiyoti bilan bog'laydi va jamiyat pozitiv ilmlar asosida qayta quriladi, deb hisoblaydi.

Ijtimoiy falsafaning muammolari ingliz faylasufi va sotsiologi Gerbert Spenser (1820-1903) asarlarida o'z yechimini topgan. Spenser «Ijtimoiy statistika», «Sotsiologiya asoslari» kitoblarida jamiyatga organik yondashuv g'oyasini ishlab chiqdi. U jamiyat xuddi tirik fanizm kabi faoliyat ko'rsatadi, uning har bir elementi ma'lum funktsiyalarni bajaradi, deb hisoblaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning asosiy qonuni, Spenser fikricha eng moslashuvchan jamiyatlarning kurashidir.¹

XX asrda ijtimoiy falsafa taraqqiyoti bir qator yo'nalishlarda o'z ifodasini topadi. Avvalo bu davrda ijtimoiy falsafa markseum g'oyalari rivoji kuzatiladi. Marksning qarashlarini mafkuralashtirish kammunizm g'oyalari hayotga tadbiiq etildi. Marks ta'limotidagi ijtimoiy xodisalarga sinfiy yondashuv insoniyat boshiga katta kulfatlar keltirgani yaqin o'tmsish tariximizdan ma'lum.

XX asrda ijtimoiy falsafa bilan birgalikda sotsiologiya rivojlana boshladi; turli-tuman ta'limotlar ilgari surildi. Bularga Neopozitivizm, psixologik sotsiologiya, industrial sotsiologiya yo'nalishidagi qarashlarni kiritish mumkin.

Shu o'rinda ijtimoiy falsafa bilan sotsiologiya orasidagi umumiylik va farqni aniqlash lozim bo'ladi.

Ijtimoiy falsafa jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning eng umumiy qonunlari to'g'risida bahs yuritadigan. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya uchun umumnazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning mohiyati, ichki taraqqiyoti qonuniyatlarini bilmay turib, aniq jamiyat va undagi ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tushunish mumkin emas. Agar ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi nazariyalar, ta'limotlarni ifodalasa, sotsiologiyani aniq jamiyat, undagi ijtimoiy aloqa va munosabatlar qiziqtiradi. Sotsiologiya faniningn asoschisi frantsuz faylasufi va sotsiologi Emil Dyurkcheyn (1858-1917) hisoblanadi. U jahonda birinchi sotsiaologiya professori, «Sotsiologiya yilnomasi» jurnalining asoschisi.

Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanishi ingliz olimi Gerbert Spenser nomi bilan bog'liq. U birinchi bo'lib, «Sotsiologiyaning asoslanishi» asarida sotsiologiya fanining predmeti, muammolari, vazifalarini aniqlab berdi. Unga ko'ra sotsiologiyaning vazifasi jamiyatning eng umumiy evolyutsiya qonunlarini ochishga xizmat qiladigan sotsial faktlar va sotsial jarayonlarni o'rganadi.

XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotida nemis olimlari O.Shpengler (1890-1936) va Karl Yaspers (1883-1969), frantsuz faylasuflari Anri Berjou (1859-1941) va Karl Yaspers qarashlari muxim o'rni tutadi.

Osvold Shpengler «Evropaning so'nishi» asarida madaniyat va sivilizatsiyani o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. XX asrdagi ijtimoiy falsafiy qarashlarda inson muammosiga alohida e'tibor qaratilgan. Ijtimoiy taraqqiyotda inson aqlu-zakovatining o'rni, inson qadriyati, insonparvarlik, gumanizm g'oyalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarning asosiy tashkil etadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichi jahon miqiyosida mustamlakachilikning yashirilishi, jahon haritasida yangi, mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi ijtimoiy-falsafiy qarashlarning fikrlar taraqqiyotiga turtki bo'ldi.

SSSR ning yemirilishi, O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish ijtimoiy taraqqiyotga yangicha yondashuvni talab qiladi.

Jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot muammolariga o'ziga xos yondashuv Respublika Prezidenti Islom Karimov asarlarida o'z ifodasini topgan.

Islom Karimovning hozirgi zamon jamiyati, jahon miqiyosida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar, mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot yo'li, ijtimoiy taraqqiyotning «o'zbekcha modeli» haqidagi qarashlari ijtimoiy-falsafiy bilimlar rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

3- Jamiyat – yaxlit tizim sifatida

Reja:

1. Jamiyatning mohiyati.
2. Jamiyat hayoti, uning asosiy sohalari.
3. Axborotlashgan jamiyat va fuqorolik jamiyati tushunchalari, mohiyati.
4. O'zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqorolik jamiyati

Tayanch tushunchalar

Jamiyat. Fuqarolik jamiyati. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Jamiyatning siyosiy hayoti. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Axborotlashgan jamiyat. Ochiq jamiyat. Yopiq jamiyat. Fuqarolik jamiyati

Adabiyotlar

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 170-188-bet.
3. Islom Karimov O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishining asosiy yo'nalishlari. – T., «O'zbekiston» 2002yil.
4. Tulenov J. Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil, 3 – 9 betlar.
5. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq», 1999 yil, 247-255 betlar.
6. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NJIU, 2005 yil, 281-186 betlar.
7. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 62-82 betlar.
8. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «Sharq», 2004 yil.

Oraliq nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatning mohiyatini qanday tushunasiz?
2. «Jamiyat – yaxlit tizim» fikrining ma'nosini sharhlang?
3. Jamiyat hayotining asosiy sohalari qaysilar?
4. Jamiyatning iqtisodiy hayotiga nimalar kiradi?
5. Jamiyatning ma'naviy hayoti tarkibiga nimalar kiradi?
6. «Ochiq jamiyat» qanday jamiyat?
7. «Yopiq jamiyat» deganda qanday jamiyatni tushunasiz.?
8. Fuqarolik jamiyati qanday jamiyat?

Falsafa jamiyatni ob'ektiv olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Ijtimoiy falsafa avvalo jamiyat, uning mohiyati, taraqqiyot qonunlarini o'rganadigan falsafaning maxsus sohasi bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat muammosi qadimdan odam larni qiziqtirib kelgan. Kishilik jamiyatini o'rganadigan fan sohalari ko'p. Jamiyatning iqtisodiy hayoti iqtisodiyot nazariyasi, unda kechadigan tarixiy jarayonlar tarix, jamiyatni boshqarish sohasi «Davlat va huquq nazariyasining tadqiqot ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy falsafa boshqa fanlardan farqli o'laroq jamiyatni yaxlitlikdan iborat bo'lgan tizim sifatida o'rganadi va bu tizimga xos bo'lgan qonunlarni yechishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Jamiyat Qadimiy Yunon falsafasining muhim muammosi bo'lib hisoblanadi.

Platon ta'limotida jamiyat, davlat masalalari muhim o'rin tutadi. Platon jamiyatga tizim sifatida yondashadi va bu tizimni jamiyatning tarkibiy tizimini, davlat boshqaruvi haqida qimmatli fikrlar bildirgan.

Qadimiy Yunon faylasufi Aristotel jamiyatni o'rganish bilan bog'liq bo'lgan fanlarni ishlab chiqqan va «Metofizika» deb nomlagan. Bu fanlar orasida siyosatga alohida o'rin bergan. Uning fikricha, jamiyat siyosiy mavjudotlardan tashkil topgan.

Amir Temurning «Temur tuzuklari» da jamiyat, uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayoti, jamiyat hayotini tashkil etish to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Jamiyat haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlar Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkir olimlar tomonidan ilgari surilgan.

Buyuk olim Abu Nasr Farobiy asarlarida jamiyat muammosi chuqur falsafiy tahlil qilingan. U jamiyatning kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyojni qondirish yotadi, degan nazariyani ilgari surgan.

Tabiiy ehtiyoj kishilarni birlashishga, jamoaga uyushuviga, o'zaro yordamga olib kelgan. O'zaro yordam tufayli ehtiyojlar qondirilgan. Kishilar o'rtasidagi o'zaro yordam jamiyatni keltirib chiqargan. Insoniyat jamiyati turli xalqlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro bir-birlaridan tillari, urf-odatlar, malakalari, xususiyatlari bilan farqlanadilar.

Farobiy davlatlarni fozil va johillarga ajratadi. Fozil shahar yuksak axloqli va ma'rifatli kishi tomonidan boshqarilib, bu davlat shahar aholisining o'zaro ko'maklashuviga, bir-biriga yordam berishga asoslanadi. Odamlarga nisbatan ularni birlashtirib turuvchi ibtido – insoniylikdir. Shu tufayli odamlar odamzod turkumiga oid bo'lgani uchun ham o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim.1

Abu Ali Ibn Sino «Ishorat va tanbiqot» asarida inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatda bo'libgina, ularni qondirishi mumkin»² deb hisoblaydi. U insonlarning jamiyatda tutgan o'rniga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) Davlat idoralarida xizmat qiluvchi va jamiyatni boshqarish ishi bilan shug'ullanuvchilar

b) Xomashyo va zaruriy mashg'ulotlarni ishlab chiqaruvchilar.

v) Davlatni qo'riqlash, uni turli tashqi xujumlardan saqlashni ta'minlaydigan xarbiylar.

Ibn Sino jamiyatning paydo bo'lishi kishilarning birdamlikka bo'lgan tabiiy ehtiyojidan kelib chiqqanligini ko'rsatgan.

Abu Rayhon Beruniy birinchilardan bo'lib sivilizatsiyalarning paydo bo'lishida tabiiy-geografik muhitning tutgan o'rnini asoslashga uringan.

U jamiyatni «idora qilish va boshqarishning mohiyati aziyat chekkanlarning huquqlarini himoya qilish, birovlarining tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishidan iborat» deb bilgan.

Alisher Navoiy o'z asarlarida «ideal jamiyat» qiyofasini chizgan.

XIX asrning o'rtalarida jamiyat, uning mohiyati, taraqqiyot istiqbollari o'rganish hayotiy zarurat darajasiga ko'tarildi. Ikkinchi mavzuda ta'kidlaganimizdek, aynan shu zaruriyat falsafa fanidan ijtimoiy falsafaning ajralib chiqishiga va maxsus falsafiy fan sifatida shakllanishiga sabab bo'ldi.

G'arbiy Yevropaning G.Spenser (1820-1907), Dyurkgeym (1858-1917), Georg Vilgelm Gegel (1770-1831), M.Veber (1864-1920), singari olimlari, shuningdek K.Marks (1818-1883), Engels (1820-1895) lar jamiyat hayotini murakkab ijtimoiy tizim sifatida tadqiq etdilar.

Ijtimoiy falsafa jamiyatni tahlil qilishda quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) Jamiyat bir butun yaxlit olamning tarkibiy qismi, borliq, tabiatning o'ziga xos ko'rinishi, odamlar uyushmasining maxsus shakli.


2) Jamiyat bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi ijtimoiy tizimdir. Falsafa jamiyatni o'rganganda uni yaxlitlik sifatida olib o'rganadi va shu asosda uning mavjudligi, taraqqiyot qonunlarini ochib beradi.

3) Ijtimoiy falsafa jamiyatning barcha tomonlari orasidagi aloqadorliklar va taraqqiyotni tadqiq etadi.

4) Ijtimoiy falsafa jamiyat ham olam kabi uzluksiz harakatda, o'zgarishda, taraqqiyotida, deb biladi, unda kechadigan barcha voqea-hodisalarni dinamik jarayon sifatida o'rganadi.

Sxema 1

Moddiy olamning tarkibiy qismi.




Kishilararo aloqa va munosabatlar ijtimoiy munosabatlar, deb yuritiladi. Jamiyat yaxmiy tizim sifatida moddiy va ma'naviy omillar birligida tashkil topgan.

Sxema 2.

Jamiyat hayoti murakkab tuzilishga ega jamiyat hayotining asosiy sohalari deganda iqtisodiy, ijtimoy, siyosiy, ma'naviy soxalar nazarda tutiladi.

Jamiyat hayotining soxalarini quyidagi sxemada ifodalash mumkin.

Sxema 3.



Iqtisodiy hayot sohasi jamiyatdagi mavjud moddiy ishlab chiqarishni nazarda tutadi. Hamda jamiyat hayotining iqtisodiy sharoitlarini yaratishdan iborat bo'lgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatning ijtimoiy hayoti deganda undagi mavjud turli birliklar, guruhlarning hayoti hamda, ular orasidagi turli-tuman ijtimoiy aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi.

Jamiyatning siyosiy hayot sohasi kishilar, siyosiy kuchlar-sinflar, millatlarning o'zaro siyosiy munosabatlarini, ularning davlat hokimiyatini qo'lga kiritish va mustahkamlash borasidagi ongli faoliyatlarini qamrab oladi.

Jamiyatning ma'naviy hayot sohasi unda mavjud ma'naviy ishlab chiqarish va uning natijalari xilma-xil qarashlar, g'oyalar, ta'limotlar, fan, adabiyot, san'at, ta'lim-tarbiya kabi) ni qamrab oladi.

Jamiyatlar ochiq jamiyat, yopiq jamiyat, axborotlashgan jamiyat, fuqarolik jamiyati kabi shakl va ko'rinishlarga ega.

Ochiq va yopiq jamiyat tushunchalarini ijtimoiy falsafaga ingliz olimi Karl Bonner (1902-1994) kiritgan. U yopiq jamiyatni totalitar siyosiy tuzumning mahsuli sifatida ta'riflaydi. Ochiq jamiyatda jamiyat fuqarolari shaxs hisoblanadi. Unda muayyan qarorlarni qabul qilishda fuqarolar qatnashadilar. Karl Bonner ochiq jamiyatni bozor iqtisodi (bozor erkinligi) bilan bog'laydi. Uning fikricha dunyoda insonparvarlik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy tuzumni tashkil etish uchun insoniyat beshta muhim vazifani ado etishi zarur:

1. Erkinlikni mustahkamlash, undan kelib chiqadigan mas'uliyatni anglash;
2. Dunyoda tinchlik o'rnatish;
3. Qashshoqlikka qarshi kurash;
4. Demografik «portlash»ga qarshi kurash;
5. Zo'ravonlikka qarshi ta'lim-tarbiyani jadallashtirish.1


Axborotlashgan jamiyat aslida amerikalik faylasuf, sotsiolog Olvin Pafler (1928 yilda tug'ilgan) tomonidan iste'molga kiritilgan, u postindustrial jamiyatni axborotlashgan jamiyat, deb atardi.

Axborotlashgan jamiyat deganda informatsiya, ijodiyot va intellektual texnologiyaning ahamiyati ortib borgan jamiyat nazarda tutiladi. Bu jamiyat kompyuterlar, lazer texnikasi, biotexnologiya, gen injeneriyasi, informatika, elektronika, televidiokammunikatsiya rivoji bilan bog'liq ravishda mavjud bo'la oladi. Bu jamiyatda asosiy e'tibor mashinalarni o'zgartirishga emas, balki kishilar ongi va madaniyatini o'zgartirishga qaratadi.

Fuqarolik jamiyati deganda – mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmushini o'z ihtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim nazarda tutiladi. Fuqarolik jamiyatida davlat faoliyati yuzasidan fuqarolarning nazorati o'rnatiladi, davlatning ko'pgina funksiyalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tadi.

Fuqarolik jamiyati insoniyat sivilizatsiyasining mahsuli hisoblanadi.

Fuqarolik jamiyati murakkab tuzilishga ega bo'lgan jamiyat.



Hozirgi kunda O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Erkin fuqarolik jamiyati qonun ustuvor, ijtimoiy adolat hukmron bo'ladigan, insonning huquq va erkinliklari oliy o'ringa ko'tarilgan jamiyatdir.

Respublika Prezidenti Islom Karimovning O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li;

O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari;

«O'zbekistonning XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari», risolalarida erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'llari va bu sohadagi vazifalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyatining mazmun mohiyati Prezident I.Karimov tomonidan shunday ta'riflanadi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi».1

4- Jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy va ijtimoiy omillari

Reja:

1.Falsafa va fan tarixida jamiyat, tabiat, inson orasidagi bog'liqlik va aloqadorlikning

qo'yilishi.

2. Tabiat va jamiyat, ular orasidagi uzviy aloqadorlik.

3. Geografik muhit va uning jamiyatga ta'siri

Tayanch tushunchalar

Geografik muhit. Beosfera. Noosfera. Naturalistik oqim. Geografik determinizm. Geografik siyosat. Ekologik siyosat. Demografiya. Biosfera. Noosfera. Urbanizatsiya. Ruralizatsiya.

Adabiyotlar

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y
2. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 110-137, 227-252-bet.
3. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosoiya. – Moskva, VLAGOS, 1998 yil, 19-20, 119-127, 177-190 betlar.
4. V.S. Barulin. Sotsialnaya filosoiya. – Moskva, FAKR-PRESS, 1999 yil, 351-392 betlar.
5. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «Sharq» 2004 yil.
6. Falsafa. – Toshkent, 2006 yil, 356-361 betlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Noosfera nima.
2. Jamiyat va tabiiy orasidagi aloqadorlik nimalarda namoyon bo'ladi.
3. Geografik muhit nima.
4. Biosfera nima.
5. Geografik muhit va jamiyat orasidagi aloqadorlik nimalarda namoyon bo'ladi.
6. Geografik determinizm falsafiy oqimining mohiyati.
7. Geografik siyosat nima.
8. Ekologik siyosati tushunchasining ma'nosi.
9. Aholi zichligi va uning jamiyatdagi o'rni.
10. Maltuschilik va neomaltuschilik nazariyalarining mohiyati.
11. Demografik omilning jamiyatga ta'siri namalarda namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayoti va taraqqiyoti bilan tabiiy orasidagi aloqadorlik ijtimoiy falsafaning muhim muammolari doirasiga kiradi.

Avvalo jamiyat tabiiy evolyutsiyasining mahsuli va ko'rinishi, ob'ektiv borliqning shakli bo'lib hisoblanadi. Jamiyat ajralib chiqqan. Jamiyat tabiiy bilan aloqadorlik mavjud bo'la olmaydi va yashay olmaydi. Jamiyat bilan tabiiy orasidagi aloqadorlik tabiiy omillarning jamiyatga ta'siri tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyatga ta'sir etuvchi omillar deganda,

- a) geografik muhit;
- b) aholi zichligi va ularning jamiyatga ta'siri nazarda tutiladi.

Jamiyat va tabiat dialektik birlikda, o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisining mavjud bo'lishi mumkin emas. Bu bog'liqlik:

a) jamiyatning genezisida o'z ifodasini topadi.

b) aynan ana shu tufayli jamiyat va tabiatdan narsalar tuzilishidagi umumiylikda namoyon bo'ladi.

1) Odam va hayvon tirik tabiat vakillari sifatida tuzilishiga ko'ra o'xshash, ayni vaqtda uning hayotiy funksiyalari ham o'zaro biri ikkinchisiga o'xshash (masalan: nafas olish, ovqat hazm qilish, o'zaro moda almashish va h.k.)

2) Jamiyat tabiatdan tashqarida, unga bog'liq bo'lmasdan mavjud bo'la olmaydi. Inson tabiat tufayli, tabiat bag'rida yashaydi va faoliyat ko'rsatadi.

3) Tabiat ham, jamiyat ham moddiy, ular yaxlit moddiy olamning ko'rinishlari.

4) Tabiatda ham, jamiyatda ham taraqqiyotning umumiy qonunlari amal qiladi.

Biz falsafa kursida tabiat va jamiyat qonunlari, ular o'rtasidagi umumiylik va farqlar bilan tanishgan edik.

Jamiyat bilan jamiyat orasidagi uzviy aloqadorlik tarixini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin:

O'zlashtirish bosqichi;

Agrar bosqichi;

Industrial bosqichi;

Noosfera davri.

Tabiat, tabiiy muhaqidagi qarashlar biosfera to'g'risida ta'limotda o'z ifodasini topgan.

Biosfera tushunchasini birinchi bo'lib avstriyalik olim, geolog Eduard Zylus iste'molga kirishgan va uni yerning jonli qobig'i, deb ta'riflagan. Biosfera ta'limoti akademik Vladimir Vernadskiy (1863-1945) tomonidan rivojlantirilgan. Vernadskiy biosferani organizmlar tarqalgan Yer sayyorasining jonli qobig'i, deb ta'riflagan. Biosferaning yuqori rivojlanish bosqichini, ya'ni tabiatning inson aqliy faoliyati sohasiga aylanishini noosfera, deb atagan. Demak, noosfera tabiat va jamiyat orasidagi o'zaro aloqa va munosabatda inson ongli faoliyatining

taraqqiyotining bosh omiliga aylanishi nazarda tutiladi. «Noosfera» tushunchasi XX asrning 20-yillarida frantsuz olimlari Eduard Lerda va Per Geyyar de Shardenlar tomonidan iste'molga kiritilgan. Noosfera to'g'risidagi ta'limot akademik V.Vernadskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Noosfera, ya'ni «ong sohasi» ning tarkibiga:

a) inson va uning faoliyati, turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan inson ongi;

b) texnika;

v) madaniy-iqtisodiy komplekslar;

g) inson ta'siri ob'ekti hisoblangan notirik va tirik tabiat qismi.

Sxema 1:

Madaniy-iqtisodiy

komplekslar

Jamiyatga ta'sir etadigan tabiat omili – geografik muhit hisoblanadi. Tabiatning jamiyatga ta'sirining muhim tomonini geografik muhit tashkil etadi. Geografik muhit muayyan tarixiy davrda inson va jamiyat hayoti kechadigan makon. «Geografik muhit» tushunchasi ijtimoiy falsafaga olimlar E.Reklyu va L.M.Mechnikov tomonidan kiritilgan.

Geografik muhit inson hayoti uchun zarur bo'lgan tabiat elementlari majmuasi, ijtimoiy munosabatlar kechirgan tabiiy makon. Geografik muhit bilan jamiyat orasidagi uzviy bog'liq, aloqadorlik dialektik xarakterga. Buning ma'nosi shuki, geografik muhit jamiyatga, jamiyat ham o'z tavbatida geografik muhitga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Jamiyat tabiatdan oziq-ovqat mahsulotlarini, ishlab chiqarish vositalari uchun xomashyolarni va energiya manbalarini oladi. Geografik muhit ishlab chiqarishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. geografik muhitning jamiyatga ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) Geografik muhit ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir mehnat taqsimotining chuqurlashib boruvida ishlab chiqarish turli sohalarining joylanishi va taraqqiyotida namoyon bo'ladi.

2) U mehnat unumdorligiga ta'sir ko'rsatadi. Buni ob-havo sharoitlarining ishlab chiqarishga ta'siri misolida ko'rish mumkin. Aynan tabiiy hodisalar inson

faoliyati natijalarini yo'qqa chiqarish mumkin. (Masalan: suv toshqini, qurg'oqchilik va h.k.).

3) Geografik muhit, tabiiy shart-sharoitlar ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining tezlashuvi yoki sekinlashuviga ta'sir ko'rsatadi.

4) Geografik muhit inson qobiliyatlarining taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir avvalo ijtimoiy ongning shakllanishi va taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda geografik muhit jamiyat ma'naviy hayotiga ta'sir qiladi.

5) Geografik muhit jamiyat taraqqiyoti templyariga o'z ta'sirini o'tkazadi. U jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin.

6) Geografik muhit ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasida tabiiy shart-sharoitlar juda qadimlardan boshlab sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan.

7) Geografik muhit jamiyatning ijtimoiy-ruhiy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning geografik muhitga ta'siri inson faoliyati va uning natijalarida namoyon bo'ladi. Insonning tabiatga ta'siri ekologiya faoliyat, deb yuritiladi. Ekologik faoliyat tabiatga ijobiy va salbiy ta'sir tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyat va inson ehtiyojlarni qondirish zarurati ekologik faoliyatni yuzaga keltiradi.

Ekologik faoliyat yo tabiat bilan jamiyat orasidagi muvozanat saqlashga yoki bu muvozanatning yemirilishiga xizmat qilishi mumkin. Shunga ko'ra insonning tabiatga munosabati ikki shaklda:

a) oqilona

b) vaxshiyona munosabatda namoyon bo'lishi mumkin.

Ekologik faoliyat, uning qanday xarakterga egaligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti darajasiga, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi.

Jamiyatga geografik muhitning ta'sirini mutlaqlashtirish geografik determinizm yoki geografizm falsafasi oqimida o'z ifodasini topgan. Geografizm oqimi XVIII asrning boshlarida shakllandi. Bu oqimning falsafiy mohiyati frantsuz olimi Sharl Luk Monteske (1689-1755) asarlarida o'z ifodasini topdi. Mazkur oqim namoyondalariga XIX asr ingliz olimi Boklv (1821-1862), E.Reklyularni kiritish mumkin. Bokl sotsiologiyaning geografik maktabi namoyondasi. U ayrim xalqlarning tarixiy taraqqiyoti xususiyatlarini tabiiy omillar (landshaft, tuproq, iqlim va oziq-ovqatlar) ta'siri bilan izohlaydi.

Geografizm oqimi o'zi shakllangan davr XVIII asrda progressiv o'rin tutgan, chunki u jamiyatni diniy tushunishga qarshi qaratilgan oqim edi.

Geografik muing jamiyatga ta'siri geopolitika (geosiyosat) ijtimoiy-falsafiy yo'nalishida o'z ifodasini topdi. Geopolitika XX asrning 30 yillarida Germaniyada shakllanadi. Bu oqimning maqsadi natsistlarning bosqinchilik siyosatini oqlashdan iborat edi.

Aslida «geopolitika» atamasini fanga shvetsiyalik olim R.Chellen olib kirdi. Bu atama 1-jahon urushi arafasida keng qo'llana boshlandi.

Nemis olimi F.Rettsel(1844-1904) davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati orasidagi o'zaro aloqadorlik masalasini ko'tardi. U xalqlarda «alohida makonni xis qilish» qobiliyati mavjudligini e'tirof etgani holda o'z chegaralarini kengaytirishga intilayotgan xalqlarga e'tibor qaratdi. K.Xausxofer (1869-1946) mohiyatan tajavuzkorlik tabiatiga ega bo'lgan «nemis millati hayotiy makoni» haqidagi gipotezani ishlab chiqdi.

XX asrning 80-yillarida geosiyosat – yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Geosiyosat nazariyasi davlat siyosatida o'z ifodasini topa boshladi.

Axolii zichligi, jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan tabiiy omil hisoblanadi.

Davlat siyosatining muhim tomonlaridan biri geografik siyosatning asosiy yo'nalishidan ekologik siyosat bo'lib hisoblanadi.

Ekologik siyosat:

- a) Suv, havo, tuproq, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilishda;
- b) Chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishda;
- v) Ekologik ta'lim va tarbiyani takomillashtirishda namoyon bo'ladi.

Geografik siyosat keng ma'nodagi tushuncha bo'lib davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarida o'z ifodasini topadi.

Aholi zichligini jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan muxim tabiiy omildir.


Aholi zichligi deganda muayyan xududda, mamlakat yoki yer yuzida yashovchi kishilarning majmui nazarda tutiladi. Aholi zichligi deganda uning soni, muayyan hududga nisbatan zichlik darajasi, sonining o'sish sur'atlari, jins, yosh

xususiyatlari, madaniy taraqqiyot darajasi kabi xislatlar nazarda tutiladi. Aholi dinamikasini o'rganadigan maxsus fan sohasi – demografiya Fani mavjud.

Demografiya Fani ma'lumotlariga ko'ra insoniyat Yer yuzida deyarli 2 mln yildan beri istiqomat qilib keladi.

Dunyo aholisining o'sib borish sura'tlari

Sxema2.



qadar (3000 yil av.)

2025 yilda aholining soni 8 mlrdga yetadi, deb taxmin qilinmoqda.¹

Aholi zichligi omilining jamiyatga ta'siri ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuvi yoki sekinlashuvida namoyon bo'ladi.

Aholi zichligining jamiyatga ta'siri «aholi-iqtisodiyot» va «iqtisodiyot-aholi» tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Aholi zichligining ortib boruvi umumiy tarzda etganda ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotida o'z ifodasini topadi. Lekin aholi zichligi uning ko'p, kamligi bilangina o'lchanmaydi.

Aholi zichligining jamiyatga ta'siri «demografik omil» tushunchasida o'z ifodasini topdi.

Demografik omil ko'p qirrali tushuncha bo'lib, quyidagilarni hisobga olishni taqazo etadi:

- a) Aholining soni va zichligi;
- b) Yosh xususiyatlari;
- v) Salomatlik darajasi;
- g) Bilim (ma'lumot) darajasi;
- d) Yashash manzillari
- ye) Urbanizatsiya va ruralizatsiya jarayonlari;
- j) Migrafiya jarayonlari va h.k.

Aholi omilining jamiyatga ta'siri uning barcha sohalarida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan aholi omilining iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, ma'naviy hayot sohalariga, ta'siri haqida gapirish mumkin.

Aholi sonining tobora ortib boruvi turli-tuman falsafiy qarashlarda o'z ifodasini topgan. XVIII asrdan boshlab olimlarni «Aholi sonining ortib boruviga qanday yondashmoq lozim» degan savol qiziqtirgan. Maltuschilik va neomaltuschilik nazariyalarining shakllanishiga olib kelgan.

Ingliz iqtisodchisi Tomas Maltus (1760-1833) «Aholi zichligi qonuniyati tajribasi» asarida aholining tez sur'atlar bilan o'sib borishi demografik portlashga sababchi bo'lishi mumkin. Chunki aholi sonining tez sur'atlar bilan sinib borishi

oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tug'ilishni cheklash yo'li bilan boshqarish lozim, degan xulosaga keldi.

XX asrda G'arbda neomaltuschilik qarashlari keng yoyildi. 1971 yilda J.Forresterning Rim klubiga tavsiya etilgan. «Dunyo dinamikasi» deb nomlangan hisobotida insoniyat haqiqatan ham inqiroz oldida turibdi. Shuning uchun aholi o'sishini chegaralash yo'li bilan xomashyo zahiralari muvozanatini saqlash haqidagi fikr ilgari surildi.

Haqiqatan ham, geografik muhit va demografik omilning jamiyat hayotidagi o'rnini va ahamiyatini inkor etish mumkin emas. Ayni vaqtda ularning jamiyatga ta'sirini mutlaqlashtirish ham noo'rin.

Jamiyat murakkab ijtimoiy organizm. Uning shakllanishi va taraqqiyotida tabiiy omillarning tutgan o'rnini inkor etmagan holda jamiyatga ta'sir etadigan ijtimoiy omillar ham mavjudligini e'tiborga olmoq lozim. Moddiy ishlab chiqarish, madaniyat, qadriyatlar, milliy g'oya jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillardir.

5- Jamiyatning iqtisodiy hayoti

Reja:

1. Jamiyat iqtisodiy hayotining asosi va qonunlari.
2. Moddiy iqtisodiy ishlab chiqarish: usuli va tarkibiy tuzilishi.
3. Ishlab chiqarish munosabatlari va uning o'ziga xos tomonlari.
4. Bozor munosabatlari va mulkchilikning xilma –xil shakllari.

Tayanch tushunchalar

Jamiyatning iqtisodiy hayoti, moddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, mulk, texnika, texnologiya, mehnat taqsimoti.

Adabiyotlar

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T., «O'zbekiston», 2001 yil, 15-bet.
3. Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., «O'zbekiston»,1992 yil.
4. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 188-210, 227-252-bet.
5. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. – T., 2001 yil, 4-9-betlar.
6. Falsafa. O'quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 255-258 betlar.
7. S.E.Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya.-Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 83-112 -bet.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyatning iqtisodiy hayoti «tushunchasi nima» ni ifodalaydi.
2. Jamiyat iqtisodiy hayotining asosida nima yotadi?
3. Moddiy ishlab chiqarishning mohiyatini qanday tushunasiz?
4. Iqtisodiy ishlab chiqarish usuli nima, ta'riflang.
5. Texnika, texnologiya tushunchalarini izohlang?
6. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning mohiyati va tarkibiy tuzilishi.
7. Moddiy ishlab chiqarish qanday zaruratni ifodalaydi?
8. Ishlab chiqarish munosabatlarining asosini nima tashkil etadi?
9. Ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti darajasining ishlab chiqarish munosabatlari xarakteriga muvofiq kelishi qonunining mazmuni va amal qilish xususiyatlarini izoxlang.

Kishilarning o'z moddiy hayot sharoitlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyat turlari hamda shu jarayonda shakllanadigan ijtimoiy munosabatlar jamiyatning iqtisodiy hayot sohasini tashkil etadi.

Jamiyat moddiy hayot sohasining asosini moddiy ishlab chiqarish deganda avvalo inson hayoti uchun zarur bo'lgan. Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi.

Ayni vaqtda moddiy ishlab chiqarish inson hayotining o'zini ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.

Jamiyat moddiy ishlab chiqarmasdan turib yashay olmaydi. Moddiy ishlab chiqarishning o'zi jamiyat a'zolarining moddiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish zarurati tufayli yuz beradi.

Jamiyat kishilar hayoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni va o'z-o'zini ishlab chiqarmasdan turib mavjud bo'la olmaydi. Aslida insoniyat tarixi tirikchilik vositalarini ishlab chiqarishdan boshlangan. Moddiy ishlab chiqarish 2 asosiy tarkibiy elementdan tashkil topgan.

1) Ishlab chiqarishning texnologik usuli.

2) Iqtisodiy ishlab chiqarish usuli.

Ishlab chiqarishning texnologik usuli deganda kishilarning mehnat predmetlari va mehnat vositalariga munosabatlari nazarda tutiladi. Jamiyat iqtisodiy hayoti haqida fikr yuritganda «texnika», «texnologiya» tushunchalaridan keng foydalaniladi.

Nemis olimi Ernst Kanpa «Insoniyat tarixiga diqqat bilan nazar tashlansa, u boshdan-oyoq mehnat qurollarini ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan» deb bejiz yozmagan. Texnika yunoncha so'z bo'lib, san'at, mahorat ma'nolarida qo'llanadi. Texnika odamzodning turli qurollar, asbob-uskunalarni yaratish san'ati ma'nosini ifodalaydi. Texnika tushunchasi kishilar tomonidan ishlab chiqarilgan asbob-uskunalar, mehnat qurollariga nisbatan qo'llangan va tabiatga ta'sir etishda ulardan foydalangan.

Texnikaning shakllanishi haqida fikr yuritganda, insonning yaratish san'ati sifatida texnika 2 million yillik tarixga ega ekanligini nazarda tutmoq lozim. texnika dastlab oddiy asbob-uskunalar, mehnat qurollari shaklida mavjud bo'lgan. XVII asrdan boshlab G'arbiy Yevropada texnika taraqqiyoti oqibatida mashina mehnati shakllana boshladi. XX asrga kelib texnika inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini qamrab oldi.

Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatida odamzod hayoti va faoliyatining texnika ishtirok etmayotgan Biron-bir jabhasi qolmayapti.

Shundan kelib chiqqan holda texnika tushunchasiga inson tomonidan tashqi dunyoni o'zgartirish vositasi, inson yashaydigan muhit va insonning mavjudligi timsolidir, degan ta'rifni berish o'rinli.

Texnika - mehnat predmetlariga ta'sir ko'rsatishning vositalari.

Texnologiya - mehnat predmetlariga fan va amaliyot imkoniyatlari, talablari asosida ta'sir etish.

Texnikani qullash, undan foydalanish usullari texnologiya, deb yuritiladi.

Ishlab chiqarishning usuli tarixda 4 xil shaklda namoyon bo'lgan.

a) tayyor mahsulotlarni o'zlashtirish (haqiqiy odamlarning tabiatan oziq-ovqat ombori va qurol-yarog' arsenali sifatida foydalanishi, termachilik faoliyati.

b) agro-hunar manochilik texnologiyasi.

v) industrial texnologi

g) axborot-kompyuter texnologiyalari

Hozirgi davrda «inson-texnika» munosabatlari ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi. Jamiyatlar taraqqiyoti ishlab chiqarish texnologiyasi taraqqiyotida o'z ifodasini topgan. Ishlab chiqarish texnologiyasi taraqqiyoti oddiydan murakkabga qarab borgan. Dastlab asbob-uskunalardan foydalanish, so'ng mexanizatsiyalash va nihoyat undan avtomatlashtirishga o'tish tarzida yuz bergan.

Texnika taraqqiyoti fandagi chuqur o'zgarishlarsiz yuz bermaydi. Avvallari fandagi yangiliklar texnikaga tatbiq etilar edi. Bu ketma-ket sodir bo'lar edi. Endilikda fan va texnikadagi o'zgarishlar bir vaqtda yuz bermoqda va bunday o'zgarishlar muayyan sifat xususiyatlariga ega. Shuning uchun ham ular ilmiy-texnik inqilobi (fan-texnika inqilobi) deb yuritiladi.

Fan-texnika inqilobining hozirgi bosqichi:

- mikro elektronika radiotexnika, radioelektronika


- biotexnologiya - kompyuterlashtirish radiotexnika, radioelektronika, sintetik Kime kabi yangi sohalarning shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy ishlab chiqarish usuli deganda ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari nazarda tutiladi.

Jamiyatning iqtisodiy hayoti ko'p f'nlardan tomonidan o'rganiladi. Iqtisodiyot nazariyasi moddiy ishlab chiqarish, uning qonunlarini, ergonomika (erganti) inson va uning ishlab chiqarish faoliyatini o'rganadi.

Jamiyatning iqtisodiy hayoti uning iqtisodiy ishlab chiqarish usulida o'z ifodasini topadi.

Ko'rgazmali chizma 1.



Ishlab chiqaruvchi kuchlar jamiyat iqtisodiy hayotining muhim tomonini tashkil etadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilarning tabiatga munosabati nazarda tutiladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishi jarayonining sub'ektiv va predmetli elementlari nazarda tutiladi.

Moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonida kishilararo sodir bo'ladigan aloqa va munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlari, deb jamiyatning iqtisodiy ishlab chiqarish usuli uning iqtisodiy tizimida o'z ifodasini topgan.

Jamiyatning iqtisodiy tizimi deganda insonning tabiatga munosabati nazarda tutiladi. Bu munosabatlar tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar deyiladi.

Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida sodir bo'ladigan munosabatlar ishlab chiqarish munosabatlari yoki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar deyiladi.

Tashkiliy iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil etimsh jarayonida kelib chiqadi.

Ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlarini ifodalaydi.

Moddiy ishlab chiqarish deganda avvalo inson mehnati nazarda tutiladi. Umumiy tarzda olganda mehnat inson mavjudligining asosiy shakli. mehnat inson bilan tabiat orasidagi modda almashuvi jarayoni. Mehnat jarayoni avvalo inson yashash sharoitlarini vujudga keltirish jarayonidir. mehnat insonga zarur bo'lgan shart-sharoitlarni va o'z-o'zini qayta ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Mehnat jarayoni ishlab chiqarish tushunchasida konkretlashadi. Ishlab chiqarishning o'zi esa kishilarning tabiatga va o'zaro bir-birlariga munosabatisiz amalga oshishi mumkin emas.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar avvalo ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalaridan iborat.

Ishchi kuchi – bu, mehnat qurollarini harakatga keltiradigan, moddiy boyliklarni ishlab chiqaradigan inson. Lekin ishchi kuchining mazmuni o'zgardi. Bugun fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanayotgan davrda insonga ishlab chiqarishi uchun ishlab chiqarish tajribasi va mehnat qilish malakasining o'zigina yetarli emas. Endi u ilmiy bilimlarni egallagan bo'lmog'i lozim.

Ishlab chiqarish vositalari – insonning tabiatga ta'sir etishidagi foydalanigan narsalar, predmetlar. Ular orasida mehnat qurollari alohida o'rin tutadi. Mehnat qurollari jamiyatning tabiatga ta'siri xarakterini ifodalaydi. Mehnat qurollari ishlab

chiqarishning suyak-muskul sistemasini tashkil etadi. Ayni vaqtda ishlab chiqarish qurollari texnika, uning bir qismi hisoblanadi. (maishiy texnika, transport texnikasi, axborot texnikasi)

Mehnat predmetlari – inson mehnati yo'naltirilgan narsa va hodisalar, insonning ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etgan tabiatning qismlari.

Moddiy ishlab chiqarishning murakkablashib boruvi mehnat taqsimotini keltirib chiqargan va takomillashtirgan.

Ishlab chiqarish munosabatlari deganda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish ayirboshlash, taqsimot va o'zlashtirish munosabatlari nazarda tutiladi.

Ishlab chiqarish munosabatlarining asosini mulkiy munosabatlar tashkil etadi.

Insoniyat tarixida mulkning 2 shakli qaror topgan:

1. Xususiy.

2. Umumiy.

Jamiyatlar taraqqiyoti jarayonida mulkning shakllari o'zgarib, xilma-xillashib borgan.

«O'zbekiston Respublikasining Mulkchilik to'g'risidagi Qonuni» ga muvofiq jamiyatimiz iqtisodiyoti ko'pukladli iqtisodiyot bo'lib hisoblanadi va uning negizida 5 xil mulk shakli tashkil etadi:

- Xususiy mulk

- Shirkat (jamo'a) mulki

- Davlat mulki

- Aralash mulk

- Boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar mulki.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlar jamiyatning iqtisodiy ishlab chiqarish usulini tashkil etadi. Bunda ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish usulining mazmunini, ishlab chiqarish munosabatlari esa uning iqtisodiy shaklini tashkil etadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari va ular orasidagi dialektik aloqadorliksiz jamiyat hayoti va taraqqiyoti amalga ochilmaydi. Bunday aloqadorlik jamiyatda amal qiladigan umumiy sotsiologik qonun – ishlab

chiqaruvchi kuchlarning ishlab chiqarish munosabatlari xarakter va darajasiga muvofiq kelish qonunida o'z ifodasini topadi.

Bunda ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyot darajasi ishlab chiqarish munosabatlariga va avvalo, mulkiy munosabatlarga ta'sir o'tkazadi. Ayni vaqtda ishlab chiqarish munosabatlari ham ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

6- Jamiyatning ijtimoiy hayoti.

Reja:

1. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Tarkibi va uning asosiy elementlari.
2. Jamiyatning etnik va demografik tarkibi.
3. Jamiyatning sinfiy va ijtimoiy tarkibi.
4. Jamiyatning ma'lumoti va kasbiy tarkibi

Tayanch tushunchalar:

Jamiyatning ijtimoiy hayoti, jamiyatning ijtimoiy tarkibi, etnik tarkib, demografik tarkib, sinfiy tarkib, ma'lumot darajasiga ko'ra jamiyatning tarkibi, urbanizatsiya, ruralizatsiya.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.

2. Islom Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, bunyodkorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston» 1997 y., 211-220 betlar.
3. Islom Karimov Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. – T., «O'zbekiston» 2005 y., 68-91 betlar.
4. S.E,Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya. Moskva, «VL LDOS» 1998 g., str. 134-138, 191-198, 215-220.
5. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq» nashr., 1999 y., 258-265 betlar.
6. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NMPU, 2005 y., 289-299, 300-336 betlar.
7. J.Tulenov Dialektika nazariyasi. T., «O'zbekiston» 2001 y., 252-261 betlar.
8. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «Sharq» 2004 y.
9. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, FAIR-PRESS, 1999 yil, 83-130 betlar.

Nazorat uchun savollar:

1. «Jamiyatning ijtimoiy hayoti» tushunchasining mazmuni.
2. Jamiyatning etnik tarkibiga nimalar kiradi?
3. Jamiyatning etnik tarkibi. Milliy va millatlararo munosabatlar.
4. Ijtimoiy sinf nima?
5. Ijtimoiy qatlam nima?
6. Ijtimoiy tabaqa nima?
7. Intelligentsiya qanday birlikka mansub?
8. Urbanizatsiya deganda nimani tushunsiz?
9. Ruralizatsiya qanday jarayon?

Jamiyat tushunchasi, avvalo, kishilar jamoasi, ularning birligini ifodalaydi. Lekin jamiyat shunchaki kishilar yig'indisi emas. Jamiyat bu. Avvalo, o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo'lgan kishilarning birligini ifodalaydi. Jamiyatning ijtimoiy hayoti undagi mavjud kishilar, turli ijtimoiy birliklar va guruhlar orasidagi turli tuman aloqa va munosabatlarni qamarab oladi.

Jamiyatning ijtimoiy hayotining asosini unda mavjud turli-tuman ijtimoiy birliklar tashkil etadi. Ijtimoiy birliklar deganda, xalq, sinf, millat, jamoa, mehnat jamoasi, oila kabilar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy birlik tarixan tarkib topgan, o'zaro barqaror ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan o'ziga xos umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilar birlashuvining o'ziga xos ko'rinishidir.

Ijtimoiy birliklar vaqtincha, qisqa muddatli va barqaror bo'lishi mumkin. aynan barqaror, ichki aloqa va munosabatlar bilan o'zaro bog'langan kishilarning uyushuvidan iborat ijtimoiy birliklar jamiyat ijtimoiy hayotining mazmunini ifodalaydi.

Ijtimoiy birliklarning o'ziga xos jihatlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

a) Muayyan ijtimoiy birliklarni tashkil etuvchi kishilarning uyushuvi ular orasidagi ob'ektiv tarzda yuz beradigan ijtimoiy-alloqa va munosabatlar asosida shakllanadi.

b) Ijtimoiy birliklar kishilar ijtimoiy hayotining mavjudlik shakli hisoblanadi.


v) Ijtimoiy birliklarning shakllanishiga xilma-xil iqtisodiy va ma'naviy omillar ta'sir ko'rsatadi.


Jamiyatning ijtimoiy hayoti uning ijtimoiy tarkibida o'z ifodasini topadi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklardan tashkil topadi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi deganda, ijtimoiy sinfiy tarkib, demografik tarkib kabilar nazarda tutiladi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini quyidagi ko'rgazmali chizma orqali ifodalash mumkin.

Sxema 1.






Jamiyatning ijtimoiy tarkibining asoslaridan birini uning etnik tarkibi tashkil etadi.

Jamiyatning etnik tarkibiga urug' qabila, elat, millat kiradi.

Sxema 2.



Urug' etnik tarkibning dastlabki ko'rinishi hisoblanadi. Uruchchilik insoniyat tarixining qadimiy davrlariga xos bo'lib, yashash uchun kurash, tashqi dushmandan saqlanish maqsadida qarindoshlik asosidagi birlashuv natijasida shakllangan. Urug'chilikning iqtisodiy asosini yerga jamoa egaligi tashkil etadi.

Qabila kelib chiqishi umumiy asosga ega bo'lgan, keyinchalik o'zaro bir biridan farqlanadigan urug'lardan iborat kishilarning tarixiy etnik birligi hisoblanadi.

Elat, hudud, til madaniy jihatdan umumiylikka ega bo'lgan, iqtisodiy aloqalari shakllana boshlagan tarixiy etnik birlik hisoblanadi.

Millat elatlar birlashuvi natijasida hosil bo'lgan tarixiy-etnik birlik hisoblanadi.

Millatning asosiy belgilari:

- a) Xududiy birlik
- b) Til birligi
- v) iqtisodiy hayot birligi
- g) Ma'naviy ruhiy birlik

millat – tarixan tarkib topgan, milliy birlikni anglash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi, iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan.

Kishilarning ijtimoiy barqaror birligi. Yer yuzida 3 mingga yaqin millat bo'lib, u insoniyatning o'rta hisobda 96 % birlashtiradi.

Millatning ma'naviy ruhiy birligi uning ongida, milliy ongda o'z ifodasini topadi.

Milliy ong millatning o'zi bilan birga shakllanib boradi va uning taraqqiy etishini ta'minlaydi. Milliy ong millatning tarixi, taqdiri va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar va maqsadlarni ifodalovchi, millat vakillari faoliyatini ma'lum maqsadlar sari yo'naltiruvchi g'oyalar, fikrlar tizimini ifodalaydi.

Millatning hayoti va taraqqiyotida milliy o'zlikni anglash murakkab jarayon. Milliy o'zlikni anglash umummilliy manfaatlarni ustivor qo'ya bilish bilan bevosita bog'liq.

Milliy o'zlikni anglash millat manfaatlarini himoya qilishning muhim omili hisoblanadi.

Milliy o'zlikni anglash o'z millati tarixini bilish (tarixiy xotira), milliy an'ana, urf-odatlariga, marosimlarga munosabat, o'z milliy tiliga munosabat, milliy g'urur kabilarda namoyon bo'ladi.


Jamiyat ijtimoiy tarkibining muim tomoni demografik tarkib tashkil etadi.

Biz «Jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy omillari» mavzusida jamiyatga ta'sir ko'rsatadigan muhim tabiiy omil aholi zichligi bilan tanishgan edik.

Aholi zichligi jamiyatning demografik tarkibida o'z ifodasini topadi.

Jamiyatning demografik tarkibi aholi zichligi bilan bir qatorda, uning joylanishi, yosh, jins xususiyatlari, migratsion jarayonlar, aholining sog'lomlik darajasini hisobga olishni taqazo etadi.

Sxema 3.



Jamiyatning demografik tarkibini hisobga olish jamiyat iqtisodiy hayotini tashkil etishda muhim o'rin tutadi. Jamiyatda kechadigan demografik va iqtisodiy jarayonlarni aslo bir-biridan ajratib bo'lmaydi, ular o'zaro bog'liq va bir-birini taqazo qiladi. Buni «iqtisodiyot - aholi zichligi» va «aholi – iqtisodiyot» tizimlari orqali ifodalash mumkin. Iqtisodiyotning o'sish sur'atlari aholining umumiy soni va zichligi bilan bog'liq. Ayni vaqtda jamiyat hayotining barcha sohalari (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy) dagi ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarga aholining umumiy soni, zichligi bilan bir qatorda jamiyatda kechadigan migratsiya jarayonlari, aholining jismoniy va ruhiy sog'lomligi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning sinfiy tarkibi uning muhim tomonini tashkil etadi. Jamiyatning sinfiy tarkibi deganda sinflar, tabaqalar, qatlamlar nazarda tutiladi.

Jamiyatning sinfiy tarkibining asosini sinf tashkil etadi. Sinflar tarixiy hodisa. Ular jamiyat taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi. Sinflarning mohiyati, kelib chiqish sabablari faylasuflarni qadimdan qiziqtirib kelgan. Sinflarning kelib chiqish sabablarini avvalo jamiyatning iqtisodiy hayotidan, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqaruvchi munosabatlaridan qidirmoq lozim. ishlab chiqarishning taraqqiyoti, ijtimoiy mehnat tavar ayirboshlashning paydo bo'lishi va rivojlanishi, xususiy mulkning paydo bo'lishi sinflarning kelib chiqish sabablaridir.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida uning sinfiy tarkibi o'zgarib borgan. Ijtimoiy tabaqalar deganda, urf-odatlar yoki qonun bilan mustahkamlangan avlodan

avlodga meros sifatida o'tadigan huquq va burchlarga ega bo'lgan sinflar tarkibidagi ijtimoiy birliklar nazarda tutiladi. Ayrim Sharq mamlakatlarida xastaviy bo'linish mavjud.

Ijtimoiy qatlam deganda intelligentsiya-ziyolilar nazarda tutiladi. Jamiyatning professional (kasb-kor) va ma'lumotga ko'ra tarkibi jamiyat tarkibining muhim tomonini tashkil etadi. Professional va ma'lumotga ko'ra jamiyat tarkibining shakllanishi deqonchilikning, o'troq hayotning chorvachilikdan ajralib chiqishi, qishloq xo'jaligidan hunarmandchilik va savdoning ajralib chiqishi va aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi bilan bog'liq holda yuz bergan. Hozirgi zamon jamiyatining strukturasida stratalar muhim o'rin tutadi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibida istiqomat joyiga ko'ra aholining tarkibini inobatga olmoq lozim bo'ladi.

Istiqomat joyiga ko'ra aholining tarkibi deganda kishilarning hayotlari kechadigan istiqomat joylariga munosabatlari nazarda tutiladi.

Turli sinf, ijtimoiy guruh, qatlam vakillari istiqomat joydalariga ko'ra:

- a) shaharlilar
- b) qishloq aholisiga bo'linadilar.

Shahar aholisining qishloq aholisidan farqli xususiyatlari deganda:

- a) Kishilar bandligining aksariyat sanoat ishlab chiqarishi bilan bog'liqligi.
- b) O'ziga xos ma'naviy muhit, bilim olish, ma'lumotini oshirish, ma'naviy ehtiyojlarni qondirish.
- v) Tanlov imkoniyatlarining kengligi
- g) Ma'lumot darajasining nisbatan yuqoriligi.
- d) Shahar aholisining siyosiy faolligi
- ye) O'ziga xos oila va oilaviy munosabatlar.

Jamiyat hayotini tashkil etish va boshqarishda bu omilning o'rnini katta ekanligini unutmaslik lozim.

Jamiyat taraqqiyoti tarixi sivilizatsiya tarixi 2 yo'nalishda aks etadigan jarayonlar:

- a) urbanizatsiya; va

b) ruralizatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq holda kechadi.

Urbanizatsiya shaharlashish, ijtimoiy hayotda shahar o'rini tobora ortib boruvini ifodalaydigan ijtimoiy jarayon.

Ruralizatsiya qishloq hayotining ahamiyatini bo'rttirish asosida vujudga kelgan; qishloqlashuv, qishloq hayotiga qaytish ma'nolarini ifodalaydi.

Hozirgi davrda urbanizatsiya va ruralizatsiya jarayonlari tobora o'zaro bir-birini taqazo etmoqda.

Shunday qilib, jamiyatni ijtimoiy hayoti uning ijtimoiy tarkibida o'z ifodasini topadi.

7- Jamiyatning siyosiy hayoti.

Reja:

1. Jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy tizimi.
2. Davlat – jamiyat siyosiy tizimining asosi.
3. Jamiyat siyosiy tizimida siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining o'rni.
4. Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqorolik jamiyati

Tayanch tushunchalar:

Jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy tizim, siyosiy ong, siyosat, siyosat faoliyat, siyosiy institutlar, davlat, siyosiy partiya.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y
2. Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – T., «O'zbekiston», 2000 yil, 9-17-betlar
3. Islom Karimov Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishdir. – T., «O'zbekiston» 2005 y., 11-28 betlar.
4. Islom Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., «O'zbekiston»,1992 yil.
5. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim – T., 2001 yil, 9-12 betlar.
6. Falsafa. O'quv qullanma – T., «Sharq», 1999 yil, 258-262 betlar.
7. Falsafa. Darslik M.Axmedovaning umumiy tahriri ostida, - T., 2006 yil, 398-401 betlar.
8. S.E.Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya.-Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 191-214 -bet.

Nazorat uchun savollar:

1. «Jamiyatning siyosiy hayoti» tushunchasining ma'nosini sharhlang.
2. Siyosat nima ?
3. Jamiyatning siyosiy tizimi nima?
4. Davlat, uning kelib chiqishi va mohiyati.
5. Davlat haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlar.
6. Davlatlarning qanday shakli va ko'rinishlarini bilasiz?
7. Demokratiya tushunchasining mazmun-mohiyati.
8. Demokratik davlat qanday hususiyatlariga ega?

Jamiyatning siyosiy hayoti deganda sinflar, millatlar, siyosiy kuchlarning o'zaro munosabatlari, ularning davlat hokimiyatini qo'lga kiritish va mustahkamlash borasidagi ongli faoliyati nazarda tutiladi. Jamiyatning siyosiy hayot sohasi siyosiy tushunchasi yordamida ifodalanadi. Siyosat sinflarining sinflarga, millatlarning millatlarga, davlatlarning davlatlarga munosabatini ifodalaydi. Siyosat murakkab ijtimoiy munosabat ko'rinishi sifatida davlat hokimiyatining shakllanishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Siyosat davlat miqiyosida va davlatlararo munosabatlarda amalga oshirish, jamiyatni boshqarish bilan bog'liq faoliyat. Ko'p hollarda «davlat siyosati» degan tushuncha keng qo'llanadi. Har qanday davlatning siyosati ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

a) ichki siyosat

b) tashqi siyosat

jamiyatning miyosiy hayoti uning siyosiy tizimida o'z ifodasini topadi.

Siyosiy tizim deganda jamiyatda muayyan siyosiy funktsiyalarni bajaradigan ijtimoiy institutlar tizimi nazarda tutiladi.

Siyosiy tizim 2 ko'rinishda namoyon bo'ladi.


a) mamlakat siyosiy tizimi

b) xalqaro siyosiy tizim

Alohida olingan mamlakatning siyosiy tizimi deganda davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari nazarda tutiladi.

Jamiyat siyosiy tizimining muhim tomonini boshqaruv tashkil etadi.

Sxema 1.



Davlat

siyosiy

jamoat

partiyalar

tashkilotlar

Moddiy ishlab chiqarish qanchalik zarur bo'lmasin, har bir sog'lom kishi va jamiyatning hayoti ko'pdan-ko'p sohalar bilan bog'liq ravishda kechadi. Kishilar yashashning iqtisodiy sharoitlariga ega bo'lishlari uchun muayyan tarzda birikkanlar va bu hol ijtimoiy faoliyatning xilma-xil ko'rinishlarini keltirib chiqargan vash u asosda siyosiy tizim shakllangan.

Jamiyatning siyosiy tizimi jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan. Ma'lumki jamiyat avvalo kishilar faoliyatlari vash u asosda shakllanadigan ijtimoiy aloqa va munosabatlari mahsuli.

Jamiyatning siyosiy hayotining ildizlari kishilarning mehnat faoliyatlariga borib taqaladi.

Kishilar faoliyati umumiy tarzda olganda, ijtimoiy xarakterga ega. Ular o'zaro bir-birlari bilan birlashmasdan, aloqa bog'lamasdan turib faoliyatga kirisha olmaydilar. Kishilar ijtimoiy faoliyatlarining murakkablashib boruvi, ularni boshqarishni taqazo etadi. Aynan boshqaruv tufayli kishilar birlashadilar vash u asosda ularning ehtiyojlari qondiriladi. Boshqaruv kishilar faoliyatlari xarakteriga bog'liq. Eng qadimiy davrlardan boshlab kishilar o'z hayotlarini davom ettirmoqlari uchun birlashuvlari lozim bo'lgan. Bu birlashuv tabiiylik, qonqardoshlik asosida yuz bergan. Shundan urug'chilik, qabilachilik tizimi va munosabatlari shakllangan.

Jamiyatning boshqaruvning tarixda 2 shakli kelib chiqqan:

1) O'z-o'zidan boshqaruv yoki jamoaviy boshqaruv. O'z-o'zidan boshqaruvning xususiyati shundan iboratki, unda jamiyat a'zolarining barchasi ishtirok etadi vash u asosda o'z manfaatlarini ta'minlaydi.

2) Maxsus boshqaruv. Boshqaruvning bu turi unda majburiylik jihatlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Maxsus boshqaruv deganda muayyan tashkilot yordamida boshqaruv nazarda tutiladi.

Har qanday maxsus boshqaruvning asosiy bo'g'inini davlat hokimiyati tashkil etadi.

Davlat jamiyat siyosiy tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Davlat – jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida vujudga kelgan jamiyatning siyosiy tashkilotidir.

Davlat insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishining mahsuli va ko'rinishi, xalqlar va millatlar hayotini huquq va qonun asosida tashkil etishining siyosiy shaklidir.

Davlatning o'ziga xos belgilari:

1) Hokimiyatning mavjudligi. Bunda muayyan vazifalari bo'lgan tashkilot va muassasalar nazarda tutiladi.

2) Aholi (fuqarolar).

3) Hudud va chegaralar.

4) Suverenitet.

5) Huquq ijodkorligi.

Davlatning o'ziga xos vazifalari mavjud. Bular: xududiy yaxlitlik va chegaralar dazligini ta'minlash, mamlakat xavfsizligini, jamiyatda barqaror tinch. Farovon hayotni ta'minlash; jinoyatchilikka qarshi kurashish; fuqarolarning huquq va mulk dahlsizliklarini himoya qilish; tashqi aloqalar; islohatlarni amalga oshirish.

Davlat, uning kelib chiqishi masalasi qadimdan faylasuflarni qiziqtirib kelgan.

?adimgi yunon faylasufi Platon (e.a. 427-347y.) «ideal davlat» ta'limotini yaratgan. Ideal davlat deganda «g'oyalar dunyosini» polis ijtimoiy-siyosiy hayotiga qo'llagan davlatni nazarda tutgan. Uning fikricha, ideal davlatda kosmos, davlat va ayrim inson o'zaro bir-biriga mushtarak bo'ladi. Adolatli inson adolatli davlatga o'xshaydi. Ideal davlatdan adolatli boshqaruvga asoslangan davlatdir. Qonun va adolat unda mujassam bo'lmog'i lozim.

Aristotel fikricha davlatni jamiyatdan ajratishi mumkin emas. Aristotel davlatni eng oliy darajadagi insonlar uyushmasi, deb bilgan. Uning fikricha avval oila, unda er va ayol munosabatlari, so'ng xo'jayin qul munosabatlari kelib chiqqan. Oilalar birlashib jamoani tashkil qilgan, bir qancha jamoalardan davlat

tashkil topgan. Taraqqiy etgan jamiyat – bu davlat. Aristotel qonunsiz inson hayvondan, qonun esa davlat tufayli kelib chiqqan, deydi. Davlatning vazifasi madaniyatli, aristokratik aql-zakovatga ega odamlarni tarbiyalash. Yaxshi va yomon davlatlar o'zaro bir-biridan davlat tepasida turgan boshliqlar ahloqi bilan farqlanadi.

Mashhur Markaziy Osiyo mutafakkiri Abu Nasr Farobiy (873-950 yillar)ning adolatli, fazilatli jamiyat, davlat haqidagi fikrlari diqqatga sazovor. Mutafakkirning orzusidagi adolatli jamiyatda kishilarning samarali mehnatiga, ilm sohiblariga, ularning aql-zakovatiga, fazilatli ahloq-odobiga yuksak baho beriladi. Uning fikricha, davlatli jamiyatda teng huquqiylik va erkinlik saltanati hukmronlik qiladi, yakka hokimlikka barham beriladi. Davlat boshliqlarini fuqarolarning o'zlari saylaydilar. Saylangan boshliqlar xalq manfaatiga zid harakat qilsalar, ular o'z amal-mansablaridan chetlashtiriladilar. Orzudagi davlat arboblari o'z faoliyatlarida adolat, tenghuquqlik, fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab ish tutadilar.

Abu Rayhon yeruniy (973-1048 yil)ning fikricha, jamiyatni boshqarish amaldorlardan o'z huzur-halovatidan aniq muddat mobaynida mahrum bo'lish, zo'ravonlardan aziyat chekkanlarning huquqlarini tiklash, gunohkorlarni jazolashdan iborat bo'lmog'i lozim. Odil hukmdorlarning asosiy vazifasi yuqori va quyi tabaqa vakillari o'rtasida adolat o'rnatishdir.

Davlatlarning boshqaruv shakllari, tuzilishi va undagi mavjud siyosiy rejimga ko'ra turli ko'rinishlari mavjud.

Davlat boshqaruv shakllariga ko'ra monarxiya va respublika ko'rinishlariga ega.

Davlatning monarxiya shakli hokimiyatning bir kishi (monarx) tomonidan boshqarishiga asoslanadi.

Respublika hokimiyat saylash orqali shakllantiriladi.

Davlatlar tuzilishiga ko'ra unitar, federativ va konfederativ davlatlardan iborat.

Demokratik davlat deganda barcha fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklariga kafolat beradigan, hokimiyat tizimining bo'linishi asosiga qurilgan, barchaning qonun oldidagi tengligini ta'minlaydigan, jamiyatdagi barcha kuchlarni birlashtirib, mamlakat taraqqiyotiga safarbar qiladigan davlat nazarda tutiladi.

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot yo'li demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat.

Jamiyatimiz siyosiy hayotini takomillatirish, demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qaror toptirish masalalari Respublika Prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan.

8- Jamiyat ma'naviy hayoti (4-soat)

Reja:

1. Jamiyatning ma'naviy hayoti, asosiy tarkibiy elementi.
2. Ijtimoiy ong – jamiyat ma'naviy hayotining asosi.
3. Ijtimoiy ong shakllari.
4. Milliy g'oya va mafkur. Milliy mafkura va ijtimoiy taraqqiyot

Tayanch tushunchalar.

Jamiyatning ma'naviy hayoti, ma'naviyat, ma'naviy ehtiyoj, ma'naviy ishlab chiqarish, ma'naviy o'zlashtirish, ma'naviy munosabat, ijtimoiy ong.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., O'zbekiston, 1994.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., Sharq, 1998.
4. Tulenov J. Jamiyat falsafasi – oltinchi bo'lim. T., 2001. 31-40 betlar.
5. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. T., O'zbekiston, 2001. 252-261 betlar.

6. S.E. Krapivenskiy. Sotsialnoya filosofiya. M., VLADOS, 1998 215-258 S.
7. Falsafa qomusiy lug'at. T., Sharq. 2004.
8. Tulenov J. , Qodirov B., G'ofurov Z. Ma'naviy yuksalish sari. T, Mehnat, 2000.
9. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya. M., FAIR –PRESS, 186-202 S.

Nazorat uchun savollar:

1. “jamiyat ma'naviy hayoti” deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyat ma'naviy hayotining asosini nima tashkil etadi?
3. Ma'naviy ehtiyojga nimalar kiradi?
4. Ma'naviy ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlari haqida nimani bilasiz?
5. Ijtimoiy ongning mohiyati va tizimini tahlil qiling?

Jamiyatning ma'naviy hayoti-deganda kishilarning ma'naviy ishlab chiqarish faoliyatlari, uning natijalari hamda ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida shakllanadigan aloqa va munosabatlar nazarda tutiladi.

Ma'lumki ishlab chiqarishsiz jamiyatning o'zi bo'lishi mumkin emas, zotan ishlab chiqarish kishilarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Ishlab chiqarish faoliyati ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- 1) moddiy ishlab chiqarish
- 2) ma'naviy ishlab chiqarish

Ma'naviy ishlab chiqarish deganda ong, g'oyalar, qarashlarni ishlab chiqarish nazarda tutiladi.

Demak, jamiyatning ma'naviy hayoti deganda unda ishlab chiqarilgan xilma-xil qarashlar, g'oyalar nazarda tutiladi.

Jamiyatning ma'naviy hayoti o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega. Uning asosiy elementlari deganda:

- a) ma'naviy faoliyat
- b) ma'naviy ehtiyoj

v) ma'naviy o'zlashtirish

g) ma'naviy munosabatlar nazarda tutiladi.

Ma'naviy faoliyat yoki ma'naviy ishlab chiqarish inson faoliyatining muhim ko'rinishi bo'lib, kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan narsalarni yaratishini nazarda tutadi. Ma'naviy ishlab chiqarish insonning olamga foal munosabatini ifodalaydi. Ayni vaqtda ma'naviy ishlab chiqarish o'zining bir qator jihatlari bilan moddiy ishlab chiqarishdan farqlanadi.

a) Agar moddiy ishlab chiqarish natijalari narsalar dunyosini ishlab chiqarishga, moddiy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan bo'lsa, ma'naviy faoliyat natijalari g'oyalari bilimlar, ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga olib keladi.

b) Moddiy ishlab chiqarish kishilar hayotiga bevosita zarur narsalarni yaratishga yo'naltirilgani holda ma'naviy ishlab chiqarish jamiyat hayoti uchun oqibat natijada muhim ahamiyat kasb etadi.

v) Moddiy ishlab chiqarish natijalari bo'lmish mahsulotlar predmetli xarakterga ega bo'lsa, ma'naviy ishlab chiqarish natijalari bilim, axborotlar shaklida namoyon bo'ladi.

g) Ma'naviy ishlab chiqarish jamiyat hayotining boshqa barcha sohalari (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) ning yanada takomillashib borishiga xizmat qiladi.

d) Ma'naviy ishlab chiqarish turli shakl va ko'rinishlardan iborat bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ye) Ma'naviy ishlab chiqarish ijtimoiy fikrning shakllanishiga xizmat qiladi. Bunda g'oya, g'oyaviylik muhim o'rin tutadi.

j) Ma'naviy ishlab chiqarish olamni nazariy, ratsional bilish asosida quriladi.

z) Ma'naviy ishlab chiqarishda ijodning ustivorligi kuzatiladi.

y) Ma'naviy ishlab chiqarish deganda ishlab chiqilgan g'oyalarni jamiyat hayotiga yoyish ham nazarda tutiladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni insonni, uning ongini o'stiradi, boyitadi. Ayni vaqtda odamlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bilimlar, g'oyalari, nazariyalar, badiiy obrazlar va boshqa ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ma'naviy va moddiy ishlab chiqarishni aslo bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Bu yaxlit ishlab chiqarish jarayonining o'zaro uzviy bog'liq 2 tomonini tashkil etadi.

Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonining o'zi muttasil rivojlanib boradi. Dastlab ma'naviy ishlab chiqarish xalq ijodiyotida o'z ifodasini topgan.

Aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi ma'naviy ishlab chiqarish sohalarining shakllanishi va taraqqiyotiga xizmat qilgan. Shu asosda ma'naviy ishlab chiqarish ixtisoslashib borgan.

Ma'naviy ishlab chiqarish jarayoni, uning natijasida yaratilgan jamiki narsalar: adabiyot, axloq, til, san'at, fan jamiyat ma'naviy hayotining shakllanishi va rivojlanishiga sababchi bo'ladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish keng ma'nodagi tushuncha bo'lib, uning jarayonida:

a) obrazlar, g'oyalar, nazariyalar yaratiladi.

b) insonning o'zi va jamiyat takomillashib boradi.

Jamiyatning ma'naviy hayoti uzviy bir-biriga bog'liq jarayonlardan tizimidan iborat. Bu tizimni ma'naviy ehtiyoj-ma'naviy faoliyat-ma'naviy o'zlashtirish tarzida ifodalash lozim.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatning ma'naviy hayoti ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan, deb hisoblash lozim. Ma'naviy ehtiyoj deganda, ma'naviy qadriyatlarni yaratish va o'zlashtirish ehtiyoji nazarda tutiladi. Inson o'z tabiatiga ko'ra faqat «qorin g'ami», «tirikchilik tashvishi» bilangina yashay olmaydi. Unda moddiy ehtiyojdan kam ahamiyatga ega bo'lmagan ma'naviy ehtiyoj ham bor. Bu ehtiyoj «ruh ehtiyoji» deb ham yuritiladi. Inson aqliy yetuklikka, axloqiy barkamollikka intiladi. U o'z tabiatiga ko'ra olamni tobora ko'proq bila boradi, doimo go'zallikka intiladi. Bularning hammasi ma'naviy ehtiyojga taalluqli.

Insoniyat jamiyati taraqqiyotining quyi bosqichlarida ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan ajralmagan va kishilarning kundalik hayoti va faoliyati bilan taqozolangan. Moddiy ishlab chiqarish taraqqiyoti ma'naviy ehtiyojlar uchun dastlabki imkoniyatlarni yaratgan davridan boshlab ma'naviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali ma'naviy ehtiyojlarni qondirish imkoni yaratilgan.

Tarixan ma'naviy ehtiyojlar moddiy ehtiyojlardan keyin shakllangan, lekin bundan ma'naviy ehtiyoj moddiy ehtiyojlardan kelib chiqadi, degan xulosaga kelish xatodir.

Ma'naviy o'zlashtirish, deganda ma'naviy qadriyatlar: bilim, til, adabiyot, san'at, ahloq normalari kabilarni iste'mol qilish nazarda tutiladi.

Ma'naviy ishlab chiqarish natijalari (bilimlar, badiiy va xokazo ijod namunalarining jamiyat hayotiga kirib borishi-ma'naviy o'zlashtirishdir.

Jamiyat o'zaro bir-biri bilan aloqa – munosabatga kirishgan kishilar jamoasidir. Jamiyat a'zolari orasida ob'ektiv tarzda yuzaga keladigan aloqa va munosabatlar ijtimoiy munosabatlar, deb yuritiladi. Kishilar orasidagi aloqa va munosabatlar qanchalik xima-xil bo'lmasin, ular 2 asosiy ko'rinishga ega:

a) Moddiy, iqtisodiy munosabatlar

b) Ma'naviy munosabatlar

Ma'naviy munosabatlarga axloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy kabilarni kiritish mumkin.

Moddiy, iqtisodiy munosabatlar inson ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan holda shakllanadi. Ma'naviy munosabatlar ong orqali amalga oshadi va bunda jamiyatdagi g'oyalar, ma'naviy qadriyatlar ma'naviy munosabatlarga hal qiluvchi darajada ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi – shaxslararo munosabatlardir.

Jamiyat ma'naviy hayoti ma'naviyat tushunchasida o'z ifodasini topadi.

Ma'naviyat – kishilarning o'zaro munosabatlari va hayotiy tajribalari davomida shakllanadigan va rivojlanadigan qadriyatlar tizimi.

Ma'naviyat insonning inson bo'lib shakllanishiga turtki beradigan buyuk omil.

Ma'naviyat insonning

- botiniy dunyosi, ruhiyati, o'z-o'zini anglashi

- ongliligi, qobiliyati, intilishlari

- did-farosati, aql-zakovati, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni razolatdan, go'zallikni xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyati.

Ayni vaqtda ma'naviyat jamiyatga nasbatan qo'llanadi. Til, adabiyot, san'at, diniy e'tiqod, fan, axborot tizimlari, ommaviy axborot vositalari. Ta'lim-tarbiya jamiyat ma'naviyatini ifodalaydigan ijtimoiy hodisalardir.

Jamiyat ma'naviy hayotining asosini jamiyat ongi-ijtimoiy ong tashkil etadi. Ijtimoiy ong jamiyat hayoti-ijtimoiy borliqning inson miyasidagi in'ikosidir.

Ijtimoiy ong jamiyatda yaratilgan xilma-xil ijtimoiy qarashlar (ahloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, ilmiy va x.k) tasavvurlar, g'oyalar, nazariyalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ijtimoiy ong jamiyat ma'naviy hayotini o'zida mujassamlashtirgan murakkab tizimiga ega bo'lgan ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy ongning strukturasi a) ijtimoiy ong sohalari; b) ijtimoiy ong darajalari; v) ijtimoiy ong shakllari kiradi. Ijtimoiy ong sohalariga kundalik va nazariy ong: darajalariga – ijtimoiy ruhiyat va ijtimoiy mafkura, shakllariga-axloqiy, estetik, diniy, siyosiy, huquqiy ong kiradi.

Ijtimoiy ong jamiyatda kechadigan o'zgarishlar, jarayonlarni anglash orqali shakllanadi.

Jamiyat ma'naviy hayotida amal qiladigan umumiy qonun-ijtimoiy ongning nisbiy mustaqilligi, deb yuritiladi.

Bu qonunning amal qilish ijtimoiy ong va borliqning birligi va uzviy aloqadorligida, ijtimoiy ong taraqqiyotidagi vorislilikda, ijtimoiy ongning jamiyat hayotiga faol ta'sirida namoyon bo'ladi.

Respublika Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini qurish kontsepsiyasining muhim tomonini jamiyat ma'naviyatiga dahldor muammolar tashkil etadi. U «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy negizlari ustida to'xtalib, «O'zbekistonni yangilash va rivojlantirish to'rtta negizga asoslanadi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlik; - ekanligini asoslab berdi.1

9- Fan

Reja:

1. Fan ijtimoiy ong shakli sifatida.
2. Fanning asosiy turkumlari.
3. Hozirgi zamon fani va uning o'ziga xos xususiyatlari.

4. O'zbekistonda mustaqillik sharoitida ilm – fan rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

Tayanch tushunchalar:

Fan, texnika, ishlab chiqarish, inofrmatsion jamiyat, fundamental fan, amaliy fan.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston» 1997 yil, 258-266 betlar.
3. I.Karimov Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., «O'zbekiston» 1997 yil.
4. I.Raximov, A.O'tamurodov. Fanning falsafiy masalalari. – T., 2005 yil, 11-16 betlar.
5. S.E.Krapivenskiy. Sotsianaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS» 1999 g., str. 258-281.
6. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» 2005 yil, 328-337 betlar.
7. Falsafa – T., 2006 y., 323-325 betlar.
8. Xorazm Ma'mun akademiyasi va uning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni. – T., 2007 yil.

Nazorat uchun savollar:

1. Fan tushunchasining mohiyati.
2. Fanning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Fanning shakllanishi va taraqqiyoti qanday davrlarni o'z ichiga oladi.
4. Nima sababdan fan ijtimoiy ongning maxsus shakli hisoblanadi?
5. Fan – ijtimoiy institutlar tizimi, deganda nima nazarda tutiladi?
6. Fan va jamiyat orasidagi dialektik aloqadorlikni qanday tushunasiz?
7. Fanda differentsiatsiya jarayonlari qanday kechadi?
8. Ilmiy bilimlar integratsiyasi nimalarda namoyon bo'ladi?

Fan tushunchasini turli-tuman izohlash mumkin. Avvalo fan ijtimoiy ongning maxsus shakli bo'lib, unda tabiat, jamiyat, inson ruhiy olami tushunchalar, qonunlar, nazariyalar shaklida ifodalanadi.

Fan, dunyo, shu jumladan odamning o'zi to'g'risidagi ob'ektiv bilimlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yuksak darajada tashkil etilgan va ixtisoslashtirilgan faoliyatdir.

Fan dunyo haqidagi ob'ektiv bilimlar tizimidan iborat. Fanning asl mohiyatini yoritmoq uchun uning quyidagi jihatlarini hisobga olish lozim bo'ladi: Birinchidan, fan ijtimoiy ongning maxsus shakli hisoblanadi. Fanning mazmunida insonni o'rab olgan olamning mohiyati, o'ziga xos jihatlari, xossa-xususiyatlari aks etadi. Inson eng qadimiy davrlardan boshlab u yashayotgan, uni o'rab olgan dunyoni tushunishga harakat qilgan vash u asosda eng qadimiy davrlardan boshlab inson ongida ob'ektiv olam haqidagi bilimlar shakllangan. Fan o'zlashtirishning oliy usuli hisoblanadi. Bilimlar ob'ektiv mazmunga ega, chunki ular ob'ektiv olamning inson ongidagi sub'ektiv in'ikosidan hosil bo'ladi. Fanning ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatidagi xususiyatlari avvalo olamni ilmiy bilish xususiyatlarida o'z ifodasini topadi. Inson olamga faol munosabatda bo'lmasdan turib, olamni bilmasdan turib hayot tarzini davom ettira olmaydi. Insonning olam haqidagi bilimlari:

a) kundalik amaliy faoliyat

b) ilmiy bilish asosida hosil bo'ladi.

Ilmiy nazariy bilish natijalari fanning mazmunida aks etadi. Ilmiy bilish olamni bilishning boshqa ko'rinishlaridan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi:

- Avvalo fan olamni, undagi narsa va hodisalarni chuqur atroflicha bilishning taqazo etadi.

- Ilmiy bilishdan ko'zda tutilgan maqsad chin bilimlar, ilmiy xaqiqatlarni hosil qilishdan iborat. Chin bilim deganda uning olamni to'g'ri aks ettirganligi, olamga mos kelishi nazarda tutiladi.

- Ilmiy bilimlarni hosil qilish uchun maxsus ilmiy metodlardan foydalanish lozim bo'ladi. Shuning uchun ham fanning mazmunida ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalar aks etishi bilan bir qatorda, ilmiy bilimlarni hosil qilish usullari ham ishlab chiqilgan bo'ladi.

- Ilmiy izlanish natijalari ilmiy bilim shakllarida – muammo, qonun, ilmiy faraz, nazariya, kashfiyot, ta'limotlarda aks etadi.

- Ilmiy bilimlar o'ziga xosligi ularning tizimliliigi, yaxlitlikni tashkil etishida.

- Fanda ilmiy bilimlarning chinligini asoslashning maxsus usullari ishlab chiqilgan bo'ladi.

- Ilmiy bilimlar – qonun, nazariya, ta'limotlarni o'ziga xos ilmiy tilda bayon etiladi. Ilmiy til deganda tabiiy va sun'iy til vositalaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Fan ma'naviy ishlab chiqarishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Ilmiy izlanishdan ko'zda tutilgan maqsad, uning natijasi – ilmiy bilim hisoblanadi. Ilmiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiy etishi murakkab ijodiy jarayon bo'lib, uning kelib chiqishi ilmiy muammoga borib taqaladi. Har qanday ilmiy izlanish ilmiy muammoni quyishdan boshlanadi. Ilmiy muammo u yoki bu nazariy masalani xal qilishda u haqdagi mavjud bilimning yetarli emas ekanligini anglashdan kelib chiqadi.

Tadqiqot jarayonida o'rganilayotgan ob'ekt haqida dastlabki ilmiy dalillar to'planadi. Ilmiy dalillar u yoki bu darajada tahlil qilinishi, ishlab chiqilishi oqibatida ilmiy taxlilning ilgari surilishiga olib keladi. tasdiqlangan, isbotlangan ilmiy taxmin – ilmiy nazariyada o'z ifodasini topadi. Shunday qilib fan ma'naviy ishlab chiqarishning maxsus ko'rinishi sifatida insonning olam haqidagi ilmiy bilimlarida – muammo, ilmiy taxmin, nazariya, ta'limotlarda o'z ifodasini topadi.

Fanning muxim tomonlaridan biri uning murakkab tarkibi ijtimoiy institut ekanligidadir.

Fan murakkab tuzilishga ega ijtimoiy institut deganda quyidagilar nazarda tutiladi.

1. Ilmiy izlanish olib boradigan, yangi ilmiy bilimlarni qo'lga kiritish lozim bo'lgan olimlar;

2. Ilmiy faoliyatda kooperatsiyaning amalga oshishi;

3. Ilmiy bilimlarni shakllanishiga turtki beradigan ilmiy axborotning mavjudligi;

4. Ilmiy faoliyatni mujassamlashtiradigan, boshqaradigan maxsus ilmiy muassasa va tashkilotlar;

5. Laboratoriya tadqiqotlari uchun maxsus jihozlar, asbob-uskunalar, priborlar.

Fan ilmiy bilimlarni hosil qilishning eng umumiy ijtimoiy shakli bo'lib hisoblanadi. Ilmiy bilimlar individual va jamoa faoliyati natijasida shakllanadi va rivojlanadi.

Ilmiy bilimlarni hosil qilish murakkab jarayon bo'lib, uning mohiyati ilmiy bilimlar dinamikasida ifodalanadi. Bu bilmasdan bilishga, nomukammal bilimdan mukamallik sari borishdan iborat bo'lgan murakkab jarayon bo'lib, o'zaro bir-biri bilan almashib turadigan empirik va nazariy darajada o'z ifodasini topadi.

Fanning muxim tomonlaridan biri bu uning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylana boshlanganligi. Fan va ishlab chiqarish orasidagi o'zaro aloqadorlik turlicha tarixiy davlarda turlicha bo'lgan. Masalan; olam haqidagi dastlabki ilmiy bilimlar kishilarning bevosita amaliy faoliyatlaridan, kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqqan. Dastlabki davrlarda fan ishlab chiqarishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmagan, bu ta'sir juda nari borganda mehnat qurollarini asta-sekin o'zgarib borishida namoyon bo'lgan. Uning ustiga nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari ham cheklangan edi.

XIX asrdan boshlab fan va ishlab chiqarish o'zaro yaqinlasha boshladi. Bu yangicha davrning boshlanishi o'z mashinasi va elektrning kashf qilinishi bilan bog'liq edi. Endi fan ishlab chiqarishga nisbatan tezroq rivojlana boshladi. Bu hol fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanishiga imkoniyat yaratdi. Fanlar, ayniqsa tabiatshunoslik fanlari sohasidagi qo'lga kiritilgan yutuqlar ishlab chiqarishning yangi hozirgi zamon sohalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Energetika, elektronika, Kime, radiotexnika, raketotexnika kabi sohalar aynan fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylanayotganligidan dalolat beradi. Fan taraqqiyoti oqibatida tabiatda bo'lmagan yangi narsalar, mehnat predmetlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Sintetik tola, sun'iy olmos, o'tga o'ta chidamli metall quymalari va hokazolar bunga misol bo'la oladi.

Fan yaxlitlikni tashkil etuvchi ilmiy bilimlar tizimi sifatida o'ziga xos tuzilishga ega. Bu fanlar klassifikatsiyasida o'z ifodasini topadi. Fanlarni turli asoslarga ko'ra turkumlash mumkin. Predmetiga (nimaga o'rganishiga) qarab fanlarni

a) tabiat

b) jamiyat

v) tafakkur haqidagi fan turkumlariga bo'lish mumkin. texnika fanlarini olimlar alohida turkumga ajratadilar.

Bilim bilan amaliyot orasidagi aloqadorlik xususiyatlariga ko'ra fanlarni 2 guruhga bo'lish mumkin: a) fundamental; b) amaliy fanlar.

Fanning shakllanishi va taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq.

Fanning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) Fan shakllanishiga qadar dastlabki bilimlarning shakllanishi;
- 2) Qadimgi dunyoda fan;
- 3) G'arb Uyg'onish davrida fan taraqqiyoti (XV-XVII asrlar);
- 4) XVIII-XIX asrlar Klassik fanning shakllanishi;
- 5) XX asrning I yarmi noklassik fan;
- 6) XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgi zamon Fani shakllana boshladi.

Eng qadimiy davrlardan boshlab odam o'z atrofidagi olamni anglashga intiladi. Dastlabki, bilimlar ildizi inson amaliyotiga borib taqaladi. Dastlabki dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik amaliy xarakterdagi bilimlar asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va O'rta Osiyodagi ilk sivilizatsiya astronomiya, matematika, biologiya, tibbiyot sohasida ko'pgina bilimlar, aniqrog'i tabiiy-ilmiy tasavvurlarning shakllanishiga olib keldi. Biroq bu bilimlar hali fan darajasiga, nazariya darajasiga ko'tarilmagan bilimlar edi. Ular bevosita ko'zga tashlanib turadigan voqea-hodisalardan chiqarilgan xulosalar shaklida mavjud edi. Yana ham aniqrog' aytganda bu bilimlar dastlabki to'plangan tajribalar ifodasi edi. Oqibat natijada yig'ilgan bilimlar yunon fani va falsafasining vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Dastlabki ilmiy bilimlar tizimi Yevropada bundan 2500 yil oldin shakllandi. Bu qadimiy Yunonistonda shakllangan ilmiy bilimlar tizimi edi. Qadimgi Yunon olimlari Fales, Anaksimandr, Anaksiman, Pifagor va boshqalar tabiat haqidagi dastlabki ilmiy bilimlar tizimini yaratdilar. Natijada matematika, fizika, biologiya, psixologiya, astronomiya, meditsina, va boshqa fanlar uchun nazariy zamin

yaratildi. Bu ilmiy bilimlar Platon akademiyasida, Aristotel litseylarida, Pifagor maktablarida o'qitiladi.

Ilmiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyotiga Markaziy Osiyodan yetishi chiqqan buyuk allomalar barakali hissa qo'shdilar. Vatandoshimiz Muhammad Ibn Muso Xorazmiy algebra faniga asos soldi. Ahmad Farg'oniy astronomiya fani taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U osmon jismlari harakati to'g'risidagi ta'limotni yaratdi; texnik qurilmalar ishlab chiqdi. Farg'oniy geografiya va geodeziya fanlarini rivojlantiradi.

Markaziy Osiyodagi ilmiy bilimlar tarakqiyoti 1004 yilda tashkil topgan dastlabki ilmiy dargoh - Ma'mun akademiyasi faoliyati bilan bevosita bog'liq. Bu akademiya dunyoda «Majlisi Ulamo» nemis bilan mashhur bo'lgan va unda Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Saxl Iso al-Masixiy kabi ko'plab olimlar ilmiy faoliyat bilan shug'ullanganlar. Ular matematika, astronomiya, ruxiyat, mantiq, musiqa, Kime, geografiya, mexanika singari turli fan sohalari bilan shug'ullanar va fanlarning kelgusi tarakqiyotiga zamin hozirlaganlar. Vatandoshlarimiz Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ulug'bek asos solgan turli ilm sohalari XVI asrga kelib, G'arb Uyg'onish davri fanining rivojlanishi uchu nasos bo'lib xizmat qildi. Far tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar fikricha, xaqiqiy fanning shakllanish va taraqqiyotga Yevropa Uyg'onish davri: XV-XVI asrlarga to'g'ri keladi.

XV-XVI asrlardan boshlab fanlar, ayniqsa tabiatshunoslik fanlari jadal rivojlandi.

Nikolay Kopernik tomonidan kashf qilingan geliotsentrik nazariya, Iogann Kepler, Galileo Galiley, Isaak Nyuton, R.Guk, L.Eyler kabi olimlarning fan sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari, klassik mexanika, eksperimental tabiatshunoslik kabi fanlarning shakllanishi xaqiqiy ilmiy inqilob edi va bu inqilob fan taraqqiyotida yangi davr-klassik fan davri boshlanganidan dalolat berar edi.

Bu davr ilmiy faoliyatni uyushtirishga yo'naltirilgan maxsus ilmiy muassasa va tashkilotlarning paydo bo'lishi bilan xarakterlidir. London qirollik Akademiyasi, Parij akademiyasining tashkil topishi bunga dalil bo'la oladi.

Ta'kidlash joizki, dastlabki akademiya qadimiy Yunonistonda eramizdan avvalgi V asrda tashkil topgan va Platon akademiyasi, deb yuritilar edi. 1004 yilda Xorazmda Ma'mun akademiyasi tashkil topdi. Lekin bu ilmiy muassasalar keyinchalik nomukammaligi tufayli o'z faoliyatini to'xtatganligi tarixdan ma'lum.

Ilmiy bilimlarning uzluksiz rivojlanib borishi yangi o'ziga xos ilmiy muassasa va tashkilotlarning shakllanishiga sababchi bo'ldi. Fanning maxsus uyushgan muassasa va tashkilotlari deganda akademiyalar, ilmiy tekshirish institutlari, ilmiy markazlar, ilmiy jamiyatlar, laboratoriyalar nazarda tutiladi.

Dastlab ilmiy jamiyatlar, akademiyalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ular tomonidan ilmiy jurnallar ta'xis etildi. Keyinchalik, ayniqsa XX asrga kelib ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy laboratoriyalar tashkil topa boshladi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida fanlar taraqqiyoti yangi – noklassik fan bosqichida o'z ifodasini topdi. Bu bosqich A.Eynshteynning nisbiylik nazariyasi, kvant nazariyasi bilan bevosita bog'liq edi.

Hozirgi davr fan taraqqiyotining yangi bosqichi ekanligi bilan xarakterlanadi.

Fanning jamiyat hayotida tutgan o'rini hozirgi zamon jamiyatining yangi informatsion jamiyat bosqichiga o'tganligidan ham bilsa bo'ladi.

Bu davr fanning tamomila yangi sohalari (kvant fizikasi, kibernetika, informatika, molekulyar genetika, gen injeneriyasi, biotexnologiya va h.k.)ning paydo bo'lganligi, fanning jamiyat hayotining barcha sohalaridagi rolining beqiyos ortganligidan dalolat beradi.

Fan uzluksiz yangilanib, rivojlanib boradigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Fan taraqqiyotida o'ziga xos qonunlar amal qiladi.

Avvalo ilmiy bilimlar taraqqiyotida vorislilik, ularning ham mazmunan, xam shaklan o'zgarib, mukamallashib borishi kuzatiladi. Gap shundaki, yangi bilimlarning paydo bo'lishi bilan eski bilim yo'qolmaydi, balki fan zaxiralaridan joy oladi. Bu zahiralarga yangi bilimlarning qo'shilib borishi fanlar mazmunidan o'zgarish va rivojlanishga asos bo'ldi. Har bir davrda hosil bo'lgan bilim kelgusi yangi bilimlar uchu nasos vazifasini o'taydi. Fan taraqqiyotining har bir tarixiy bosqichida hosil qilinadigan yangi bilimlar shu davrga xos ilmiy g'oyalarga asoslanadi. Masalan, klassik fan mexanika qonunlariga g'oyalariga tayangan. Noklassik fan taraqqiyoti nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasiga asoslanadi.

Fan taraqqiyoti har bir bosqichda muayyan ilmiy bilish usullariga tayanadi. Masalan, antik davrda ilmiy bilish hosil qilishning kuzatuv metodidan foydalanilgan.

Yangi davrda fan yangiliklari eksperiment metodga asoslangan holda qo'lga kiritildi. Hozirgi davr fanida ilmiy bilimlarni hosil qilishning boshqa usullar bilan

bir qatorda yangi usullari, metodlar qo'llanmoqda. Ana shunday usullarga sinergetika usuli misol bo'la oladi.

Fan taraqqiyotining eng muximi qonuniyatlaridan biri ilmiy bilimlardagi differentsiyalashuv integratsiyalashuvdir. Inson olamning mohiyatiga qanchalik chuqurroq kirib borgani sari uning bilimlari tobora ortib boradi vash u asosda fanning yangi-yangi sohalarga paydo bo'ladi. Masalan, dastlab fizika fani mexanika, astronomiya, fizika fanlari sifatida mavjud bo'lgan. Fizika sohasidagi bilimlarning rivojlanib borishi fizika doirasida yangi fan sohalari – qattiq jismlar fizikasi, molekulyar fizika, plazma fizikasi kabilarning shakllanishiga turtki yerd. Hozirda har bir fan ko'pdan ko'p sohalardan iborat. Masalan, tibbiyot fani, doirasi 300dan ortiq mustaqil ilmiy sohalar mavjud. Ilmiy bilimlar taraqqiyoti fanlar sohalarning o'zaro bir-biriga yaqinlashuvi zaruratining keltirib chiqaradi va bu yaqinlashuv integratsiya jarayoni deb yuritiladi. Geoximiya, gidrodinamika, biofizika, gen injeneriyasi, biotexnologiya, astrofizika fandagi integratsiya jarayonlari mahsuli sifatida shakllangan yangi sohalardir.

Fan taraqqiyoti jarayonida uning jamiyatdagi o'rni ham o'zgarib boradi. XIX asr oxiriga qadar fan ishlab chiqarishga nisbatan sekinroq taraqqiy etgani uchun ham ishlab chiqarishga ta'siri yetarli darajada sezilmasdi. XX asrda fan tarakqiyoti texnika taraqqiyotidan o'zib keta boshladi. Bu hol oqibatda, fan-texnika ishlab chiqarishdan iborat yagona tizimning shakllanishiga olib keldi; fan bevosita ishlab chiqaruvchi kuchlarga aylana boshladi. Bu jarayon hozirgi davrda yanada kuchaydi. Fanning jamiyat hayotining barcha sohalari bilan aloqasi jamiyatga ta'siri yanada kuchaydi. Hozirda jamiyatning ilmiy bilimlar ta'siridan xoli bo'lgan Biron-bir tomonini topish mushkul. Fan tobora jamiyat hayoti va taraqqiyotining yetakchi omiliga aylanib bormoqda.

10- Madaniyat va qadriyatlar

Reja:

1. Madaniyat va qadriyat tushunchasi, mazmun – mohiyati.
2. moddiy – ma'naviy, madaniyat va qadriyatlar.
3. Madaniyatning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.
4. Qadriyatlar tizimi va ko'rinishlari.

Tayanch tushunchalar:

Madaniyat, qadriyatlar, vorislik, madaniyatshunoslik, qadriyatshunoslik.

Adabiyotlar:

1. Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Kontstitutsiyasi. – T., «O'zbekiston», 2003 yil.
3. I.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. – T., «O'zbekiston» 1995 yil.
4. I.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. – T., «O'zbekiston» 1994 yil.
5. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatalari. – T., «O'zbekiston» 1997 yil.
6. J.Tulenov. Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil.
7. J.Tulenov. Qadriyatlar falsafasi. – T., «O'zbekiston» 1998 yil.
8. O.G.Danilyan, V.M.Garanenko. Filosofiya – Moskva, izd. Eksmo, 2005 g., str. 398-422.

Nazorat uchun savollar:

1. Madaniyat tushunchasiga ta'rif bering.
2. Ma'naviy madaniyat nima?
3. Madaniyatdagi milliylik va umuminsoniylik jihatlarini qanday tushunasiz?
4. Madaniyatning jamiyatdagi o'rni.
5. Qadriyatlar deganda nimalar nazarda tutiladi?
6. Qadriyat tushunchasining mazmuni.
7. Qadriyatlar klassifikatsiyasi xaqida nimalarni bilasiz?
8. Qadriyatlarinng inson hayotidagi o'rni.

Madaniyat murakkab, serqirra ijtimoiy hodisa. U bir qator fanlarning o'rganish ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Masalan, arxeologiya o'tmishda yashagan

kishilar faoliyati natijasida vujudga kelgan predmetlar, yodgorliklar, asoriatlarni o'rganadi. Etnografiya ma'lum bir xalqning madaniyatini o'rganadi.

Ijtimoiy falsafa madaniyatni yaxlitlikdan iborat ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi. Madaniyat atamasi ko'p ma'nolarga ega – ekin ekish, qayta ishlov berish, asrash, avaylash, ma'lumot, ta'lim-tarbiya taraqqiyot. Madaniyat insonni boshqa barcha tabiiy-biologik dunyodan ajratib turadi.

Madaniyat tushunchasini ayrim olimlar arabcha «madina» va «iyat» so'zlarining qo'shilishidan kelib chiqqan va u «shaharga oid» ma'nosini anglatadi, deb hisoblaydilar. Yevropalik olimlar madaniyat tushunchasi «kultura» so'zidan kelib chiqqan, u parvarishlash ma'nosini bildiradi, degan fikrni ilgari suradilar. Madaniyat o'zbek tilida tarbiya ko'rganlik, bilimlilik, sifatlilik ma'nolarida ishlatilgan.

Inson va jamiyat ijodiy faoliyatining barcha ko'rinishlari uning oqibatida yaratilgan ja'mi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Madaniyat tushunchasiga xilma-xil ta'riflar berilgan. XX asrning 50-yillarida amerikalik olimlar Anri Kreber va Antone Klakxom madaniyat tushunchasiga berilgan ta'riflar 164 ta ekanligi haqida fikr bildirganlar. Hozirgi zamon falsafasida madaniyat tushunchasiga berilgan ta'rif 500 atrofida, deb hisoblaydilar O.G.Danilyan va V.M.Taranenko.

Madaniyat tushunchasida:

a) inson faoliyatining natijalari

b) inson faoliyatining o'zi, uning usullari va vositalari ifodalanadi. Insonning faoliyati moddiy va ma'naviy turlarga bo'linadi. Shunga ko'ra madaniyat 2 xil turda namoyon bo'ladi:

1. Moddiy madaniyat.

2. Manaviy madaniyat.

Moddiy madaniyat deganda insoniyat tomonidan yaratilgan ja'mi moddiy qadriyatlar nazarda tutiladi. Mehnat qurollari va vositalari, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish madaniyati, turmushning moddiy shart-sharoitlari, va h.k. moddiy madaniyat shakllari hisoblanadilar.

Ma'naviy madaniyat deganda ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish, taqsimot va is'temol qilish sohalari nazarda tutiladi.

Ma'naviy madaniyat tarkibiga:

a) inson ma'naviy faoliyatining barcha natijalari fan, falsafa, san'at, siyosat, xuquq, ta'lim-tarbiya, din jamiyat boshqarish;

b) Muassasalar va tashkilotlar: maktab, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, teatr, kino, muzey, kutubxona, kontsert zallari va hokazolar kiradi.

Moddiy va ma'naviy madaniyat orasiga qat'iy chegara qo'yish, ularni birbiridan ajratish mumkin emas. Mehnat qurolini yasash moddiy extiyojdan kelib chiqadi va moddiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi. Ayni vaqtda mehnat qurolini inson bilimsiz yasash mumkin emas.

Ma'naviy madaniyat ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyot darajasi ma'naviy madaniyat bilan boshlanadi.

Inson go'daklik chog'idanoq madaniyat ta'siri ostida yashaydi. Inson ta'lim tarbiyasi deganda, avvalo uni madaniyatli inson sifatida kamol toptirish nazarda tutiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida inson madaniyatga oshno bo'lishiga o'rganadi, madaniyatning turli asoslariga ko'ra bir qator turlarga bo'lish mumkin.

Masalan milliy (o'zbek madaniyati, rus milliy madaniyati); mintaqaviy (slavyanlar madaniyati, turkiy xalqlar madaniyati, afrikaliklar madaniyati) madaniyat turlarini ko'rsatish mumkin. tarixiy davr nuqtai nazaridan antik madaniyat, o'rta asrlar davri madaniyati kabi turlariga bo'lish mumkin. jamiyat hayoti sohalariga tatbiqan siyosiy madaniyat, iqtisodiy madaniyat, xuquqiy madaniyat haqida fikr yuritish mumkin. madaniyatning o'ziga xos turlari: ommaviy madaniyat, yoshlar madaniyati, eklekta madaniyati, ishchilar madaniyati xaqida fikr yuritish mumkin. madaniyatning jamiyatda tutgan o'rni uning funktsiyalarida namoyon bo'ladi.

Madaniyatning funktsiyalariga quyidagilar kiradi:

a) gnoseologik yoki tarbiyaviy

b) yaratuvchilik

v) kommunikativlik

g) normativ funktsiya

d) insonparvarlik funktsiyalari kiradi.

Madaniyatda insoniyat tajribasi mujassamlashgan bo'ladi va bilimlar shaklida namoyon bo'ladi. Ularni o'zlashtirish madaniyat – gnoseologik yoki tarbiyaviy funktsiyasining mohiyatini tashkil etadi.

Madaniyat kishilar ijodiy faoliyatining muxim omili hisoblandi. Ilmiy izlanishlar olib borish, san'at sohasida faoliyat ko'rsatish madaniyatining yaratuvchilik funktsiyasi mohiyatini tashkil etadi.

Hayotning barcha jabhalarida - mehnatda, turmushda, shaxslararo munosabatlarda madaniyat kishilar xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi, ularning hatti-harakatini boshqaradi. Madaniyatning normativ (tartibga solish) funktsiyasi ahloqda, xuquqda o'z ifodasini topadi.

Madaniyat ijtimoiy hayot tajribasini bir avloddan ikkinchi avlodga yetkazishning qudratli vositasi hisoblanadi. Madaniyat an'analar tarzida avlodlar tomonidan o'zlashtiriladi vash u asosda avlodlar aloqadorligi ta'minladi. Ijtimoiy tajribani avlodlarga singdirish madaniyatning kommunikativ funktsiyasini tashkil etadi.

Madaniyat insonda insoniylikning takomillashtirish vazifasini bajaradi. Madaniyat tufayli inson kamolotga intiladi, insonda eng yuksak insoniy xislatlar shakllanadi.

Madaniyat insoniylikning meyo'ri va ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu madaniyatning insonparvarlik funktsiyasidan dalolat beradi.

Jamiyat taraqqiyotining qaysi sohasi haqida gap ketishdan qat'iy nazar bu taraqqiyotda asosiy o'rinni, inson va uning madaniy yuksalish darajasi hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Falsafaning eng muhim muammolaridan biri – qadriyatlar muammosi hisoblanadi. Qadriyatlar muammosi falsafa tarixida qadimdan mavjud bo'lgan. Qadimiy Yunon faylasuflari Suqrot, Platon ezgulik, yaxshilik, adolat, farovonlik, qadriyatlari haqida fikr yuritganlar. Aristotel adolat, baxt yuksak qadriyat ekanligini ta'kidlaganlari holda ularni nisbiy xarakterdaligi, ular insonning oqilligiga bog'liqligi haqida fikr yuritadilar. O'rta asrlarda qadriyatlar ilohiy mazmunda tahlil qilingan. Uyg'onish davrni falsafiy qarashlarida insonparvarlik, xurfikrlilik qadriyatlariga alohida diqqat qaratilgan.

XIX asrdan boshlab qadriyatlar nazariyasi ishlab chiqildi. Qadriyatlar to'g'risidagi nazariya, ta'limotni ifodalaydigan aksiologiya termini XIX asrning ikkinchi yarmida Frantsuz faylasufi P.Laki va nemis olimi E.Gortmanlar tomonidan iste'molga kiritildi. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi fani shakllandi.

Qadriyatlar to'g'risidagi ta'limot qadriyatshunoslik, qadriyatlar falsafasi – aksiologiya, deb yuritiladi.

Barcha tur va ko'rinishdagi qadriyatlar, ular orasidagi uzviy aloqadorlik, qadriyatlarining jamiyatdagi o'rni masalalari aksiologiya fanining predmetini tashkil etadi.

Qadriyatlar nima? Bu tushuncha qadr-qimmat tushunchasi bilan bevosita bog'liq. Qadriyatlar kishilar qadrlaydigan narsalarga nisbatan ishlatiladi.

Falsafa qomusiy lug'atida qadriyatlar jamiyat, inson, insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa va hodisalar, xislat va fazilatlar jamul-jami deb ta'rif berilgan.

Akademik J.Tulenovning fikricha, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalar mavxum tushunilmog'i lozim.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Qadriyatlar tushunchasida unga xos xususiyatlar aks etgan:

1. Qadriyatlar o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy. Narsalarning o'zi mustaqil ravishda qadriyat bo'la olmaydi. Jamiyat bo'lmasa, qadriyat ham yo'q. Qadriyatlar doimo inson qadriyatlaridir. Shuning uchun ham qadriyatlar inson bilan aloqadorlikda bo'lgandagina narsalar qadrlil bo'la oladi.

2. Qadriyatlar insonning amaliy faoliyati jarayonida yuzaga keladi. inson va uning ma'lum natijaga erishishiga yo'naltirilgan faoliyat uning uchun ahamiyatli, qadrlil.

3. Har qanday narsa 2 xil xususiyatga ega. Biri – narsaning nimaga kerakligi, ikkinchisi uning inson ehtiyojlariga aloqadorligi narsa o'zidan-o'zi qadrlil bo'la olmaydi. U insonning Biron-bir ehtiyojini qondirsagina qadrlil bo'la oladi. Demak, uning qadrlil-qadrlil emasligi insonga, uning munosabatiga bog'liq.

4. Qadriyatlar ob'ektiv mohiyatga ega. Qadriyat o'z-o'zidan emas, insonning predmetli – amaliy faoliyatidan kelib chiqadi.

Qadriyatlarini turli asoslarga ko'ra muayyan turlarga ajratish mumkin:

Jamiyat hayotining sohalariga taalluqli bo'lish nuqtai-nazaridan qadriyatlarning: a) moddiy; ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy turlarini ko'rsatish mumkin.

Moddiy qadriyatlar ichida tabiiy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Tabiiy qadriyatlarga yer, yer osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, foydali qazilmalar, hayvonlar va boshqalar kiradi. Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy xom-ashyo, foydali qazilmalar O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, asosiy qadriyatlaridandir. Tabiiy resurslar: yonilg'i, metall, rudalar, havo, suv, o'simliklar, hayvonlar bo'lmasa inson yashay olmaydi. Ona Yer kishilar uchun moddiy ne'matlar manbai, mehnat vositalari xazinasidir. Yer – insoniyat taraqqiyotining beshigidir. Shunday ekan, hayot manbai – Yerni qadrlamaslik mumkin emas. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 55-moddasida «Er, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari, umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir», deb yozib qo'yilgan.

Moddiy qadriyatlar nezigini mulk tashkil etadi. Mulknini o'z egasiga berish jamiyat taraqqiyotining muxim omili hisoblanadi, uning mulk egasi ushbu mulknini saqlash va ko'paytirish uchun kurashadi. Mamlakat iqtisodiyotining taraqqiy ettirishga xizmat qiladiganlar, avvalo, mulkdorlardir. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosini mulkiy munosabatlarini tubdan o'zgartirish tashkil qiladi. «Mulkning mulkdorga tom ma'noda xizmat qilishiga, uning mulk egasiga, butun mamlakatga foyda keltirib, har bir fuqaroning farovonligiga xizmat qilishga erishish zarur.

Ana shundagina paydo bo'layotgan mulkdorlar sinfi o'z mamlakatining iqtisodiyotini mustahkamlashdan chinakkam manfaatdor bo'ladi, ijtimoiy tuzumni mustahkamlash va himoya qilish, ijtimoiy siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlarni yaratadi», deya ta'kidlagan edi Prezident Islom Karimov.

Moddiy qadriyatlar tabiiy (tabiat predmetlari, mehnat predmetlari va h.k.) va predmetli (inson mehnati natijalari) ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Insoniyat siyosiy qadriyatlarga ijtimoiy adolat, tinchlik, barqarorlik kabilar kiradi. Ma'naviy qadriyatlar deganda ilmiy, ahloqiy, diniy, estetik qadriyatlar nazarda tutiladi.

Kimning extiyojlarini aks ettirish xususiyatlariga ko'ra qadriyatlar shaxsiy, guruh yoki jamoaviy, milliy, umuminsoniy ko'rinishlarga ega.

Jamiyat va inson hayotida tutgan o'rinlariga ko'ra: ikkinchi darajali, kundalik va oliy qadriyatlarni ko'rsatish mumkin.

Moddiy, ijtimoiy-siyosiy ma'naviy qadriyatlarning muayyan bir qismini oliy (yuksak) qadriyatlar tashkil etadi. Tinchlik, inson hayoti, adolat, erkinlik, xuquq va burchlar haqidagi tasavvurlar, do'stlik, sevgi, qarindoshlik kabilarni oliy qadriyatlar turkumiga kiritish mumkin.

Qadriyatlarning mazmuni, ko'rinishi o'zgaruvchidir. Qadriyatlar turlari orasiga qat'iy chegara qo'yish mumkin emas. Ular hayot sharoitlari, davr taqazosi bilan bir turdan boshqa turga o'tishi mumkin. jamiyatdagi o'zgarishlar, taraqqiyot yangi qadriyatlarning shakllanishiga, yoki ayrim qadriyatlarning yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Respublika Konstitutsiyasida shunday so'zlar yozilgan; «O'zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz xuquqlarga oliy qadriyat hisoblanadi».

Shunday qilib qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muxim o'rin tutadi.

11-Mavzu. Fuqorolik jamiyat

Reja:

1. Fuqorolik jamiyati, uning tuzilishi.
2. Fuqorolarning o'z –o'zini boshqarish organlari.
3. O'zbekistonda fuqorolik jamiyatini barpo etishning o'ziga xos tomonlari.

Tayanch tushunchalar:

Ochiq jamiyat, yopiq jamiyat, fuqarolik jamiyati, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mahalla, jamoat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlari.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. Islom Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» - T., «O'zbekiston» 1997
3. Islom Karimov «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» - T., 1999 yil.
4. Islom Karimov. «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» - T., «O'zbekiston» 2002 yil.
5. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – T., «VLADOS» 1998 y., 205-214 betlar.
6. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «Sharq» 2004 yil.

Nazorat uchun savollar:

1. «Jamiyat», «fuqarolik jamiyati» tushunchalarini ta'riflang, ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
2. Fuqarolik jamiyati masalasining falsafa tarixida qo'yilishi.
3. XX asr falsafasida fuqarolik jamiyati kontseptsiyalarining ishlab chiqarish.
4. Ochiq jamiyat qanday jamiyat?
5. Karl Popper «yopiq jamiyat» deganda nimani nazarda tutadi.
6. «Fuqarolik jamiyati»ning asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?
7. «Fuqarolik jamiyati» muammosining Islom Karimov asarlaridagi talqini?
8. Fuqarolik jamiyatining strkurasiga nimalar kiradi?

So'nggi paytlarda ijtimoiy falsafada «ochiq jamiyat», «yopiq jamiyat», «axborotlashgan jamiyat», «fuqarolik jamiyati» kabi tushunchalar ko'p qo'llanmoqda.

Fuqarolik jamiyati jamiyatning muayyan shakli, ko'rinishini ifodalaydi. «Fuqarolik jamiyati», «fuqarolik» tushunchalariga qadimdan ko'p omillar o'z munosabatlarini bildirganlar. Chunonchi Yunon faylasufi Aristotel o'zining «Siyosat» asarida fuqarolik jamiyati masalasiga alohida to'xtalgan hamda grek polislarini fuqarolik jamiyatining o'ziga xos modeli, deb bilgan. U fuqarolik jamiyati, deganda baxtli hayotni ta'minlaydigan jamiyatni tushungan. Bunday

jamiyatni boshqarishda davlat qonunlarining to'g'ri, adolatli bo'lishi, davlatning xalq manfaatlarini yo'lida xizmat qilish zarur, deb hisoblagan o'z davrida Abu Nasr Farobiy «Fozil odamlar shahri» asarida «fozil shahar» g'oyasini ilgari suradi. «Fozil shahar» olim idealidagi fuqarolik jamiyati edi.

Forobiy ideal jamiyat – fozil shahar deganda adolatli, kishilarning samarali mehnati, ilm sohiblarining aql-zakovatlari, hayotiy tajribalari yuksak qadrlanadigan jamiyatni tushungan. Bunday shaharda ma'rifat, ilm-fan rivojlanadi, inson kamoloti ta'minlanadi, insonlar o'zaro haqiqat yashaydilar. Tengxuquqlik va erkinlik saltanadi hukmronlik qiladi. Orzudagi jamiyatda davlat boshliklari o'z faoliyatlarida adolat, teng huquqlilik, fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab ish tutadilar.

Fuqarolik jamiyati muammosiga oid qarashlar I.Kant, Gegel, Russo falsafiy qarashlarning muxim tomonini tashkil etadi. Kant orzu qilgan ideal jamiyat holati – bu jamiyat a'zolari o'rtasidagi tinch-totuvlik, hamkorlik, hamjihatlikdir. Ideal jamiyatda erkinlik muxim ahamiyatga ega. Siyosiy erkinlikning asosiy sharti – bu jamiyat a'zolarining qonun oldidagi tengligi. Kant tenglik deganda mutloq tenglikni nazarda tutmaydi. Nasl-nasabgaaloqador imtiyozlarni barataraf etish lozimligi haqida fikr yuritadi. Uningcha, kishilarni mutloq tenglikda saqlashga urinish ijtimoiy adolatsizlikdan boshqa narsa emas.

Gegelning xuquq falsafasida ham fuqarolik jamiyatiga oid qarashlar ilgari surilgan.

Yangi davr falsafasida fuqarolik jamiyati muammosiga frantsuz mutafakkirlari ko'p e'tibor berganlar. Shulardan biri – Jan Jak Russodir. (1712-1778) u o'zining «Ijtimoiy shartnoma yoki siyosiy xuquq tamoyillari» deb, nomlangan mashhur asarida fuqarolik jamiyatini tuzish asoslarini qarab chiqadi va o'zaro tenglik, xuquq-qoida, me'yorlariga xurmat, xalq manfaatlarini masalasiga e'tibor qaratadi.

Jan Jak Russo ijtimoiy tengsizlikka ideal davlat va jamiyatni qaror toptirish yo'lidagi eng asosiy to'siq, deb biladi. U o'rining «Tengsizlikning kelib chiqish sabablari» asarida tengsizlikning kelib chiqqan sabablarini tahlil qilgan ekan, unga tarixiy hodisa sifatida yondashadi. Jamiyatdagi kuzatiladigan turli nuqsonlarning bosh manbai – tengsizlik. Tengsizlikning bosh sababi xususiy mulk, davlat esa bu tengsizlikni kuchaytiradi. Shuning uchun jamiyatda boyliklarni teng taqsimlamoq lozim. Olim har qanday xususiy mulkka emas, faqat turli buzilishlarga olib keladigan yirik xususiy mulkchilikka qarshi kurashadi. Ayni vaqtda shaxsiy mehnatga asoslangan xususiy mulkchilikni jamiyatning asosi, deb hisoblaydi.

Russoning fikricha, jamiyatning boylar va kamabag'allarga bo'linishini bartaraf etish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash mumkin.

«Fuqarolik jamiyati» tushunchasi ijtimoiy falsafaga XX asrda kirib keldi va bu narsa ingliz olimi, faylasuf Karl Popper (1902-1994 y.) nomi bilan bevosita bog'liq. Popper «Ochiq jamiyat va uning dushmanlari» asarida «yopiq jamiyat» va «ochiq jamiyat» to'g'risidagi ta'limotni ilgari surgan.

Karl Popperring bu asarni yozishdan maqsadi totalitarizm haqidagi qarashlarni chuqurlashtirish va unga qarshi kurash samaradorligini oshirishdan iborat edi. Olim yopiq jamiyatni totalitar siyosiy tuzumning mahsuli sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha insoniyat doimo totalitar siyosiy tuzum bilan kurashib kelgan. Insoniyat o'zining kelajagini insonparvarlik printsiplariga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qaror toptirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga qaratilmog'i lozim, deb hisoblaydi. Popper va bunday sifat holatiga ega bo'lgan jamiyatni «ochiq jamiyat» deb ataydi. U ochiq jamiyatni bozor munosabatlari bilan bog'laydi va shu asosda «ochiq jamiyat», «fuqarolik jamiyati» haqidagi kontseptsiyasi ilgari suradi. Ochiq jamiyatda jamiyat fuqarolari shaxs hisoblanadi. Unda muayyan qarorlarni qabul qilishda fuqarolar ishtirok etadilar.

Karl Popper insonparvarlik tamoyiliga asoslangan ijtimoiy tuzumga erishmoq uchun insoniyat beshta muhim vazifani ado etmog'i lozim, deb hisoblaydi. Bular:

1. Erkinlikni mustaxkamlash, undan kelib chiqadigan ma'suliyatni anglash;
2. Dunyoda tinchlik o'rnatish;
3. Qashshoqlikka qarshi kurash;
4. Demografik portlashga qarshi kurash.
5. Zo'rovonlikka qarshi ta'lim-tarbiyani jadallashtirish.

Shuni ta'kidlash lozimki, «jamiyat» va «fuqarolik jamiyati» sinonim tushunchalar emas. Umuman olganda, jamiyat – bu kishilarning umumiyligi, organik birligi va yaxlitligi. Fuqarolik jamiyati esa jamiyatning muayyan bir ko'rinishidir.

Fuqarolik jamiyati u yoki bu bu mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turkumini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizim.

Fuqarolik jamiyatining bosh tamoyili o'z-o'zini boshqarish. Davlatning ijtimoiy siyosiy faoliyatida demokratiya qoidalari qancha ko'p amal qilsa, fuqarolik jamiyati shunchalik rivojlanadi. Xaqiqiy demokratik davlat, bu – albatta rivojlangan fuqarolik jamiyatiga ega bo'lgan davlatdir.

Fuqarolik jamiyatida davlat faoliyati ustidan fuqarolarning nazorati o'rnatiladi, davlatning ko'pgina funksiyalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga o'tadi.

Fuqarolik jamiyati insoniyat sivilizatsiyasining mahsuli hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati murakkab tuzilishga ega. Fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlariga: a) iqtisodiy sohada – mayda xususiy korxonalar, kospertivlar, aksionerlik jamiyatlari, fuqarolar tashabbusi bilan shakllangan xilma-xil ishlab chiqarish birlashmalari, jamoalari, jamiyatlar;

b) iqtisodiy sohada – oila, o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari, siyosiy partiyalar, turli haraktalar, jamoatchilik fikrini o'rganuvchi nodavlat institutlari, muassasa va tashkilotlar;

v) ma'naviyatda – nodavlat tashkilotlar (masalan diniy tashkilotlar), ommaviy axborot vositalari, turli ilmiy, ijodiy uyushmalar kiradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda erkin fuqarolik jamiyatini qurish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Erkin fuqarolik jamiyati qonun ustuvor, ijtimoiy adolat hukmron bo'ladigan insonning xuquq va erkinliklari oliy o'ringa ko'tarilgan jamiyatdir.

Respublika Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyo yo'li», «O'zbekiston XXI asr bo'sagaisda: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» risolalarida erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'llari va bu boradagi vazifalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Erkin fuqarolik jamiyatining mohiyati Prezident I.Karimov tomondan shunday ta'riflanadi: «Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning xuquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishga ko'maklashadi».

Bu jamiyatni barpo etishning strategik vazifalari. Islom Karimovning asarlarida, avvalo «O'zbekiston XXI asr bo'sag'aisda: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari» asarida berilgan. Bular:

1) Demokratik xuquqiy davlatni qaror toptirish. Aynan demokratik huquqiy davlat jamiyatda mavjud manfaat va munosabatlarni mujassam holda ifodalaydi. Demokratik xuquqiy davlat uzluksiz tarakqiy etib boruvchi davlatdir. Bu davlatning qonunlari inson va fuqarolar xuquqlarini to'la ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

2) Erkin fuqarolik jamiyatini qurshning muxim sharti demokratiyani har tomonlama rivojlantirishdir. «Jamiyatda demokratiyaning qay darajada ekanligini belgilovchi kamida uchta mezon bor. Bular – xalq qarorlar qabul qilish jarayonlaridan qanchalik xabardorligidir. Xukumat qarorlari xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolar davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etirishidir».

3) Fuqarolik jamiyatini qurish bir qancha vakolatli vazifalarga davlatdan mahalliy hokimyat organlariga, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadi. Bunda davlat hokimiyati o'z diqqat-e'tiborini taraqqiyotning strategik vazifalarini hal qilishga (mudofaa, davlat xavfsizligi, tashqi siyosat, qonunlar qabul qilish va h.k.) qaratadi. Boshqa masalalarni hal qilish esa asta-sekin davlat hokimyatni organlaridan jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga toptirilishi ko'zda tutiladi.

4) Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish siyosiy institutlar va nodavlat ijtimoiy uyushmalar va jamoatchilik tizimlari rolining tobora ortib boruvu bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda respublikada 9690 fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari mamlakat ijtimoiy hayotida juda katta o'rin tutmoqda. Respublikada 5 siyosiy partiya (XDP, «Fidokorlar Milliy Demokratik» partiyasi, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi, Liberal-demokratik partiya) «Xalq birligi» harakati, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, kasaba uyushmalari, Xotin-qizlar tashkilotlari, 300 dan ortiq respublika va xalqaro nodavlat tashkilotlari, turli jamg'armalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlisining Vakolatli instituti – Ombudnyaen tashkil etilgan.

5) Erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muxim omili – ma'naviyatni yuksaltirish ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirishdan iborat. «... ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak».

Bugungi kunda O'zbekistonda 609 nomda gazeta, 162 nomda jurnal nashr etilmoqda.

Shunday qilib, erkin fuqarolik jamiyatini barpo eti shva rivojlantiruvchi – bizning strategik maqsadimiz, chunki bunday jamiyatda inson, uning xuquqlari, erkinliklari hamda manfaatlari oliy qadriyat hisoblanadi.

12-Mavzu. Inson. Shaxs.

Reja:

1. Inson, uning mohiyati va faoliyati.
2. Inson muammosining falsafa tarixida qo'yilishi.
3. Inson, individ, shaxs, individuallik tushunchalari

Tayanch tushunchalar:

Odam, inson, individ, shaxs, antropogenez, sotsiogenez, antroposotsiogenez, ekzistentsiya.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. I.Karimov. Inson huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat. – T., «O'zbekiston» 2005 yil yoki «Xalq so'zi» gazetasi, 8 dekabr 2005 yil.
3. I.Karimov Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., «O'zbekiston» 1997 yil.
4. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupov tahriri ostida.-T., «Sharq», 1999 yil, 272-283 betlar.
5. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NMIU, 2005 yil, 272-280 betlar.
6. Anvar Choriev. Inson falsafasi. Inson to'g'risiagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. I kitob – T., «Chinor ENK», 1998 yil.
7. Inson falsafasi. II Mustaqil shaxs. – T., «Chinor ENK», 2002 yil.
8. O.G.Danilyan, V.M.Taranenko. Filosofiya – Moskva, «EKSMO» 2005 yil, 365-374 betlar.

Nazorat uchun savollar:

1. «Odam», «inson» tushunchalarini izohlang. Ulardagi umumiylik va farqlar nimalardan iborat.
2. Qadimgi Xind falsafasida inson muammosi.

3. Qadimgi Xitoy falsafasi inson to'g'risida.
4. O'yg'onish davri falsafasining inson to'g'risidagi qarashlari.
5. O'rta asr Markaziy Osiyo mutafakkirlari inson to'g'risida.
6. Nemis klassik falsafasi inson to'g'risida.
7. Inson muammosi hozrgi zamon falsafasida.
8. Shaxs tushunchasining mazmun mohiyati.
9. «Inson antroposotsiogenez mahsuli» degan fikrni qanday tushunasiz? Izohlab bering.
10. Shaxsning shakllanishida ijtimoiy omillarning tutgan o'rni.

Ijtimoiy falsafa inson muammosiga olam, borliqning tarkibiy qismi sifatida qaraydi vash u nuqtai-nazardan «Inson inma? Uning mohiyati qanday? Inson olamda qanday o'rin tutadi?», «Inson omili deganda nima nazarda tutiladi? Kabi savollarga javob beradi. Inson borliqning oliy ko'rinishi. Uning kelib chiqishi, hayoti, taraqqiyoti olam, borliqqa bog'liq. Inson va jamiyat olam taraqqiyoti tabiat evolyutsiyasining mahsuli va ko'rinishi bo'lib hisoblanadi.

Inson hamma zamonlarda ham o'zining kimligini, o'zligini bilishga intilgan. Inson muammosiga bag'ishlangan xilma-xil qarashlar, gipotezalar, nazariyalar yaratilgan.

Inson muammosi ijtimoiy fikr tarixida 3 xil nuqtai nazardan o'rganilgan: mifologik, diniy va ilmiy-nazariy.

Inson haqidagi dastlabki qarashlar qadimgi Sharq mamlakatlari, ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Turon xalqlari tomonidan yaratilgan ertaklar, dostonlar, afsonalarda o'z ifodasini topgan. Hamma narsaga qodir inson obrazi Qadimgi Hind Vedalarida tasvirlangan. Ularda aytishlicha, eng qadimgi inson Puruja mingta boshli, mingta ko'zli, mingta oyoqli bo'lgan emish. Bu insoning aql-zakovati-oy, ko'zi-quyosh qorib-toliqish-olov, nafasi esa – shamol emish. Hozirgi odamlar Prujadan tarqalgan ekanlar. Aytilishicha, uning qo'lidan – kematron (harbiylar), voysh (dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar), shudra (gadolar) kabi jamiyatning turli qatlamlariga mansub odamlar kelib chiqqan emish. Vedalarda yozilishicha, inson ikki mohiyat: tana bilan jonnig qorishmasidan iborat. Tana inson jismining asosini tashkil etadi, bu asosni braxman yaratgan, jon esa ruh (atmang) tomonidan

yaratilgan. Agar insonning yerdagi faoliyati turli nopokliklar bilan bog'lanmasa, Atman va braxmanlarning aralashish jarayoni sodir bo'ladi. Mabodo, inson faoliyati yerdagi nopokliklar bilan aloqador bo'lsa, uning joni ko'rinishida emas, balki hayvoniy tana sifatida qayta tug'iladi. Xind Vedalarida olam bir butun, tirik zotlarning hammasi butunning ajralmas zaralaridir. Odam esa o'sha tirik zotlarning o'ziga xos shakli, ko'rinishidir, deyiladi.

Qadimiy Xitoy afsonalarida dastlabki inson – odamato Panga qiyofasida namoyon bo'ladi. Odamning boshqa tirik mavjudotlardan farq qiluvchi insoniy xislatlari haqidagi dastlabki mulohazalarni qadimiy Xitoy manbaalarida ko'rish mumkin. Inson haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar Xitoyda eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda shakllangan. Qadimgi Xitoy faylasuflari fuqarolarning baxtli yoki baxtsiz bo'lish sabablarini osmondan emas, balki ular yashayotgan ijtimoiy muhitdan izlaganlar. Ularning ta'kidlashicha, ja'mi yaxshilik va yomonliklar odamlardan tarqaladi. Xitoyda keng tarqalgan Konfutsiy (e.a. 551-479 y.) ta'limoti bo'yicha, odamlar o'z tabiatlariga ko'ra xammasi bir, faqat tarbiya tufayli ular bir-birlaridan farq qiladilar. Konfutsiyning inson to'g'risidagi fikr-mulohazalari, shogirdlari bilan bo'lgan suhbatlarni aks ettiruvchi «Suhbatlar va mulohazalar» asarida ifodalangan. Jamiyatda sodir bo'layotgan turli ahloqsizliklardan tashvishga tushgan Konfutsiy fuqarolarni tarbiyalashga harakat qiladi, ularni insofga chaqiradi. U insoniylikning turli fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan inson faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun, boshqalar uchun yashamog'i darkor, deb hisoblaydi.

Inson to'g'risidagi qarashlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida, xususan Turonda keng tarqalgan diniy-falsafiy ta'limotlarda, chunonchi zardushtiylik ta'limotida aks etgan. Bu ta'limotning markaziy muammosi – odam bilan olam va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik. Ushbu ta'limotga muvofiq butun olam, shu jumladan odam borlig'i ham to'g'ri unsurdan: tuproq, suv, havo, olovdan iborat. Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, olam qarama-qarshi kuchlar, xususan, yaxshilik va yomonlik, nu rva zulmat orasidagi kurashga asoslangan. Bu kurashni hech qachon murosaga keltirib bo'lmaydi, bu kurash butun koinotni qamrab olgan. Yaxshilik, yorug'lik Axura Mazda, yomonlik zulmat esa Axriman xudolari timsolida namoyon bo'ladi. Butun olamni, undagi barcha narsalarni, shu jumladan odamni ham ezgulik xudosi Axura Mazda yaratgan emish. U yaratgan yer yuzida paydo bo'lgan birinchi Odam Ato Iyim, deb nomlangan ekan.

Axura Mazdaning ko'rsatmasiga muvofiq Iyim yer yuziga turli jonli mavjudotlar, xususan, odamlar, hayvonlar, qushlar urug'ini sohibdi, ularni

parvarish qilibdi. Shu asnoda, Iyim yer yuzida 900 yil yashaydi. Odam bolasining soni ko'payib yer yuzi unga porlik qila boshlabdi. Ana shunda Iyim xudoga murojaat qilib, yerni kengaytirishni so'raydi va bunga erishibdi ham. Bir kuni Axura Mazda yer yuzini muzlik bosib kelayotgani xaqida Iyimni ogohlantiribdi. Iyim yer yuzida mavjud tirik mavjudotlarni saqlab qolish uchun maxsus uy qurib, barcha tirik mavjudotlarning eng yaxshi zotlari, eng zo'r navlaridan bir juftan saqlab qolibdi. Zardushtiylik ta'limotida inson faoliyatini boshqarib turadigan eng katta kuch-axloq normalari ekanligi xaqidagi g'oya ilgari surilgan. Shuning uchun Zardusht Oliy ibtido – Axura Mazdadan insoning kundalik amaliy faoliyatini boshqaruvchi qonun-qoidalarni aniqlab berishni so'ragan. Manna shunda Axura Mazda butun olam borlig'i ikki boshlang'ich asos – ezgulik va yovuzlik atrofida mujassam ekanligini xabar qiladi. Bunda ezgulik musaffo, beg'ubor osmonga, yovuzlik esa jahannamga qiyos qilinadi. Odamlar Axura Mazda tomonidan yuborilgan axloqiy normalar, tartiblarga amal qilsalar, yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi ta'minlanadi. Yaxshilik bilan yomonlik orasidagi kurashda hal qiluvchi rolni – inson, uning iymon-e'tiqodi o'ynaydi, deyiladi zardushtiylik ta'limotida Zardushtiylikda ta'kidladiki, inson iymon-e'tiqodini uchta yirik tayanchi mavjud: fikrlar sofligi, so'zdagi sobitlik hamda faoliyatining insonparvarligi.

Inson, uning olamga munosabati qadim Yunon falsafasida markaziy o'rin tutadi.

Yunon olimi Suqrot (e.a. 469-399)ning falsafiy mulohazalari markazida inson va uning ongini o'rganish turadi. Suqrotning inson to'g'risidagi qarashlarida axloqiy ratsionalizm markaziy o'rin egallaydi. U ahloqsizlik haqiqatni bilmaslikdir, insondagi yomonliklar – bilimsizlikning natijasidir, deb hisoblaydi. Platonning fikricha, inson asosan ikki bo'lajak uyushmasidan iborat. Birinchi bo'lak - o'lmas jon, ikkinchi bo'lak – tana. Insoning joni ham ikki qismdan iborat: oliy – yuqori qism va pastki – quyi qism. Oliy qismda aql-zakovat to'plagan, uning yordamida inson abadiy g'oyalar sirini bilib oladi va farovonlik, ezgulik tomon intiladi. Pastki qism - his-hayajonga asoslangan. Platon odamlarni uch katta toifaga bo'lgan. Birinchi toifadagilar – aqlli kishilar, ikkinchi toifadagilar - his-hayajonga beriluvchilar, uchinchi toifa – doqiylarga, yo'lboshchilarga sajda qiluvchilar.

Aristotel inson jismi va ijtimoiy qiyofasi orasidan aloqadorlikni tushuntirib berishda o'z o'tmishdoshlaridan ancha ilgari ketadi. U olamdagi jami tirik mavjudotlar hayotining asosini jon tashkil qiladi, deb hisoblaydi. Bu jon uch turkumga bo'linadi: eng past turkumdagi jon - o'simliklar, ikkinchi turkumdagi hayvonlarda, eng oliy turkumdagi jon – odamzodda bo'ladi. Aristotel inson deb ataluvchi tirik mavjudotni butun va bo'linmas, deb talqin etadi. Ayni vaqtda «inson

o'z tabiatiga ko'ra siyosiy mavjuotdir», deb ta'riflaydi. Olim odamlarni faqat moddiy farovonlik emas, balki ijtimoiy adolat printsiplariga rioya qilish ezgulik tomon boshlaydi, deb hisoblaydi. Ezgulik deganda, akl-zakovat bilan ish ko'rishni, mehribonlik, mardlik, ochiqko'ngillikni, to'g'rilik, xayrihoxlikni tushunadi.

Aristotel insonning har tomonlama kamoloti haqida fikr yuritadi va yuksak axloqiy poklik, tashki va chiki go'zallik, ijtimoiy-siyosiy yetuklik kabi fazilatlarni oliy kamolotga yetkazadigan fazilatlar, deb hisoblaydi.

O'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasida inson xaqidagi diniy qarashlar ilgari suriladi. Chunonchi, xristian falsafasining xudo inson qiyofasida gavdalandi. Xristian falsafasining yirik namoyondasi Foma Akvinskiy fikricha insonda mavjud fazilatlarning eng oliysi – aqlidir. Inson aql yordamida yaxshi va yomon, ezgulik va johillikning farqiga boradi. Ezgulik to'rt ko'rinishda, chunonchi: donishmandlikda, jasurlikda, mu'tadillikda va adolatparvarlikda namoyon bo'ladi. Akvinskiy bu fazilatlarga Yana xristianlikka xos uch fazilatni: ishonch, umid va muhabbatni ham qo'shadi.

Islom falsafasida Odam suratini (Odam Atoni) loydan yasaganligi, keyin unga jon ato etganligi, Momo Havoni Odam Atoning «chap biqinidan» yaratilganligi va butun kishilik jamiyati Odam Ato va Momo Havodan tarqalganligi haqida g'oya ilgari surilgan. Qur'oni Karimning al-isro surasida. Biz odam bolalarini aziz – mukarram qildik ... va ularni o'zimiz yaratgan juda ko'p jonzotlardan afzal, ustun qilib qo'ydik; deyilgan. Islom dini ta'siri ostida musulmon falsafasi va uning mutakallimlik va mutazalliylik ta'limotlari shakllandi. Mutakallimlar olamni, odamni tushunish asoslarini Qur'oni Karim aqidalaridan izladilar. Ular insoning taqdiri azaldan belgilangan, degan g'oyani ilgari suradilar – Mutazalliyalar xudo insonga o'xshash, deb tushuntiradilar. Ayni vaqtda ular insonning aqlini, olamni o'zgartirish borasidagi faoliyatini yuqori baholadilar.

Musulmon falsafasidagi xurfikrlilikda inson muammosi o'zgacha talqin qilindi. Bu yo'nalishning yirik namoyondasi Mansur Xalloy ta'limotiga muvofiq, mustaqil, erkin fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'lgan inson komillik, oriflik darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Inson muammosi O'rta asrlar O'rta Osiyo faylasuflari qarashlarida muhim o'rin tutadi. Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar) odamning tanasi paydo bo'lishi bilan, uni «oziqlantiruvchi quvvat» vujudga keladi. O'sha quvvat yordamida inson tanasi oziqlanib turadi va shu jarayonda sezgi organlari paydo bo'ladi. Sezgi a'zolari tufayli insonda his, tasavvur, xotira birlashib, xayol hosil bo'ladi. Xayol quvvati yordamida inson bilim, hunar egallaydi, faoliyat ko'rsatadi, foyda,

zararning farqiga boradi. Inson o'zining aql-zakovati bilan olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan farqlanadi. Uning aql-zakovati borliq turli-tuman ko'rinishlarining asosidir. O'rta asr sharoitida insonning insoniy fazilatlari xislatlarini aniqlashda, Forobiy o'z zamondoshlaridan ancha ilgari ketadi. Forobiy «Baxt-saodatga erishuv xaqida» nomli risolasida insonning xislatlari, fazilatlari xaqida fikr yuritadi.

Abu Ali ibn Sino inson tana va jondan tashkil topgan. Inson boshqa tirik mavjudotlardan o'zining firka yuritish qobiliyati bilan tubdan farq qiladi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniyning fikricha, inson olamdagi barcha mavjudotlardan o'zining yaratuvchanligi bilan tubdan farq qiladi; yaxshilik, rostgo'ylik, oliyjanoblik, mehr-shavqat, muhabbat kabi fazilatlar insonni ulug'laydi. Yolg'onchilik, yomonlik, ichiqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuxmatchilik kabi illatlar insonni tubanlashtiradi. Abu Rayhon Beruniy inson o'z mehnati bilan ulug'dir. Mehnat yordamida inson o'z badanini turli illatlardan, xususan, dangasalikdan, yalqovlikdan, ishyoqmaslikdan qutqaradi, degan fikrni ilgari suradi.

Yusuf Xos Hojib kishilarni ahloqiy barkamolligi yoki ahloqsizligiga qarab yaxshi va yomon odamlarga bo'ladi. U kamtar, oddiy, halol, haqgo'y kishilar jamiyatning bebaho boyligi; munofiq, yolg'onchi kishilar yurt uchun zararli illat ekanligini qayta-qayta takrorlaydi.

Uyg'onish davri falsafasida har tomonlama rivojlangan shaxs g'oyasi olg'a suriladi. mashhur ingliz gumanisti Tomas Mor «Utopiya» asarida inson shaxsi tubanlashuvining sabablari haqida fikr yuritib o'g'rilik, daydilik tubanlashuvning ko'rinishlaridir. Bu kabi illatlarni tugatmoq uchun nopok yo'llar bilan topilgan boyliklarni yo'qotish darkor, degan xulosaga keladi.

XVII-XVIII asr G'arbiy Yevropa falsafasida inson to'g'risidagi diniy qarashlar tanqid ostiga olindi, inson, uning mohiyati, kelib chiqishi haqida yangi ilg'or g'oyalar ilgari surildi. Mashhur ingliz faylasufi F.Bekon (1561-1626 y.) o'zining «Yangi Orgonon» asarida insoning tabiat ustidan hukmron bo'lishida fan yutuqlariga tayanish zarurligini isbotlab berdi. mashhur ingliz faylasufi – Tomas Gobbs (1588-1679 y.) fikriga ko'ra, jamiyat – juda katta mexanizm, inson o'sha buyuk mexanizmning murvatidir. Inson degan mavjudot bir-biridan mutlaqo farq qiluvchi ikki muxim bo'lakdan iborat. Uning birinchi bo'lagini jismoniy, ikkinchi bo'lagini – ma'naviy qobiliyatlar tashkil etadi. Insondagi ma'naviy qobiliyatlar tabiat tomonidan in'om etilmaydi, balki ular o'zlashtiriladi.

Gobbs insoning ma'naviy qobiliyatlarini mavjud ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'lab tushuntirishga harakat qiladi.

Ingliz faylasufi Djon Lokk (1632-1704 y.) «Inson ahli to'g'risidagi tajriba» asarida inson qalbi xuddi oq qog'oz varag'idek toza bo'lib, faqat tajriba o'sha qog'oz sahifasini turli yozuvlar bilan to'ldiradi. Insonni yangi bilimlar bilan qurollantirmoq uchun tajribaga tayanmoq lozim. Har qanday bilim yoki g'oyaning manbai – tajribadir, degan fikrni ilgari suradi. Inson faoliyati ko'rsatishda o'z aqlida mavjud bo'lgan bilimga tayanadi, deb ta'riflaydi u «Aqlni boshqarish xaqida risola»Sida.

XVIII asr frantsuz olimi, ma'rifatparvar Jan Jak Russo (1712-1778 y.)ning inson muammosiga doir falsafiy fikrlari uning «Odamlar orasida tengsizlikning kelib chiqishi va asoslari xaqida mulohaza», «Ijtimoiy shartnoma», «Emil yoki tarbiya to'g'risida»gi asarlarida aks etgan.

XIV asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Turkiston Chor Rossiyasi tomonidan bosib olingan, mustamlakachilik siyosati Ayni avjiga chiqqan paytida o'lkada ma'rifatparvarlik harakati shakllandi. Bu harakat odamlarni ilm egallashga chaqirdi, o'tmish avlod merosini targ'ib qildi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy qaloqlikdan chiqish yo'llarini izladi. Inson muammosi ma'rifatparvarlar ijodida o'ziga xos talqin topdi. Ma'rifatparvar Ahmad Donish (1827-1897 y.) inson olamni, o'zi yashayotgan ijtimoiy muxitni o'zgartirishga qodir. Buning uchun u nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni bilishi zarur, deb hisoblaydi. «Biz dunyoni gullab-yashnashi uchun, dengizlarni kezib o'rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, dunyoning ajoyib sirli tomonlarini talqin etish uchun, uning hamma qit'alari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz», deb yozadi Donish o'zining «Navodir ul-vaqoe'» asarida.

Furqat jamiyatda ma'naviy qashshoq, nopok, galvars kishilarining ko'payishi – fojea, ofatdir. Fan nodon – oliy kishilar yo'lini yorituvchi, ularni to'g'ri yo'lga boshlovchi yo'lchi yulduz, chiroqdir. Ilm-fan qanchalik tez rivojlansa, jamiyat a'zolarining orzu-umidlari shunchalik tez ro'yyobga chiqadi, ma'naviy qashshoq odamlar soni kamayadi. Ma'rifatli, bilimdon, odamlar qancha ko'p bo'lsa, jamiyat hayoti shuncha tez insonparvarlashadi, degan xulosaga keladi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida jamiyatni insonparvarlashtirish g'oyasi O'rta Osiyoda keng tarqalgan jadidchilik harakatining bosh g'oyasi edi. Bu harakatning namoyondalaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1943 y.) o'z asarlarida o'rta Osiyo xalqlari jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan, ilm-ma'rifat, madaniyatdan bebahra qolmaslikni, xalq o'ta qashshoqlashib, qullarcha hayot kechirayotganligini afsus va alam bilan tasvirlaydi. Avloniy asarlarining bosh mavzusi – inson. Uning fikricha, inson butun borliqning ko'rki va sharafidir. Inson butun mavjudot sohibidir, chunki uning aql-zakovati bor. Inson shu qudrati tufayli ilm egallaydi.

Inson o'zining aql-zakovati tufayli boshiga tushadigan har qanday balo-qazodan saqlanadi. Insonparvar jamiyatning muxim vazifalaridan biri – fuqarolar, ayniqsa yoshlar aqliy kamoloti haqida qaygurihdir.

Inson muammosi nemis klassik falsafasida muxim o'rin tutadi. Nemis klassik falsafasining yirik vakillari Immanuil Kant, Gegel, Fixte, Shelling, Gegel, Lyudvig, Feyerbax insonshunoslik sohasida bilimlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Immanuil Kant (1724-1804 y.) insonga ta'rif berganda uch muxim tomonga axamiyat berish mumkinligini ta'kidlaydilar: 1. Tirik mavjudot sifatida insonda hayvoniy alomatlarining borligi. 2. Tirik va aqli mavjudot sifatida unda insoniylik alomatlarining borligi. 3. Aqli mavjudot va shuning bilan birga unda fikr-mulohazalarni singdirish imkoniyati mavjud bo'lgan shaxs alomatlari borligi. Kant o'z diqqatini inson faoliyatini, uning qobiliyatlarini, malakatlarini o'rganishga qaratdi. Inson kamoloti masalasi Vilgelm Gegel (1770-1831 y.) falsafasining diqqat markazida bo'ldi. Uning fikricha, inson – dunyoviy ruhning begonalashuvidan o'zga narsa emas. Gegel insonning shakllanishi jarayonini ruhning chuqurlashishidan iborat, degan fikrni ilgari suradi. Inson muammosi Lyudvig Feyerbax (1704-1782 y.) falsafiy qarashlarida alohida o'rin tutadi. Feyerbax uchun inson – eng avvalo moddiy ob'ekt. Insonni xudo yaratgan emas, inson xudoni yaratgan. Feyerbax insonning fazilatlarini shakllanishida biologik omillarning tutgan o'rnini mutloqlashtirdi. Feyerbax jamiyatdagi barcha odamlar borlig'ining eng muhim elementi vazifasini muhabbat bajaradi, degan g'oyani ilgari surdi.

Inson muammosiga marksizm falsafasi o'ziga xos yondoshadi. Karl Marks o'zining «Kapital» asarida inson – ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotning mahsuli, degan xulosaga keldi. Bu xulosa inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyotiga qo'shilgan muxim hissa bo'lib hisoblanadi. Marks «inson tabiati» deganda individning alohida jinsga xos tirik mavjudot ekanligini ifodalovchi biologik, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarining yig'indisini tushundi. Marks asos solgan inson to'g'risidagi koneptsiya F.Enoyans tomonidan rivojlantirildi. Engels birinchi marta «Maymunning odamga aylanishida mehnatning roli» asarida inson antropogenez jarayoni mahsuli ekanini asoslab berdi. Marks, Engelsning eng katta yutug'i – inson to'g'risidagi dialektik kontseptsiyaning yaratilganidir. Ushbu kontseptsiyaga muvofiq, jamiyat qanday bo'lsa, o'sha jamiyatga shakllangan inson qiyofasi ham shunday bo'ladi. Shuning uchun ham inson qiyofasida mavjud bo'lgan yaxshi fazilatlar ham, yomon illatlar ham – jamiyat, unda mavjud bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlari bilan bog'liq.

XIX asrning 40-50 yillaridan boshlab klassik falsafaga qarama-qarshi noklassik falsafa shakllana boshladi. Bu falsafa ekzistentsializm, personalizm, neopozitivizm, pragmatizm, kosmizm falsafiy oqimlarida o'z ifodasini topdi.

Ekzistentsializm falsafiy oqimi shular jumlasidandir. Daniyalik faylasuf Kergor (1813-1855 y.) insonni taxlil qilish maqsadida «ekzistentsiya» tushunchasini kiritdi. Insonni, uning ichki dunyosini bilishga ilmiy metodni qo'llab bo'lmaydi. Yashash bu – «ichki dunyo». Yashash – ichki dunyo insoning betakrorligini ko'rsatadi. Yashash deganda Kerkegor mavjudlik tomon borishni tushunadi va uni uch bosqichdan iborat, deb biladi:

Birinchi bosqich – estetik bosqich.

Ikkinchisi - ahloqiy bosqich.

Uchinchisi – diniy ekzistentsiya.

Birinchi bosqich zaminida yashash, chuqur-halovatga qiziqish, inson ehtiyojini qondirish yotadi. Bunda yashash yo'lini tanlash eng oddiy shaklda bo'ladi, chunki ob'ekt inson his-tuyg'ularini qondirish asosida tanlanadi. Ikkinchi, axloqiy bosqichda inson o'zini-o'zi anglaydi, o'z ma'suliyatini his qiladi.

Yashashning xaqiqiy ma'nosini inson uchinchi – diniy bosqichda his qila oladi. Inson azob chekig evaziga yashayotganini biladi.

Kerkegor fikricha ekzistentsiya deganda inson borlig'ining mavjudlik usuli, mohiyati emas, balki inson shaxsining bilib bo'lmaydigan, takrorlanmas holatlari nazarda tutiladi. Uning ekzistentsialistik qarashlari «yoki-yoki», «Qo'rquv va titroq», «o'lim kasali» asarlarida bayon etilgan.

Ekzistentsializm falsafasi XX asrning boshlarida Germaniyada vujudga keldi.

Ekzistentsializm falsafasida inson muammosiga o'ziga xos yondashuv aks etgan. Agar klassik falsafada insonning mohiyati aql-zakovati asosida talqin qilingan bo'lsa, bu yo'nalishda inson erki haqida fikr yuritiladi.

XIX asrning noklassik falsafasiga inson muammosini olib kirishda mashhur nemis faylasufi Nitshe (1844-1900 y.) o'rni katta. U xalq ya'ni barkamol inson to'g'risidagi qarashlarni ilgari suradi. Nitshe fikricha, inson bolasida xoliqlik va maxluqlik bor butun holda uyushadi. Nitshe inson chinakkam komillik darajasiga ko'tarilmog'i uchun avvalo mahluqlarga xos qiliqlardan xoli bo'lmog'i darkor, deb hisoblaydi.

Ekzistentsiolizm falsafasining asosiy g'oyalaridan biri shuki, insoning xususiyati – u o'zini o'zi yashaydi, mavjud bo'la turib, mohiyatini bunyod etadi. Mabodo individ inson darajasiga ko'tarilganida uning ongi va faoliyatida nuqsonlar mavjud ekan, bunga, avvalo, o'zi aybdor. Chunki insonning tabiati u yaralgunga qadar mavjud bo'lmaydi va individning o'zidan boshqa hech qanday kuch uni insonga aylantira olmaydi. Bunday g'oyani ilgari surish bilan ekzistentsial falsafa insonning shakllanishida uning o'zi mas'ul ekanligiga e'tibor qaratadi. Ekzistentsializm inson faoliyatining ratsional tomonlariga diqqat qaratadi. Xususan, inson faoliyatida turli konfliktlar sodir bo'lganda aql-zakovat hukmiga quloq solish, aql kuchi bilan har qanday vaziyatdan chiqish – inson amaliy faoliyatining muxim sharti ekanligini ta'kidlaydi. Oddiy insonning «xushyor hisob-kitoblari», eng og'ir damlarda o'zi bilan o'zi maslahatlashishi uni turli fojea va dahshatlardan saqlab qoladi. Demak, o'z ekzistentsiyasini topgan kishining qiyinchilikni matonat bilan yengishiga jasorati yetadi.

Hozirgi zamon fani ma'lumotlariga qaraganda odam deb ataluvchi yagona biologik turga mansub tirik mavjudotning insonga aylanishi uzoq davom etgan evolyutsion jarayondir. Mutaxassislarning fikrlariga ko'ra bu jarayon 3-3,5 mln yil davom etgan. Insonning faoliyati, turmush tarzi zamonlar o'tishi bilan o'zgarib borgan. Shu o'zgarishlarning turli-tumanligi insonlarning bir-biridan farq qilishi uchun asos vazifasini bajargan. Faoliyatning, turmush tarzining turli tumanligi insonlarning birini ikkinchisidan farq qiluvchi belgisi hisoblangan.

Insonning olamdagi boshqa mavjudotlardan farq qiluvchi muxim xususiyatlari nimalardan iborat? Insonning hayoti, faoliyati, uning irsiy-genetik xususiyatlari tabiiy-ijtimoiy muxit ta'siriga bog'liqmi? kabi savollarga olimlar haligacha javob izlaganlar. Xo'sh, insonning olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan farqini ko'rsatuvchi eng muxim xususiyatlar nimalardan iborat?

Birinchidan, inson olamdagi boshqa tirik mavjudotlardan xotirasi, tafakkuri, tili borligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, til inson avlodlari va ajdodlari orasidagi aloqada vorislik vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, insonning insoniyligini belgilovchi eng muxim xususiyat – madaniyat. Insonning o'z faoliyatini tartibga solish, yo'naltirishi – madaniyat. Ma'lum bir jamiyatga birlashib yashashi – madaniyat. Uning faoliyatini ma'lum bir maqsadga yo'naltiruvchi omil – madaniyat.

Uchinchidan, insonning hayvonan farq qiladigan eng muxim xususiyati - o'zining yashashi, turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lishi.

Fan nuqtai nazaridan insonga nisbatan «inson eng aqlli mavjudot», «inson o'zini o'zi anglovchimavjudot», «inson-ma'naviy mavjudot» degan fikrlar ishlatiladi. Odamning insonga aylanishi va jamiyatga birlashishi antroposotsiogenez jarayonining natijasidir. Antropogenez jarayonida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiiy muhitni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratadi, o'zini ham o'zgartiradi. Mehnat antropogenez (ya'ni odamning shakllanishi) va sotsiogenez (jamiyatda yashash, inosnga aylanish) jarayonining markaziy omilidir.

Antroposotsiogenezning ikkinchi muhim omili-til.

Antroposotsiogenezning muhim omili insonni inson ishlab chiqarishdir.

Antroposotsiogenezning muhim omili-ijtimoiy-axloqiy me'yorlar va normalarning vujudga kelishi.

Odamning dastlabki ajdodi «paleantrop) ovchilik, termachilik faoliyatidan ishlab chiqarish faoliyatiga o'ta boshladi. Bu odam o'zida insonga xos ijtimoiy fazilatlarni mujassamlashtiraytganidan dalolat beradi.

Inson antroposotsiogenez jarayonining mahsuli ekanligini hozirgi zamon Fani ham tasdiqlamoqda. Shuning uchun insondagi tabiiylik bilan ijtimoiylik orasidagi aloqadorlikni bilish muhim ahamiyatga ega.

Inson uchta buyuk qudrat: tana-ruhiyat-ma'naviyatning yig'indisidir. Insonning biologik holati deganda uning jismida sodir bo'ladigan morfofiziologik, genetik, elektroximik o'zgarishlar, yoshi, irqi, jinsini ifodalovchi alomatlar tushuniladi.

Insonning ruhiy (psixologik) holati – uning his-tuyg'ulari, kayfiyati, irodasi, temperamenti.

Insonning ma'naviyati-uning fazilatlari xislatlari, qobiliyatlari, malakalar yig'indisi. Aynan ma'naviyat insonning ijtimoiy qiyofasini vujudga keltiradi.

Falsafa kursining natropologiya bo'limida odam-inson-individ-shaxs tushunchalari ustida to'xtalib o'tgan edik. Odamning ijtimoiylik xislati shaxsdir. Shaxs tushunchasida insonning jamiyatda tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari aks etadi.

Shaxs, avvalo, yaxlit jamiyatning alohida bo'lagi, unda mavjud ijtimoiy munosabatlar jamuljam bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson o'z ichki dunyosi va manfaatlariga ko'ra boshqalardan farqlanadiva asta-sekin jamoa a'zosidan shaxs darajasiga ko'tarilib boradi.

Inson individ sifatida dunyoga keladi, shaxs bo'lib shakllanadi. Insonning shaxs bo'lib shakllanishida jamiyat ijtimoiy muhit muhim o'rin tutadi.

Shaxs tushunchasida mazkur insonning barcha ijtimoiy vazifalari, barcha munosabatlari ifodalandi. Inson amaliy faoliyat jarayonida shaxs sifatida shakllanib boradi. Shaxs ijtimoiy ahamiyatli xislat va fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson. Shaxsning xislatlari uning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladi. Shaxsning xislatlari deganda a) jismoniy; b) ma'naviy; v) ijtimoiy xislatlar nazarda tutiladi.

Shaxsning jismoniy xislat-fazilatlari deganda uning jismi, gavda tuzilishi, kiyinishi, uy-oilasi, u tomonidan yaratilgan ja'mi narsalar o'zini muxofaza qila olish, o'zi va boshqalar haqida qayg'urishi nazarda tutiladi..

Shaxsga xos ijtimoiy xislatlar boshqa kishilar bilan bo'ladigan o'zaro aloqa va munosabatlarda shakllanadi. Shaxsning turli ijtimoiy birliklar-guruhlardagi rollari turlicha bo'ladi. Masalan «ona», «farzand», «qo'shni», «do'st», «xaridor».

Shaxsning ma'naviyati, uning ichki olami, ruhiyati, «men» ligi ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs mohiyatini ifodalovchi bu tomonlar yaxlitlikda namoyon bo'ladi va insonning «men» ini ifodalaydi.

Shaxsning shakllanishi jamiyatda to'plangan tajribalarni, qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

- a) insonning o'ziga xos biologik xususiyatlari
- b) ijtimoiy muhit

ijtimoiy muhit deganda inson hayoti kechadigan jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, informatsion ma'naviy shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Ijtimoiy muhit-bu jamiyat, ijtimoiy muhit, oila, mehnat va o'quv jamoalari, qo'ni-qo'shni, do'st-birodarlar nazarda tutiladi.

Ijtimoiy muhitning muhim tomonni jamiyatda mavjud siyosiy tizim tashkil etadi. Jamiyat siyosiy tizimining xarakteri shaxs qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratishi mumkin.

Shaxs muammosining muhim tomonidan bir-shaxs tipologiyasi masalasidir.

Bajaradigan vazifalariga ko'ra shaxslarni a)siyosiy, b) estetik, v) iqtisodiy, g) diniy, d) ijtimoiy tiplarga;

Ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra:

a) fan yoki san'at namoyondalari

b) tafakkur sohiblari

v) kuchli hissiyot sohiblari

g) insonparvarlar, birinchilar tiplariga;

Tsivilizatsion nuqtai nazardan:

a) sharqqa xos shaxs tiplariga;

Psixenergetik xususiyatlariga ko'ra:

a) yuksak psixenergetik xislatli (agressiv) shaxslar

b) pastenergetiklik xislatli o'z dunyosiga g'arq bo'lgan, muloqotga kirishavermaydigan shaxslar, o'ziga ishonmaydigan shaxslar, xafaqon, g'amgin shaxslar

v) sharoitga qarab tez o'zgaradigan shaxslar tipi

Shunday qilib, odam – tabiatdagi oliy biologik tur. Bu tur uzoq taraqqiyot jarayonida insonga aylanadi.

Jamiyatda muayyan o'rin tutgan, ijtimoiy munosabatlarga kirisha oladigan, o'zligini va jamiyatni, o'zining jamiyatdagi o'rnini anglagan inson-shaxs hisoblanadi.


Sxema 1.


Sivilizatsiyali taraqqiyot



Tsivilizatsiyaga qadar taraqqiyot davri

Sivilizatsiyali bosqichlari





agrар industrial Axborot-
yovvoyillik varvarlik lashgan kom-
davri davri pyuter sivil.

Nikolay Danilevskiy (1822-1885 y.) madaniy-tarixiy taraqqiyot (tsivilizatsiya)ning tiplarini faoliyat turlari asosiga qurgan. Uning fikricha, sivilizatsiya faoliyatining eng muhim to'rt turi: a) diniy; b) madaniy; v) siyosiy; g) iqtisodiy-siyosiy tiplarda namoyon bo'ladi. Xuddi tirik organizmlarda bo'lgani singari jamiyatning madaniy-tarixiy tiplari o'zaro bir-biri va tashqi muxit bilan kurashadi va xar bir tip to'rt bosqichni o'z boshidan kechiradi: tug'ilish, kuchga to'lish, keksayish va xalokat (degradatsiya). Olim madaniy-tarixiy taraqqiyot qonunlari xaqida fikr yuritadi.

Nemis olimi Osvald Shpengler (1890-1936 yillar) umuminsoniy madaniyat yo'q, alohida, boshqalardan farq qiladigan madaniyat bor, deb hisoblaydi. U insoniyat tarixida 8 madaniyat turi: Misr, Xind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Arab, G'arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini ko'rsatgan. Har bir madaniy organizm muayyan bir davr mobaynida mavjud bo'ladi (taxminan ming yil), so'ng sivilizatsiyaga aylanadi va xalok bo'ladi. Madaniyatning xar bir turi o'zining chuqur mazmuniga ega va insoniyat tarixida muxim o'rin tutadi, madaniyatlar taqdiri, tili va qalbini anglay bilish tarixni anglashdir, deb hisoblaydi olim.

Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali, yondoshuv vakili ingliz olimi Arnold Toynbi (1889-1975 yillar) bo'lib hisoblanadi. Tarix, deb fikr yuritadi olim, alohida o'ziga xos sivilizatsiyalar tarixidan iborat. Toynbi sivilizatsiyani dinamik xarakterga ega, deb biladi. Har bir sivilizatsiya shakllanish, taraqqiyot, tanazzul, yemirilish tarixiy bosqichlarini o'z boshidan kechiradi va o'z o'rnini yangi sivilizatsiyaga bo'shatib beradi. Arnold Toynbi ijtimoiy taraqqiyotning sabablaridan biri deb ma'naviy yuksalishni ko'rsatadi. Olim sivilizatsiyalar orasida O'rta Osiyo sivilizatsiyasiga alohida o'rin ajratgan. U o'zining «Tarixni bilish» asarida sivilizatsiyaning 13 tipini ajratib ko'rsatgan. Ijtimoiy taraqqiyot, tarixning moxiyati muammosi XIX asr oxiri va XX asrda nemis faylasufi Karl Yaspers

amerikalik olimlar Olvin Toffler va Fransis Fukuyama qarashlarida o'z ifodasini topgan. Nemis faylasufi Karl Yaspers (1883-1969 yillar) 1949 yilda nashr etilgan «Tarixning ma'nosi va vazifasi» asarida jamiyatning ob'ektiv qonunlari mavjudligini inkor etadi. U ijtimoiy taraqqiyot xaqida «Jahoniy vaqt o'qi» g'oyasini ilgari suradi va jahon taraqqiyotining bir-biridan farqlanadigan to'rt davrning ko'rsatib o'tadi. Dastlabki ikki davrda odamlar tilga ega bo'ldi, mehnat qurollarini yaratdi va olovni kashf etdi. Buning natijasida miloddan avvalgi 5-3 ming yilliklarda Xindiston, Xitoy, Misr, Mesopotamiya madaniyati shakllandi.

Uchinchi davr miloddan avvalgi 8-2 asrlar – Yunonistondan Xitoyga ma'naviy yuksaklik qaror topdi. Bu davr cheksiz imkoniyatlarni vujudga keltirdi. To'rtinchi davrni 17-20 asrlarda Yevropada ilmiy-texnik sivilizatsiyasining qaror topish davri bo'ldi, deb ta'riflaydi olim.

Amerikalik olim Frensis Fakuyama ijtimoiy taraqqiyot xaqida «tarixning intiqqan» g'oyasini ilgari surdi. U tarixning intiqosida jamiyat va davlat inson uchun maqbul shaklga kela biladi, jamiyatda liberal g'oyalar g'alaba qozonadi. Jamiyatni tashkil etilishining eng maqbul yo'li – liberalizmdir, deb xisoblaydi. Olim insoniyat tarixining mohiyatini jamiyat a'zolarining barcha manfaatlarini qondira oladigan, barcha asosiy ziddiyatlar yechimini ta'minlay oladigan jamiyat qurish tashkil etadi, degan xulosaga keladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning muxim muammolaridan birini uning qay tarzda kechish muammosi tashkil etadi. Ijtimoiy taraqqiyot dialektik ziddiyatli jarayon, uning oqibatida eski, avvalgi jamiyatning o'rnini yangi jamiyat egallaydi. Demak, jamiyat taraqqiyoti uning bir sifat bosqichidan ikkinchisiga o'tishdir. Bunday o'tish o'z xarakteriga ko'ra ikki turda namoyon bo'ladi.

- 1) Evolyutsion taraqqiyot;
- 2) Inqilobiy taraqqiyot.

Evolyutsiya lotincha *evolutio* so'zidan olingan bo'lib, rivojlantirish, avj oldirish ma'nolarini anglatadi. Evolyutsion o'tish tadrijiy rivojlanish usuli hisoblanadi. Bunda ijtimoiy taraqqiyot asta-sekinlik bilan sodir bo'ladi. Jamiyat taraqqiyotining inqilobiy yo'li uning bir sifat bosqichidan ikkinchisiga portlash yo'li bilan, zo'rlik yo'li bilan o'tishdir. Inqilob arabcha so'z bo'lib, ag'darilmoq, ko'tarilmoq ma'nolarini ifodalaydi. Inqilob jamiyat taraqqiyotining bosqichma-bosqich, tadrijiylik xolatidan keskin sifat o'zgarishlariga o'tish jarayonlarini anglatadi. Jamiyatning bir holatidan ikkinchisiga portlash yo'li bilan o'tishi sotsial inqiloblar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy inqilob jamiyat xayotining barcha sohaları – iqtisodiy, ijtiomiy, siyosiy, ma'naviy xayotdagi keskin burilishlarni,

keskinsifat o'zgarishlarini keltirib chiqaradi. Ijtimoiy inqilob deb siyosiy tizimni zo'rlik bilan ag'darib tashlash nazarda tutiladi. Ulug' mutafakkirlar inqilob vayrongarchilikka asoslangan odamlarning moddiy va ma'naviy asoslariga zarar yetkazadigan, kadriyatlarni yo'q qiladigan ijtimoiy xodisa ekanligini ko'rsatganlar.

O'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining evolyutsion yo'lini tanlab oldi. Bu yo'l ijtimoiy taraqqiyotning «o'zbek modeli» nomi bilan mavjud. Bu yo'l mohiyati Respublika Prezidenti I.Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asarida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Taraqqiyotning «o'zbek modeli» ijtimoiy larzalarsiz, inkilobiy sakrashsiz, o'zimizga xos tadrijiy yo'ldan borish, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi.

13-Mavzu. Jamiyat va shaxs

Reja:

1. Jamiyat va shaxs.
2. Jamiyatning shaxsga ta'siri.
3. Shaxsning jamiyatga ta'siri.
4. Mustaqil shaxs.

Tayanch tushunchalar:

Shaxs, mustaqil shaxs, erkinlik, ma'suliyat, qaramlik

Adabiyotlar:

I. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., «O'zbekiston» 2001 yil.

Islom Karimov. Inson xuquqlari, erkinliklari xamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. – T., «O'zbekiston» 2005 yil. Gazetalar: «Xalq so'zi» 2005 yil 8 dekabr.

Ibroxim Karimov. Falsafadan va'z matnlari. – T., 2003 yil, 104-111 betlar.

S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS» 1998 g., str. 284-303.

O.G.Danilyan, V.M.Garanenko. Filosofiya – Moskva, EKSMO, 2005 yil, 375-383 betlar.

Anvar Choriev. Inson falsafasi. II kitob. Mustaqil shaxs. – T., «Chinor» 2002 yil.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyat va shaxs orasidagi dialektik aloqadorlikni qanday tushunasizq
2. Odam, inson, individ, shaxs tushunchalariga ta'rif Bering, ular orasidagi munosabatni taxlil eting.
3. Jamiyat bilan shaxs orasidagi munosabatlar haqidagi falsafiy fikrlar.
4. Fangalizm nimaq
5. Volyuntarizm falsafiy yo'nalishida jamiyat bilan shaxsning munosabati kanday asoslanganq
6. Shaxsning tarixiy tiplarga ajralishining asosiy omillari, deganda nimani nazarda tutasizq
7. «Erkin shaxs» tushunchasini ta'riflang.
8. Shaxs erkinligi va ma'suliyati haqida nimalar Deyo olasizq

Jamiyat va shaxs munosabatlari falsafa tarixida turlicha taxlil qilingan. Aslida jamiyat va shaxs munosabatlari odam va olam munosabatlarining bevosita davomi. Odam zoti jamiyatda, ijtimoiy omillar ta'sirida shaxs bo'lib shakllanadi.

Odam tabiatdagi eng oliy tur, tabiat evolyutsiyasining maqsuli. Unda odam zotiga xos barcha xususiyatlar jamlangan. Odam evolyutsion taraqqiyot jarayonida inson sifatida shakllangan. Jamiyat, ijtimoiy munosabatlar uning inson sifatida shakllanishiga olib kelgan. Inson – jamiyatlashgan (ijtimoiylashgan) odam. Inson – ijtimoiy-tarixiy mavjudot. Ana shu xususiyati bilan barcha boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Undagi barcha xislatlar, fazilatlar tarixiy taraqqiyot tufayli vujudga kelgan. Individ o'ziga xos xislatlari bilan boshqalardan farqlanadigan, aloqida olingan odam. Individning o'ziga xos xislatlariga: a) uning tabiati; b) ruhiy qolati (xarakteri, temperamenti, xayoloti, xotirasi); v) o'ziga xos fikrlar tarzi kiradi. Individning o'zigagina xos xislatlari – individuallik

tushunchasida ifodalanadi. Individuallik: a) odamning boshqalardan farqli, faqat o'zigagina xos xossa-xislatlari, xususiyatlari; b) insonga xos qobiliyatlar, talantda namoyon bo'ladi. Individuallik qar bir insonning qayoti, turmush tarzi, uning faoliyatining barcha soqalariga taalluqli. Individuallik aloqida olingan insonning aniq xatti-qarakatlari, malakasi, layoqati, odat va ko'nikmalarini ifodalaydi. Ayni vaqtda individuallik insondagi betakrorlikdir. Insondagi betakrorlik: a) uning taraqqiyotining individual bosqichida; b) shaxs bo'lib shakllanishida namoyon bo'ladi. Insoning individual taraqqiyoti bosqichi ibtidoiy tuzilishga to'qri keladi. bu bosqichda inson o'ziing jismoniy mavjudligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Individning barcha extiyojlari faqat uruq jamoasida qondiriladi. Uruq jamoasining yemirilishi, ijtimoiy mexnat taqsimoti, xususiy mulkchilik, oilaviy munosabatlar insonning individdan ikkinchi yangi shaxs bosqichiga o'tishiga imkon yaratadi.

Shaxs tushunchasida, avvalgi mavzuda ko'rib o'tganimizdek, insonning jamiyatdagi o'rni, bajaradigan vazifalari ifodalanadi. qar bir shaxs – inson, lekin qar bir insonni shaxs, deb atay olmaymiz. Shaxsning shakllanishi ibtidoiy qayotning yemirilishi, xususiy mulkning paydo bo'lishi, kishilar orasida yangicha ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va taraqqiyoti bilan boqliq. Shaxs o'ziga xos ijtimoiy xislatlarga ega bo'lgan, qobiliyati, ongliligi, mexnat va ijtimoiy-siyosiy faolligi bilan jamiyatga ta'sir ko'rsatadigan odam. Shaxs yaxlitlikni tashkil etuvchi jamiyatning aloxida bo'lagi, unda jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy munosabatlar jamuljam. Shaxs bir-biridan o'z ichki dunyosi va ijtimoiy manfaatlariga ko'ra farqlanadigan odam. Jamiyat va shaxs orasidagi munosabat murakkab xarakterga ega b.lib, bu jarayon jamiyatning insonga va insonning jamiyatga ta'sirida namoyon bo'ladi.

Jamiyatning shaxsga ta'siri masalasi ijtimoiy fikr tarixida xilma-xil qarashlarni keltirib chiqargan. Ingliz faylasufi Djon Lokk (1632-1704 y.) inson tugilganda, uning ongi «toza taxtachaga» o'xshaydi. Yomon ijtiomiy muxit yomon narsalarni yozadi va yomon odamning shakllanishiga olib keladi. yomon odam yomon muxitni yaxshilay olmaydi, deb xisoblaydi.

Feyerbax insonning ongidagi o'zgarish jamiyatning o'zgarishiga sababchi bo'ladi, deb xisoblaydi

Jamiyatning insonga ta'siri, avvalo uning shaxs bo'lib shakllanish jarayonida aks etadi.

Jamiyat shaxsning shakllanishi jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatning shaxsga ta'siri:

- a) megamuxit;
- b) makromuxit;
- v) mikromuxit darajasida amalga oshadi.

Megamuxit insoniyat dunyosi, davr muxitining insonga ta'siri.

Makromuxit inson qayot kechirayotgan jamiyat, mamlakat.

Mikromuxit insoni o'rab olgan, unga bevosita ta'sir ko'rsatadigan muxit (oila, meqnat jamoasi). Shaxsning jamiyatga ta'siri ijtimoiy muxitning turli ko'rinishlarida turlicha kechadi. Shaxsning jamiyatga bevosita ta'siri mikromuxitda namoyon bo'ladi. Makro va megamuxitga ta'siri u mansub bo'lgan ijtimoiy guruq, millatning ta'sirida namoyon bo'ladi. Shaxsning jamiyatga ta'sirining miqyosi uning qanday shaxs ekanligiga boqliq bo'ladi. Shaxslarning ularga xos xususiyatlarga ko'ra:

- a) oddiy;
- b) talantli;
- v) buyuk;

g) geniy turlarini ko'rsatish mumkin. oddiy shaxsning jamiyatga ta'siri asosan tor doirada – mikromuxitda bevosita seziladi. Buyuk shaxslar, tarixiy zotlar, geniylar o'z faoliyati bilan jamiyatga ta'sir etishi, uning xayotida chuqur iz qoldirish sub'ekti darajasiga ko'tariladi. Tarixiy taraqqiyot, uning yo'nalishiga buyuk shaxslar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadilar.

Jamiyat va shaxs orasidagi aloqadorlikka ijtimoiy-tarixiy nuqtai-nazardan yondoshmoq lozim. bu narsa, bir tomondan shaxsning jamiyatga ta'siri turli davrlarda o'ziga xos namoyon bo'lishini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, jamiyat turli davrlarda shaxs oldiga turli vazifalarni qo'yadi. Shunga ko'ra, Sharq madaniyatida donolik, botirlik, kamtarlik odillik qadrlangan, qadimiy Yunonistonda aqliy barkamollikka erishish yuksak baqolangan. Sanoatlashgan jamiyatda tadbirkorlik, tashabbuskorlik qadrlangan.

Jamiyat bilan shaxs orasidagi aloqadorlik shaxsining tarixiy tiplarida o'z ifodasini topadi: Shaxsning tarixiy tiplari deganda: a) shaxsiy qaramlik; b) shaxs mustaqilligi; v) erkin shaxs nazarda tutiladi.

Shaxsiy qaramlik insoniyat jamiyati taraqqiyotning quyi bosqichlariga xos. Ibtidoiy jamiyatda shaxsning extiyohlari, faqat jamoa vositasida qondirilgan.

Demak, u jamoaga qaram. Arxaik jamiyatlarda xali inson shaxs bo'lib shakllanmagan. Bu taraqqiyotning individ bosqichi, deb yuritiladi. quldorlik, feodalizm tuzumida shaxs o'z xo'jayinlariga qaram. Mulk egalari bu jamiyatlarda qaramlik sub'ekti bo'lib qisoblanadilar. Shaxsiy qaramlikni ishlab chiqarish usuli bilan boqliq. Dastlab, sivilizatsiyaga qadar faqat o'zlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish usuli mavjud edi. Keyinchalik agrar sivilizatsiya davrida (quldorlik, feodalizm) shaxs mulk egasiga qaram bo'lib qoldi. Bu qaramlik quldorlikda – batamom qaramlikni, feodal jamiyatda esa qisman qaramlikni ifodalay edi. Insonni shaxsga aylantirish jarayoni uning ma'lum darajada o'zini o'zi asoslash, ehtiyojlari doirasining kengayishi, ma'naviy ehtiyojlari bilan boqliq edi. quldorlik, feodalizm davrida xosil qilingan qo'shimcha mahsulotlar ma'naviy ehtiyojlarni qondirish uchun yetarli emas edi.

Shaxs bilan jamiyat orasida o'zaro munosabatning ikkinchi bosqichi kapitalizm davrida tovar ishlab chiqarish bilan boqliq. Bu bosqich moddiy qaramlikka asoslangan shaxs mustaqilligi, deb yuritiladi. Bir tomondan, kapitalizm davrida jamiyatga kasb-qunarni erkin tanlay oladigan, bir joydan ikkinchi joyga ko'cha oladigan erkin ishchi kuchi kerak. Shu bilan bir qatorda erkin mehnatkash o'z ish kuchini narsa, tovar sifatida sotmoqi va uning o'rniga o'ziga kerak bo'ladigan narsalarni erkin olmoqi lozim. bu ishchi kuchi tovarga aylanganligidan dalolat beradi.

Erkin shaxs postindustrial jamiyatga o'tish jarayonida shakllana boshladi. Bu jamiyatda bilim, axborot, kasbiy maqorat ustuvor qisoblanadi, xizmat ko'rsatish soqalari jadal rivojlana boshlaydi. qudratli moddiy-texnik baza, taraqqiy etgan ishlab chiqaruvchi kuchlari bo'lgan bilan bunday jamiyat shaxs taraqqiyotining moddiy va ma'naviy omillari yetilgan bo'ladi. Ochiq, erkin jamiyat erkin shaxsning shakllanishi uchun bo'lgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratadi. Shaxs faqat ochiq, erkin jamiyatdagina erkin bo'la olishi mumkin. Shuning uchun qam mustaqillikka erishgan, demokratik taraqqiyot yo'lini tanlab olgan davlat va jamiyatda inson eng oliy qadriyatga aylanadi.

Jamiyat va shaxslar orasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar taxlili shundan dalolat beradiki, jamiyatning sivilizatsiyali taraqqiyoti shaxs rolining tobora o'sib boruviga olib keladi. Bu qol shaxs erkinligi bilan ma'suliyati masalasini dolzarb masalaga aylantiradi. Shu munosabat bilan erkinlikning o'zi nimaq Erkin shaxs qanday shaxsq Kabi savollarga javob topish lozim bo'ladi. Avvalo Erkin shaxs deganda mustaqil shaxs nazarda tutiladi. Mustaqil shaxs mustaqil fikrlash, ishlash, yashash malakasiga ega bo'lgan odam.

Shaxs mustaqilligini ta'minlovchi eng muxim kafolatlaridan biri – insondagi erkinlik va ma'suliyat tuyqularining uyqunlashganidir. Erkinlik muammosiga faylasuflar o'z munosabatlarini bildirganlar. Rus faylasufi N.Berdyayevning fikricha, erkinlik tufayli inson tanlash, saralash imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin faqat tanlashning o'zigina erkinlikni ta'minlab bera olmaydi. Xaqiqiy erkinlik ifodkorlikni taqazo etadi. Inson erkinligini ijodkorlikdan, bunyodkorlikdan ajratish mumkin emas.

Deterministik kontseptsiya tarafdorlari erkinlik insonning ob'ektiv zaruriyatni anglab olish qobiliyati, deb tushunadilar. Erkinlik tanlash uchun imkoniyat mavjud bo'lgan joyda vujudga keladi. Erkinlik insonning o'z maqsadlariga erishishining muxim omili, uning uchun berilgan imkoniyatdir. Erkinlik tushunchasining luqaviy ma'nosi kishining o'z istagi bo'yicha ish ko'rishdir.

Erkinlik, shaxs erkinligi volyuntarizm va fatalizm falsafiy yo'nalishlarining bosh masalasidir. Fatalizm lotincha fatalis – taqdirga oid, degan ma'noni anglatadi. Pifagorchilar, Demokrit, Nitsche fangalizm namoyondalari xisoblanadi. Fatalizm kalom falsafasining eng muxim aqidalaridan biridir. Fatalizm xar bir xodisa va insonning barcha xatti-qarakatlari taqdiri – azalga boqliq, deb qisoblaydi. Fatalizm inson xech narsani o'zgartira olmaydi, barcha narsa, xodisa, jarayonlar mazmuni, yo'nalishi, okibatlari oldindan belgilangan, degan qoyani ilgari suradi va bu bilan insonni xech qanday faoliyat ko'rsatmaslikka, passivlikda, qismatga buysundirishga chaqiradi.

Volyuntarizm lotincha voluntas – iroda, degan ma'noni ifodalaydi. Volyuntarizm nuqtai-nazarning yirik vakili Shopengauer xisoblanadi. Volyuntarizm falsafasi qadimdan ilgari surilgan. Xristianlik falsafasining yirik vakili Avgustin talimotida aks etgan. Volyuntarizm – iroda, shaxs irodasini birlamchi, debe'tirof etadi. Bu nuqtai-nazar tarixiy jarayoni aloqida shaxslarning sub'ektiv xoxishlariga asosan amalga oshadi, degan qoyaga asoslangan.

Fatalizm xam, volyuntarizm xam jamiyat va shaxs orasida munosabatlar masalasiga sub'ektiv yondoshadi. Mustaqil shaxsga xos asosiy xususiyat erkinlikdir. Erkinlik tushunchasining luqaviy ma'nosi kishining o'z istagi bo'yicha tushunishdir. Erkinlik jamiyat xayotining turli soqalari bilan bevosita boqliq. Shunga ko'ra erkinlik deganda:

a) iqtisodiy erkinligi;

b) siyosiy erkinlik;

v) ma'naviy erkinlik nazarda tutiladi. Iqtisodiy erkinlik, bu avvalo majbur qilish, ekspluatatsiyadan fukalikdir. Ayni vaqtda iqtisodiy erkinlik deganda, inson ijtimoiy mexnatning turini tanlab olishda, mulkka munosabatida va qaerda faoliyat ko'rsatilishini tanlab olishda namoyon bo'ladi. Bunda shaxs xam o'z intilishlari, xam real jamiyatning real imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

Siyosiy erkinlik xayot kechirish uchun zarur xuquq va erkinliklarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Taraqqiy etgan jamiyatda davlat insonning xaq-xuquqlarini kafolatlaydi.

Saylash – saylanish xuquqi, adolatli davlat tizimi, xalqning davlat axamiyatiga molik masalalarni xal qilishdagi ishtiroki, ya'ni demokratik xuquq va erkinliklardan foydalanish siyosiy erkinlik tushunchasida ifodalanadi.

Ma'naviy erkinlik deganda, avvalo, vijdon erkinligi, jamiyat ma'naviy xayotida ishtirok etish, ma'naviy boyliklardan baxramand bo'lish, ijodning u yoki bu turi bilan shuquullanish, so'z erkinligi kabilar nazarda tutiladi. Erkinlik ma'suliyat, javobgarlik bilan bevosita boglik. Erkinlik va ma'suliyat inson faoliyatinnig o'zaro uzviy boqlii ikki tomonini tashkil etadi. Ma'suliyat avvalo, javobgarlik ma'nosini ifodalaydi. ma'suliyat ijtimoiy aqamiyatli burch va vazifalarning bajarilishi, muayyan axloqiy tamoyillarga rioya qilish bo'yicha shaxsning jamiyat a'zolari oldidagi javobgarligi. Erkinlik kabi ma'suliyat xam xilma-xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Siyosiy, xuquqiy, axloqiy ma'suliyat, shaxs ma'suliyati, jamoa ma'suliyati va x.k. shular jumlasidandir.

Ma'suliyat jamiyat, jamoa, ijtimoiy gurux tomonidan shaxsga qo'yiladigan talablar asosida shakllanadi. Bu talablarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi uning xatto-qarakatlari, faoliyatida namoyon bo'ladi. Shaxsning shakllanishida ma'suliyat xissini tarbiyalash muxim o'rin tutadi. Ma'suliyat shaxsining jamiyat manfaatlarini qay darajada chuqur anglay olishni nazarda tutadi. Erkin shaxs avvalo jamiyat manfaatlarini anglagan, jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini chuqur xis eta oladigan inson. Jamiyat xayot iva taraqqiyoti inson faoliyatining maxsuli va ko'rinishi ekan, inson qanchalik ma'suliyatni chukur xis eta olsa, shunchalik u ongli faoliyat ko'rsata oladi.

Shaxs erkinligi ijtimoiy taraqqiyot omili qisoblanadi.

14-Mavzu. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektlari va harakatlantiruvchi kuchlari

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot, uning sub'ektlari.
2. Manfaat va ehtiyojlar ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi.
3. Xalq ommasi tarix ijodkori.
4. Milliy ozodlik xarakatlari va ijtimoiy taraqqiyot.

Tayanch tushunchalar:

Manfaat, extiyoj, buyuk shaxs, xalq, olomon, volyuntarizm, fatalizm

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. I.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» - T., «O'zbekiston» 1998 yil.
3. I.Karimov «Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barxayotdir» - Prezident I.Karimovning Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimidagi nutqi – «Guliston» nashr., 1997 yil 1.
4. S.E.Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS» 1998 yil 55-101, 335-354 betlar.

5. Vvedenie v filosofiyu. Chast 2-1 – Moskva, 1990 g., str. 466-479.
6. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya – Moskva, 1999 g., str. 311-328.
7. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil.
8. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq» nashr., 1999 yil, 299-300 betlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy manfaat, deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi nimadan iborat?
3. Tarixiy jarayonlarning sub'ekti deganda nimalar nazarda tutiladi.
4. «Xalq» tushunchasining tavsiflang.
5. «Xalq – tarix ijodkori» degan fikrni asoslang.
6. Volyuntarizm falsafiy qarashining mazmuni?
7. Fatalizm qanday oqim.
8. Jamiyat taraqqiyotida inson omilining tutgan o'rni.

Biz o'tgan ma'ruzada ijtimoiy taraqqiyot muammosi bilan tanishdik. Agar ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyotni kim amalga oshiradi, degan savol kelib chiqadi. Jamiyat taraqqiyoti kimga va nimaga bog'liq? Aslida ijtimoiy taraqqiyotning yuzaga kelishi ikki xil omilga bog'liq:

a) ob'ektiv shart-sharoitlarga;

b) sub'ektiv omilga muayyan tarixiy jarayonlar ob'ektiv shart-sharoitlar deganda tutiladi. Ma'lumki, tabiatdagi xar qanday o'zgarish o'z-o'zidan stixiyali tarzda ro'y beradi. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar esa kishilarning muayyan manfaatlarini ifodalaydigan ongli faoliyatlari natijasida sodir bo'ladi.

Jamiyatdagi xar qanday xarakat, o'zgarish, taraqqiyot asosida kishilarning extiyoj va manfaatlar yotadi. Jamiyatning moxiyatiga berilgan ta'rifni bir bor eslang. Kishilarning o'z extiyojlarini qondirish jarayonida boshqalar bilan aloqa-munosabatlarga kirishishlari oqibatida jamoa, ya'ni jamiyat kelib chiqqan. Extiyoj – manfaatlar jamiyatni xaraktaga keltiradigan qudratli kuch. Individlilar va guruhlarning faoliyatlari negizida ularning anglangan manfaatlar yotadi. Jamiyatning, alohida kishilar, ijtimoiy guruhlarning o'z manfaatlarini anglashlari vash u asosda faoliyatlari oqibatida ijtimoiy taraqqiyot yuzaga keladi. Ijtimoiy taraqqiyot sub'ektlari – o'z manfaatlar yo'lida ongli, muayyan maqsadga

yo'nalgan faoliyat olib boradigan xalq, millat, sinf, shaxslar, buyuk zotlardir. Ijtimoiy taraqqiyot sub'ektlarining ongli faoliyati sub'ektiv omil, deb yuritiladi. Ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omil deganda tarixni yaratuvchi kishilar faoliyati nazarda tutiladi. Tarixni kishilar yaratadi, lekin kishilarning faoliyati ob'ektiv shart-sharoitga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning mohiyati sub'ektlari, xarakatlantiruvchi kuchlari xaqidagi xilma-xil qarashlar ilgari surilgan. Volyuntarizm va fatalizm nazariyalari shular jumlasidandir. Volyuntarizm ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini inkor etadi va ijtimoiy taraqqiyotdagi xal qiluvchi narsa, bu – iroda. Iroda barcha mavjudotning asosi, degan qarashni ilgari suradi. Unga ko'ra, tarixiy jarayon uni amalga oshiruvchi sub'ektlarning xohish-irodasiga ko'ra modir bo'ladi. Bunday nuqtai nazar Germaniyada – G.Rikkert, M.Veber; Angliyada B.Rassel, A.Toynbilar tomonidan ilgari surilgan.

Fatalizm falsafiy yo'nalishi xar bir xodisa, insoniyatning barcha xayoti xarakatlarini taqdiriga bog'liq, deb qaraydi. Fatalizm jamiyat qonunlarini inkor etadi.

Tabiatda ob'ektiv qonunlar amal qilgani singari jamiyat qonunlarini xam inkor etib bo'lmaydi. Lekin, jamiyat qonunlari amal qilish xususiyatlarga ko'ra tabiat qonunlaridan farqlanadi. Jamiyat tabiiy-tarixiy jarayon bo'lib xisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti shuning uchun xam tabiiy jarayonki, u zaruriy tarzda kechadi. Tabiatda bo'lgani singari jamiyatda xam uzluksiz ravishda xarakat, o'zgarish, taraqqiyot sodir bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti shuning uchun xam tarixiy jarayonki, bu jarayon kishilar faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Kishilar o'z faoliyatlari bilan tarixni yaratadilar. Jamiyat tarixini yaratuvchilar, tarix g'ildiragini olg'a suruvchilar tarixning sub'ektlari bo'lib xisoblanadilar.

Tarixiy taraqqiyotning sub'ektlari deganda:

- a) xalq
- b) sinflar, millatlar
- v) Buyuk shaxslar nazarda tutiladi.

Tarixiy jarayonlarning sub'ekti xalq hisoblanadi. «Xalq» tushunchasi avvalo biron mamlakat yoki davlatning aholisi tushunchasini ifodalaydi. Xalq, elat, El, xaloyiq, bir guruh kishilar ma'nolarini ifodalaydi.

Xalq avvalo muayyan ijtimoiy birlikdir. Ayni vaqtda xalq etnik birlikdan yoki ijtimoiy-iqtisodiy, sinfiy birlikdan farqli xisoblanadi. Etnik birlik deganda

etnos, millat nazarda tutiladi. Xalq vakili xisoblangan individ muayyan etnosga mansub bo'ladi. Umuman olganda, xalq ko'pmillatli yoki yagona millatli bo'lishi mumkin. Xalq turli ijtimoiy guruhlardan tashkil topishi, murakkab ijtimoiy-sinfy tarkibiga ega bo'lishi mumkin.

Xalq ommasi o'ziga xos birlik sifatida boshqa birliklardan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi:

Birinchidan, umumiy taqdir asosida birlashgan kishilar. Yagona xududda istiqomat qilish, o'z davlatchiligiga ega bo'lishdek belgi xalqqa xos belgi xisoblanadi. Lekin xar doim ham bu belgi yaqqol namoyon bo'lavermaydi.

Ikkinchidan, xalq umumiy intilish, umumiy e'tiqod va g'oya yo'lidagi birlashuvni ifodalaydi. is'tedodga qarshi milliy ozodlik yo'lidagi birlashuvni misol sifatida keltirish mumkin.

Uchinchidan, xalq – tarixiy xotira va istiqbol yo'lidagi birlashuvdir. Xalq ommasi umumiy taqdir, tarixiy xotira, umumiy e'tiqod va g'oya, tarixiy taraqqiyot istiqbollari yo'lida birlashgan ijtimoiy yaxlitlikdir.

Xalq tushunchasi bilan bir qatorda olomon tushunchasi ham qo'llaniladi. O'zbek tilining izohli lug'atida olomon – o'z-o'zidan, stixiyali ravishda to'plangan odamlar, xaloyiq, deb ta'riflangan.

Xalqning shakllanishi murakkab bosqichli jarayon xisoblanadi. Bu jarayonning dastlabki, quyi bosqichi, omma, olomon bo'lib xisoblanadi. Olomon xali uyg'onmagan, o'zligini yetarli anglamagan omma.

Ko'p yillar davomida xalqni avomga, olomon yo'liga qaytarishga urinishlar bo'ldi. Majburan kollektivlashtirish, ommaviy qatag'onlar, byurokratik rejim yuzaga keltirgan ijtimoiy-ruxiy vaziyat, «kazarmaviy sotsializm» ta'siri oqibatida tashabbuskorlik bo'g'ildi, ikkiyuzlamachilik, befarqlik, xar qanday sharoitga moslashish, ko'rsatma bilan yashash, boqimandalik xislatlari shakllanadi, ruhiy qaramlik avj oldi.

Olomonning birlashishi, xalqqa aylanishi tarixiy jarayonlar natijasi xisoblanadi. Bunda onglilik, o'zligini anglash muxim axamiyat kasb etadi. O'z o'tmishini anglash, kelajak istiqboli yo'lida qayg'urish jamiyat a'zolarini birlashtirishnig omili xisoblanadi va bunda milliy g'oya muxim o'rin tutadi. Milliy g'oya va mafkura xalqni istiqbol yo'lida birlashtiradi. Shuning uchun xam mustaqillikka erishgan O'zbekiston aholisining orzu-umidlari, intilishlari, maqsad-muddaolarini o'zida aks ettirgan milliy istiqbol mafkurasi «xalqni-xalq, millatni-millat» qilishga xizmat qilish lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Xalq ommasi tarixiy tarasqiyotning xal qiluvchi kuchi xisoblanadi. Xalq ommasining xal qiluvchilik kuchi avvalo jamiyat xayotining eng asosiy sohasi iqtisodiy xayotda, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq jamiyatning eng asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi xisoblanadi.

Mehnatkash omma moddiy boyliklarni ishlab chiqaradi, mehnat qurollarini xarakatga keltiradi, ularni takomillashtiradi.

Xalqning ijtimoiy-siyosiy xayotdagi o'rni beqiyos. Xalqning manfaatini xisobga olish siyosatda o'z ifodasini topadi. Xalq erkinliklar, demokratik xuquqlar uchun kurash olib boradi. Xalqning xal qiluvchilik roli ayniqsa sotsial inqiloblar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq butun insoniyat tarixi davomida ozodlik uchun qaramlikka, bosqinchilikka, istibdodga qarshi kurash olib borgan.

Xalqning ma'naviy xayotdagi o'rni nihoyatda katta. Ma'naviyatning asosini til tashkil etadi. Xalq tilni yaratgan, uni avloddan-avlodga yetkazgan. Xalq – ma'naviy qadriyatlar manbai. Barcha fan, adabiyot, san'at namoyondalari o'z asarlarida xalqning orzu-intilishlarini aks ettirganlar, eng buyuk olimlar, san'at arboblari xalq orasidan yetishib chiqqan.

Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ekti sinflar, ijtimoiy guruhlar, millatlar hisoblanadi. Xalq turli sinflar, ijtimoiy guruhlardan iborat. Ularning jamiyatdagi o'rni, manfaatlari xalqni xarakatga keltiradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida sinflar orasidagi kurash 3 xil ko'rinishda namoyon bo'lgan:

- a) iqtisodiy kurash;
- b) siyosiy kurash;
- v) g'oyaviy kurash.

Sinfiy kurash jamiyat xayotini xarakatga keltiruvchi kuch xisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyotning sub'ektlari doirasiga millatlarni kiritish lozim bo'ladi. Milliy ozodlik xarakatlari ijtimoiy taraqqiyotning muxim omili hisoblanadi. Xalq ommasi, sinflar, millatlarning tarixiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyatini pasaytirmagan holda tarixdagi shaxslarning o'rniga xam alohida e'tibor bermoq lozim.

Tarixda shaxsning tutgan o'rni deganda, 2 narsani e'tiborga olmoq lozim:

1. Jamiyat taraqqiyotida har bir odamning o'ziga xos o'rni borligi. Bu ijtimoiy taraqqiyotdagi inson omili, deb yuritiladi.

2. Buyuk zotlar, tariiy shaxslarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'zni. Tarixiy taraqqiyot boshdan oyoq buyuk tarixiy shaxslari faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshadi. Tarixda buyuk zotlar, shaxslarning tutgan o'zni masalasi olimlarni qiziqtirib kelgan. Ayrim olimlar (masalan; Rizo, Mins, Gerri) tarixiy jarayonlar oldindan belgilab qo'yilgan, shaxslar tarixga ta'sir eta olmaydi, degan qarashni ilgari surganlar. Boshqalari esa tarixning xaqiqiy ijodkori buyuk shaxslar, tarix ular irodasini ifodalaydilar, degan qarashni ilgari surganlar. Bu xar ikki nuqtai-nazar shaxslarning tarixdagi o'zniga bir yoqlama munosabatning natijasi xisoblanadi. Tarixda shaxsning tutgan o'zni xaqidagi rus olimi G.V.Plexanovning qarashlari e'tiborga loyiq.

Uning fikricha buyuk shaxslarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri 2 omilga bog'liq: Birinchidan, shaxsning talant-qobiliyatlariga. Buyuk odam deganda hodisalar jarayonini o'z-o'ziga o'zgartira oladigan, yoki to'xtatib qola oladigan shaxs nazarda tutilmaydi. Bu shaxsning buyukligi uning ongliligi va tarixiy zaruratni qay darajada anglashda. Shu ma'noda buyuk shaxs muayyan sinf, ijtimoiy guruhlar manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keladi.

Ikkinchidan, mavjud ijtimoiy tuzum, tarixiy shart-sharoitga bog'liq. Muayyan ijtimoiy tuzum, tarixiy vaziyat shaxs faoliyati uchun imkoniyat yarata oladi. Shunday qilib, ijtimoiy tarasqiyot murakkab tabiiy-tarixiy jarayon. Extiyoj, manfaatlar jamiyat xayot iva tarasqiyotining harakatlantiruvchi kuchi xisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot xalq ommasi, ijtimoiy guruhlar, sinflar, millatlar, tarixiy shaxslar faoliyati natijasida sodir bo'ladi.

15-Mavzu. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektlari va qarakatlantiruvchi kuchlari

Reja:

1. Ijtimoiy taraqqiyot, uning sub'ektlari.
2. Manfaat va eqtiyojlar ijtimoiy taraqqiyotni qarakatlantiruvchi kuchi.
3. Xalq ommasi tarix ijodkori.
4. Milliy ozodlik xarakatlari va ijtimoiy taraqqiyot.

Tayanch tushunchalar:

Manfaat, extiyoj, buyuk shaxs, xalq, olomon, volyuntarizm, fatalizm

Adabiyotlar:

I. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.

I.Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» - T., «O'zbekiston» 1998 yil.

I.Karimov «Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barxayotdir» - Prezident I.Karimovning Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilish marosimidagi nutqi – «Guliston» nashr., 1997 yil 1.

S.E.Krapivenskiy Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS» 1998 yil 55-101, 335-354 betlar.

Vvedenie v filosofiyu. Chast 2-1 – Moskva, 1990 g., str. 466-479.

V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya – Moskva, 1999 g., str. 311-328.

J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo'lim. – T., 2001 yil.

Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq» nashr., 1999 yil, 299-300 betlar.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy manfaat, deganda nimani tushunasizq
2. Ijtimoiy taraqqiyotning xarakatlantiruvchi kuchi nimadan iboratq
3. Tarixiy jarayonlarning sub'ekti deganda nimalar nazarda tutiladi.
4. «Xalq» tushunchasining tavsiflang.
5. «Xalq – tarix ijodkori» degan fikrni asoslang.
6. Volyuntarizm falsafiy qarashining mazmuniq
7. Fatalizm qanday oqim.
8. Jamiyat taraqqiyotida inson omilining tutgan o'rni.

Biz o'tgan ma'ruzada ijtimoiy taraqqiyot muammosi bilan tanishdik. Agar ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon bo'lsa, ijtimoiy taraqqiyotni kim amalga oshiradi, degan savol kelib chiqadi. Jamiyat taraqqiyoti kimga va nimaga boqliqq Aslida ijtimoiy taraqqiyotning yuzaga kelishi ikki xil omilga boqliq: a) ob'ektiv

shart-sharoitlarga; b) sub'ektiv omilga muayyan tarixiy jarayonlar ob'ektiv shart-sharoitlar deganda tutiladi. Ma'lumki, tabiatdagi xar qanday o'zgarish o'z-o'zidan stixiyali tarzda ro'y beradi. Jamiyat qayotidagi o'zgarishlar esa kishilarning muayyan manfaatlarini ifodalaydigan ongli faoliyatlari natijasida sodir bo'ladi.

Jamiyatdagi xar qanday xarakat, o'zgarish, taraqqiyot asosida kishilarning extiyoj va manfaatlar yotadi. Jamiyatning moxiyatiga berilgan ta'rifni bir bor eslang. Kishilarning o'z extiyojlarini qondirish jarayonida boshqalar bilan aloqamunosabatlarga kirishishlari oqibatida jamoa, ya'ni jamiyat kelib chiqqan. Extiyoj – manfaatlar jamiyatni xarakatga keltiradigan qudratli kuch. Individlar va guruqlarning faoliyatlari negizida ularning anglangan manfaatlar yotadi. Jamiyatning, aloqida kishilar, ijtimoiy guruqlarning o'z manfaatlarini anglashlari vash u asosda faoliyatlari oqibatida ijtimoiy tarasqiyot yuzaga keladi. Ijtimoiy taraqqiyot sub'ektlari – o'z manfaatlar yo'lida ongli, muayyan maqsadga yo'nalgan faoliyat olib boradigan xalq, millat, sinf, shaxslar, buyuk zotlardir. Ijtimoiy taraqqiyot sub'ektlarining ongli faoliyati sub'ektiv omil, deb yuritiladi. Ob'ektiv shart-sharoitlar va sub'ektiv omil deganda tarixni yaratuvchi kishilar faoliyati nazarda tutiladi. Tarixni kishilar yaratadi, lekin kishilarning faoliyati ob'ektiv shart-sharoitga boqliq bo'ladi.

Ijtimoiy taraqqiyotning moqiyati sub'ektlari, xarakatlantiruvchi kuchlari xaqidagi xilma-xil qarashlar ilgari surilgan. Volyuntarizm va fatalizm nazariyalari shular jumlasidandir. Volyuntarizm ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini inkor etadi va ijtimoiy taraqqiyotdagi xal qiluvchi narsa, bu – iroda. Iroda barcha mavjudotning asosi, degan qarashni ilgari suradi. Unga ko'ra, tarixiy jarayon uni amalga oshiruvchi sub'ektlarning xoqish-irodasiga ko'ra modir bo'ladi. Bunday nuqtai nazar Germaniyada – G.Rikkert, M.Veber; Angliyada B.Rassel, A.Toynbilar tomonidan ilgari surilgan.

Fatalizm falsafiy yo'nalishi xar bir xodisa, insoniyatning barcha xayoti xarakatlarini taqdiriga boqliq, deb qaraydi. Fatalizm jamiyat qonunlarini inkor etadi.

Tabiatda ob'ektiv qonunlar amal qilgani singari jamiyat qonunlarini xam inkor etib bo'lmaydi. Lekin, jamiyat qonunlari amal qilish xususiyatlarga ko'ra tabiat qonunlaridan farqlanadi. Jamiyat tabiiy-tarixiy jarayon bo'lib xisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti shuning uchun xam tabiiy jarayonki, u zaruriy tarzda kechadi. Tabiatda bo'lgani singari jamiyatda xam uzluksiz ravishda xarakat, o'zgarish, taraqqiyot sodir bo'ladi. Jamiyat taraqqiyoti shuning uchun xam tarixiy jarayonki, bu jarayon kishilar faoliyati tufayli sodir bo'ladi. Kishilar o'z faoliyatlari bilan tarixni

yaratadilar. Jamiyat tarixini yaratuvchilar, tarix qildiragini olqa suruvchilar tarixning sub'ektlari bo'lib xisoblanadilar.

Tarixiy taraqqiyotning sub'ektlari deganda:

- a) xalq
- b) sinflar, millatlar
- v) Buyuk shaxslar nazarda tutiladi.

Tarixiy jarayonlarning sub'ekti xalq qisoblanadi. «Xalq» tushunchasi avvalo biron mamlakat yoki davlatning aqolisi tushunchasini ifodalaydi. Xalq, elat, El, xaloyiq, bir guruq kishilar ma'nolarini ifodalaydi.

Xalq avvalo muayyan ijtimoiy birlikdir. Ayni vaqtda xalq etnik birlikdan yoki ijtimoiy-iqtisodiy, sinfiy birlikdan farqli xisoblanadi. Etnik birlik deganda etnos, millat nazarda tutiladi. Xalq vakili xisoblangan individ muayyan etnosga mansub bo'ladi. Umuman olganda, xalq ko'pmillatli yoki yagona millatli bo'lishi mumkin. Xalq turli ijtimoiy guruqlardan tashkil topishi, murakkab ijtimoiy-sinfiy tarkibiga ega bo'lishi mumkin.

Xalq ommasi o'ziga xos birlik sifatida boshqa birliklardan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi:

Birinchiidan, umumiy taqdir asosida birlashgan kishilar. Yagona xududda istiqomat qilish, o'z davlatchiligiga ega bo'lishdek belgi xalqqa xos belgi xisoblanadi. Lekin xar doim qam bu belgi yaqqol namoyon bo'lavermaydi.

Ikkinchiidan, xalq umumiy intilish, umumiy e'tiqod va qoya yo'lidagi birlashuvni ifodalaydi. is'tedodga qarshi milliy ozodlik yo'lidagi birlashuvni misol sifatida keltirish mumkin.

Uchinchiidan, xalq – tarixiy xotira va istiqbol yo'lidagi birlashuvdir. Xalq ommasi umumiy taqdir, tarixiy xotira, umumiy e'tiqod va qoya, tarixiy taraqqiyot istiqbollari yo'lida birlashgan ijtimoiy yaxlitlikdir.

Xalq tushunchasi bilan bir qatorda olomon tushunchasi qam qo'llaniladi. O'zbek tilining izoqli luqatida olomon – o'z-o'zidan, stixiyali ravishda to'plangan odamlar, xaloyiq, deb ta'riflangan.

Xalqning shakllanishi murakkab bosqichli jarayon xisoblanadi. Bu jarayonning dastlabki, quyi bosqichi, omma, olomon bo'lib xisoblanadi. Olomon xali uyqonmagan, o'zligini yetarli anglamagan omma.

Ko'p yillar davomida xalqni avomga, olomon yo'liga qaytarishga urinishlar bo'ldi. Majburan kollektivlashtirish, ommaviy qataqonlar, byurokratik rejim yuzaga keltirgan ijtimoiy-ruxiy vaziyat, «kazarmaviy sotsializm» ta'siri oqibatida tashabbuskorlik bo'qildi, ikkiyuzlamachilik, befarqlik, xar qanday sharoitga moslashish, ko'rsatma bilan yashash, boqimandalik xislatlari shakllanadi, ruqiy qaramlik avj oldi.

Olomonning birlashishi, xalqqa aylanishi tarixiy jarayonlar natijasi xisoblanadi. Bunda onglilik, o'zligini anglash muxim axamiyat kasb etadi. O'z o'tmishini anglash, kelajak istiqboli yo'lida qayqurish jamiyat a'zolarini birlashtirishni omili xisoblanadi va bunda milliy qoya muxim o'rin tutadi. Milliy qoya va mafkura xalqni istiqbol yo'lida birlashtiradi. Shuning uchun xam mustaqillikka erishgan O'zbekiston aqolisining orzu-umidlari, intilishlari, maqsad-muddaolarini o'zida aks ettirgan milliy istiqbol mafkurasini «xalqni-xalq, millatni-millat» qilishga xizmat qilish lozimligiga aloqida e'tibor qaratilgan.

Xalq ommasi tarixiy tarasqiyotning xal qiluvchi kuchi xisoblanadi. Xalq ommasining xal qiluvchilik kuchi avvalo jamiyat xayotining eng asosiy soqasi iqtisodiy xayotda, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq jamiyatning eng asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi xisoblanadi.

Meqnatkash omma moddiy boyliklarni ishlab chiqaradi, meqnat qurollarini xaraktaga keltiradi, ularni takomillashtiradi.

Xalqning ijtimoiy-siyosiy xayotdagi o'rni beqiyos. Xalqning manfaatini xisobga olish siyosatda o'z ifodasini topadi. Xalq erkinliklar, demokratik xuquqlar uchun kurash olib boradi. Xalqning xal qiluvchilik roli ayniqsa sotsial inqiloblar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq butun insoniyat tarixi davomida ozodlik uchun qaramlikka, bosqinchilikka, istibdodga qarshi kurash olib borgan. Xalqning ma'naviy xayotdagi o'rni niqoyatda katta. Ma'naviyatning asosini til tashkil etadi. Xalq tilni yaratgan, uni avloddan-avlodga yetkazgan. Xalq – ma'naviy qadriyatlar manbai. Barcha fan, adabiyot, san'at namoyondalari o'z asarlarida xalqning orzu-intilishlarini aks ettirganlar, eng buyuk olimlar, san'at arboblari xalq orasidan yetishib chiqqan. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ekti sinflar, ijtimoiy guruqlar, millatlar qisoblanadi. Xalq turli sinflar, ijtimoiy guruqlardan iborat. Ularning jamiyatdagi o'rni, manfaatlari xalqni xaraktaga keltiradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida sinflar orasidagi kurash 3 xil ko'rinishda namoyon bo'lgan:

a) iqtisodiy kurash;

b) siyosiy kurash;

v) qoyaviy kurash.

Sinfiy kurash jamiyat xayotini xarakterga keltiruvchi kuch xisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyotning sub'ektlari doirasiga millatlarni kiritish lozim bo'ladi. Milliy ozodlik xarakatlari ijtimoiy taraqqiyotning muxim omili qisoblanadi.

Xalq ommasi, sinflar, millatlarning tarixiy taraqqiyotdagi o'rnini va axamiyatini pasaytirmagan qolda tarixdagi shaxslarning o'rniga xam aloqida e'tibor bermog lozim.

Tarixda shaxsning tutgan o'rnini deganda, 2 narsani e'tiborga olmog lozim:

1. Jamiyat taraqqiyotida qar bir odamning o'ziga xos o'rnini borligi. Bu ijtimoiy taraqqiyotdagi inson omili, deb yuritiladi.

2. Buyuk zotlar, tariiy shaxslarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini. Tarixiy taraqqiyot boshdan oyoq buyuk tarixiy shaxslari faoliyati bilan boqliq qolda amalga oshadi. Tarixda buyuk zotlar, shaxslarning tutgan o'rnini masalasi olimlarni qiziqtirib kelgan. Ayrim olimlar (masalan; Rizo, Mins, Gerri) tarixiy jarayonlar oldindan belgilab qo'yilgan, shaxslar tarixga ta'sir eta olmaydi, degan qarashni ilgari surganlar. Boshqalari esa tarixning xaqiqiy ijodkori buyuk shaxslar, tarix ular irodasini ifodalaydilar, degan qarashni ilgari surganlar. Bu xar ikki nuqtai-nazar shaxslarning tarixdagi o'rniga bir yoqlama munosabatning natijasi xisoblanadi. Tarixda shaxsning tutgan o'rnini xaqidagi rus olimi G.V.Plexanovning qarashlari e'tiborga loyiq.

Uning fikricha buyuk shaxslarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri 2 omilga boqliq: Birinchidan, shaxsning talant-qobiliyatlariga. Buyuk odam deganda qodisalar jarayonini o'z-o'ziga o'zgartira oladigan, yoki to'xtatib qola oladigan shaxs nazarda tutilmaydi. Bu shaxsning buyukligi uning ongliligi va tarixiy zaruratni qay darajada anglashda. Shu ma'noda buyuk shaxs muayyan sinf, ijtimoiy guruqlar manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keladi.

Ikkinchidan, mavjud ijtimoiy tuzum, tarixiy shart-sharoitga boqliq. Muayyan ijtimoiy tuzum, tarixiy vaziyat shaxs faoliyati uchun imkoniyat yarata oladi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarasqiyot murakkab tabiiy-tarixiy jarayon. Extiyoj, manfaatlar jamiyat xayot iva tarasqiyotining qaraktlantiruvchi kuchi xisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot xalq ommasi, ijtimoiy guruqlar, sinflar, millatlar, tarixiy shaxslar faoliyati natijasida sodir bo'ladi.

Reja:

1. Sivilizatsiya, uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sharq va G'arb sivilizatsiyasi.
3. Hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi

Tayanch tushunchalar:

Yovvoyilik, varvarlik, sivilizatsiya, madaniyat, madaniy taraqqiyot, lokal sivilizatsiya, sivilizatsiyali yondashuv.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. Falsafa. Lotin alifbosida. – T., 2006 yil, 448-464 betlar.
3. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupov taxriri ostida. – T., «Sharq» 1999 y., 301-313 betlar.
4. Falsafa. Qomusiy lug'at. T., «Sharq» 2004 yil.
5. G'arb falsafasi. (Olimlarning sivilizatsiya muammosiga daxldor qarashlari) – T., «Sharq» 2004 yil, 575-590 betlar.
6. Q.Xonazarov. Yangi taraqqiyot pallasi. – Tafakkur jurn., 2003 yil, 4-son.
7. Sherali Amur. G'arb va Sharq: sivilizatsiya va ma'naviyat – Muloqot jurn., 1994 yil, 1-2 son.

Nazorat uchun savollar:

1. Sivilizatsiya tushunchasi qanday ma'nolarda qo'llaniladi?
2. Sivilizatsiya tushunchasining mohiyati.
3. Sivilizatsiya va madaniyatning o'xshash va farqli tomonlarini ixoxlang.
4. Sivilizatsiyalar turlari.
5. G'arb sivilizatsiyasining o'ziga xos tomonlari nima?
6. Sharq sivilizatsiyasining xususiyati.
7. Sivilizatsiyani farqlari.

XVII asr Yevropa tarixiga ma'rifatchilik asri bo'lib kirdi. Ma'rifatchilik xarakati va g'oyalari, dastlab Frantsiyada shakllandi va butun Yevropa bo'ylab tarqaldi. Bu davrda ma'rifatparvarlar tomonidan ilgari surilgan ma'rifatchilik g'oyalarida aql-idrokka katta e'tibor berildi va jamiyat taraqqiyotiga fan va bilim orqaligina erishish mumkinligi, taraqqiyotga to'siq bo'lgan joihillik va xurofatni bartaraf etish uchun ma'rifat zarurligi keng targ'ib qilindi. Ma'rifatchilik g'oyalarining keng tarqalishi kishilarda kelajakka ishonchni uyg'otdi. Sivilizatsiya to'g'risidagi falsafiy qarashlar aynan shu davrdan boshlab yuzaga keldi. Sivilizatsiya tushunchasi Frantsuz ma'rifatparvarlari va Shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson tomonidan jahon tarixiy jarayonning ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun iste'molga kiritildi.

Ma'rifatparvarlar sivilizatsiya deganda, bir tomondan, jamiyat jamiyati taraqqiyotining ma'lum bir bosqichini nazarda tutgan bo'lsalar, ikkinchidan, insoniyat aql-zakovati yordamida erishilgan yutuqlarni shu tushuncha yordamida ifodalaydilar.

Tsivilizatsiyani insoniyat jamiyati taraqqiyotini yovvoyilik va varvarlikdan keyingi muayyan bir bosqichi sifatida taxlil qilishda unga xos quyidagi jixatlarga e'tibor qaratildi: sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi, ilk bossichlaridan sug'orma dexqonchilikning vujudga kelishi, davlat va xuquqning paydo bo'lishi, shaxarlarning yuzaga kelishi, yozuvning paydo bo'lishi bilan farqlanadi. Ayni vaqtda sivilizatsiya tushunchasi inson aql-zakovati erishgan yutuqlarini xam ifodalaydi. frantsuz ma'rifatparvarlari sivilizatsiya tushunchasini aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat, ya'ni ideal jamiyat ma'nosida qo'lladilar. Sivilizatsiya murakkab mazmunga ega bo'lgan falsafiy tushuncha xisoblanadi. Shuning uchun xam sivilizatsiya xaqida xilma-xil qarashlar, nuqtai-nazarlar mavjud. Chunonchi ingliz sotsiologik va tarixchisi Arnold Toynbi (1889-1975) sivilizatsiya deganda jamiyat taraqqiyotini, avvalo madaniy yuksalishni nazarda tutadi. Dunyo tarixini o'rgangan Toynbi sivilizatsiya turlicha xalqlarda turlicha kechadi, tarix o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan alohida sivilizatsiyalardan iborat, degan fikrni ilgari suradi. U «tarixni bilish» asarida insoniyat tarixida bo'lgan sivilizatsiyalar sonini 13 taga keltiradi va sivilizatsiyani rivojlantiruvchi kuch – ijodiy elita yoki ozchilikdan iborat, deb biladi. U sivilizatsiya o'z-o'zidan shakllanmaydi. Uning rivojlanish uchun ma'lum tarixiy davr yetilgan bo'lmog'i lozim. bunday davrni Toynbi «Chaqiruv va javob» deb belgilaydi. Uning fikricha, tarix chaqirig'iga ozchilik javob berar ekan, o'z ketidan befarq ko'pchilikni

ergashtiradi. Chaqiruv shunday davrki, bunda jamiyat qandaydir xavf ostida bo'ladi. Chaqiruv va javob har qanday sivilizatsiyaning asosini tashkil etadi.

Polyak faylasufi Konechki sivilizatsiyani kishilar jamoasini uyushtirishning alohida shakli sifatida ta'riflaydi.

Nemis faylasufi Osvald Shpengler (1880-1936 yillar) sivilizatsiya tushunchasining madaniyatga qarama-qarshi qo'yadi. Uning fikricha madaniyat xalokatga uchrashi jarayonida sivilizatsiyaga aylanadi. Madaniyatdan sivilizatsiyaga o'tish ijodkorlikdan maxsulsizlikka, shakllanishdan qotib qolishga, qaharamonona tashabbuslardan mexanik «ish»ga o'tishdan iborat bo'ladi. Shpengler fikricha, sivilizatsiya oqibatida badiiy va adabiy ijodga ehtiyoj qolmaydi. Shuning uchun xam madaniy da'volardan voz kechib, softexnizmga e'tiqod qilishni taklif etadi.

Insoniyat, Shpengler fikricha, zoologik birlikdir. Insoniyatning yagona tarixi yo'q, faqat alohida yashirin madaniyat bor. Har bir madaniyat xayotini taqdir boshqaradi. «Har qanday madaniyat insondek xayot kechiradi. Ularning o'z bolaligi, o'smirligi, o'rta yoshi va qadimgi bo'ladi».Sivilizatsiyani turkumlashning turli asoslari ishlab chiqilgan.

Kishilik jamiyati rivojlanishining muayyan bosqichi asosida turkumlash: neolit sivilizatsiyasi, nokapitalistik sivilizatsiya, hozirgi zamon sivilizatsiyasi.

Tsivilizatsiya degan ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya tushunilgan: ibtidoiy formatsiya, quldorlik va x.k.

Tsivilizatsiya geografik jixatdan farqlanish asosida turkumlangan: Yevropa sivilizatsiyasi, Osiyo sivilizatsiyasi.

Diniy mansublik asos qilib olingan: xristian sivilizatsiyasi, osiyo sivilizatsiyasi.

Kelib chiqish, planetar mansublikka ko'ra: Yer sivilizatsiyasi, Yerdan tashqari sivilizatsiya farqlangan.

Etnik asosga ko'ra farqlanadigan birliklar nazarda tutilgan: Qadimgi Misr sivilizatsiyasi, Bobil sivilizatsiyasi.

Tsivilizatsiya tushunchasi madaniyat tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Ayrim olimlar, masalan, Shpengler sivilizatsiyani madaniyatning antikodi, deb biladi va «sivilizatsiya madaniyat tanazzuli ifodasi» degan xulosaga keladi.

Tsivilizatsiyani madaniyatga qarama-qarshi qo'yishning asoslari bor. Sivilizatsiya ziddiyatli ijtimoiy jarayonlar tarzida kechgan va bu jarayonlar oqibatida taraqqiyot bilan bir qatorda madaniyatlarning yemirilishi, boylik va qashshoqlik kabi ijtimoiy xodisalar yuzaga kelishi kuzatilgan.

Tsivilizatsiya muammosiga turlicha qarashlarni inkor etmagan xolda, uning madaniyat bilan aloqadorligini alohida ta'kidlash, sivilizatsiya insoniyatning yovvoyilik va varvarlikdan keyingi madaniy taraqqiyot boskichi ekanligini e'tiborga olmoq lozim.

Tsivilizatsiya madaniyatlar xilma-xilligi asosida shakllanadi. Madaniyatlarning turli-tumanligi ular orasidagi umumiylikni inkor etmaydi. Madaniyatning insonparvarligi tamoyili ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Ayni vastda madaniyatlar o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatadi va bu ta'sir madaniyatlar taraqqiyotida o'z ifodasini topadi.

Tsivilizatsiya insonning tashqi olami, madaniyat uning ichki olami. Madaniyat inson va jamiyatning boyligi. Sivilizatsiya inson va jamiyatning taraqqiyotini ifodalaydi. sivilizatsiya inson va jamiyatning o'zgaruvchanlik faoliyati maxsuli.

1. Sivilizatsiya jamiyatni ijtimoiy tashkil etish usuli hisoblanadi.

2. Sivilizatsiya avval boshdanoq progressiv taraqqiyot sifatida yuzaga kelgan. Bu taraqqiyot ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bog'liq tarzda kechgan. Agar varvarlik davrida eng qadimgi odamlar uyushuvi tabiiy asosga tayangan bo'lsa, sivilizatsiya odamlarning ijtimoiy jixatdan uyushuvini keltirib chiqaradi.

3. Sivilizatsiya ijtimoiy boyliklarni ishlab chiqarish vat obora ko'paytirib borishdan iborat murakkab ijtimoiy jarayon.

Tsivilizatsiya ortiqcha mahsulotning ijtimoiy boylikning vujudga kelishi bilan bogliq ravishda amalga oshdi. Aynan ortiqcha mahsulot, boylikning paydo bo'lishi oqibatida mehnat taqsimoti chuqurlashdi, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqdi, ilmiy bilimlar shakllandi, fan, falsafa, san'at vujudga keldi. Ijtimoiy boylik deganda moddiy ne'matlar ko'rinishdagi boylik bilan bir qatorda ma'naviy qadriyatlarni xam hisobga olmoq lozim. moddiy boyliklarning tobora ko'payib borishi bo'sh vaqt boyligining shakllanishiga olib keldi. Bo'sh vaqt jamiyat va inson taraqqiyotining muxim omili bo'lib xisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti, boyliklarning tobora ko'payib borishi madaniyatli ijtimoiy

munosabatlarning qaror topishi uchun imkoniyat yaratdi. Jamiyat boyligini ishlab chiqarish kishilar orasidagi munosabatlar taraqqiyotiga olib keldi.

4. Jamiyatning tarkibida jiddiy o'zgarishlar kuzatila boshlandi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida xilma-xil sinflar, ijtimoiy guruxlar, tabaqalar shakllandi.

5. Sivilizatsiyaning eng muxim belgisi jamiyat xayotini tashkil eti shva boshqarish bilan bog'liq. Boshqaruvning jamoa usulidan farqlanuvchi maxsus boshqaruv – davlat xokimiyati shakllandi.

6. Sivilizatsiya jamiyatning asosi, subatomi xisoblangan oila va oilaviy munosabatlarning takomillashuviga olib keldi.

7. Sivilizatsiya ma'naviy madaniyat takomili bilan bevosita bog'liq. Yozuvning kashf qilinishi ajdodlar bilimlari va tajribalarini avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyat berdi. Yozuv sivilizatsiyaning muxim omili bo'lib hisoblanadi.

Tsivilizatsiya umumbashariy axamiyatga molik murakkab ijtimoiy xodisa va bu xodisa jamiyatlar taraqqiyotida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon sivilizatsiyasi jamiyatlar taraqqiyotida yangi sifat bosqichi mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi uzida jaxon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, yangi axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan bevosita bog'liq.

17-Mavzu. O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borishi

Reja:

1. Jahon sivilizatsiyasi.
2. Jahon hamjamiyati.
3. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi

Tayanch tushunchalar:

Davlat mustaqilligi, integratsiya, iqtisodiy integratsiya, siyosat, tashqi siyosat.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston» 1997 yil, 296-323 betlar.
3. Islom Karimov. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan xamkorlik yo'li. Arezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasidagi ma'ruzasi. – T., «O'zbekiston ovozi», 26 aprel 2003 yil.
4. Falsafa. M.Axmedova taxriri ostida. – T., 2006 yil, 470-479 betlar.
5. Munojatxon Nurmatova. O'zbekiston va jahon xamjamiyati. – «Ijtimoiy fikr. Inson xuquqlari» jurn., 2004 yil, 4-son.
6. Dilshod Komilov, Norboy Karimov. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar. – «Xamkor» gazetasi, 2002 yil, 6 iyun.
7. Qobilbek Karimboev. Xavfsizlik va ijodiy taraqqiyot yo'lidagi xamkorlik – XXI asr gazetasi, 2004 yil, 10 iyun.
8. Z.Muzaffarov. Mintaqaviy integratsiya rosmiyaning iqtisodiy sa'y-xarakatlarni taqazo etadi. – «Xalq so'zi». 2003 yil 27 sentyabr.

Nazorat uchun savollar:

1. «Integratsiya», «integratsiyalashuv» tushunchalarining ma'nosini izoxlang.
2. Globallashuv jarayonlari va integratsiya orasidagi munosabat deganda, nimani tushunasiz?
3. Jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuv nimalarda o'z ifodasini topadi?
4. O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
5. O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuvining asosiy yo'nalishlari qaysilar

O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib boruvi – integratsiyalashuv, deb yuritiladi. Jahon miqyosida integratsiya turli mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvida, ularning korxonalari, tarmoqlari va milliy iqtisodiyotning yagona xo'jalik organizmiga birlashuvida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqilikka erishgunga qadar tashqi olamdan uzilib qolgan edi. Chor xukumati davrida Qo'qon xonligi o'rnida Turkiston general-gubernatorligi deb atalgan mustamlaka xudud tashkil etilgan edi. Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro va Xiva xonligi tashqi dunyo bilan mustaqil aloqalar o'rnatish xukukidan maxrum etilgan.

O'zbekiston mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan xalqaro munosabatlarning teng xuquqli a'zosiga aylandi. U jahonning 182 mamlakati tomonidan tan olingan, 142 mamlakat bilan dialektik aloqalar o'rnatgan. O'zbekistonda ko'pgina xalqaro, davlatlararo va nodavlat tashkilotlarning vakolatxonolari ochilgan.

Hozirgi globallashuv asrida jahon xamjamiyatiga qo'shiluv (integratsiyalashuv) masalalari sayyoramizning turli burchaklarida yashayotgan xalqlar uchun tobora muxim axamiyat kasb etmoqda. Boshqa mamlakatlar qator o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston xam tobora ko'proq jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashib bormoqda. O'zbekistonning jaxon xamjamiyatiga tobora integratsiyalashib boruvi uning tashqi siyosatining asosiy mohiyatini tashkil etmoqda. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z ifodasini topdi: Unda ko'rsatilganidek O'zbekiston Respublikasini tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat. Ular:

1. Davlatlarning suveren tengligi;
2. Kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan taxdid qilmaslik;
3. Chegaralar daxlsizligi;
4. Nizolarni tinch yo'l bilan xal etish;
5. Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalari va xalqaro xukukning umume'tirof etilgan qoidalari va normalari.

Respublikamizning jahon xamjamiyatiga integratsiyalab boruvida tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yish muxim axamiyat kasb etadi. Tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarning asosiy tamoyillari O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida ishlab chiqilgan.

Birinchidan, tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni yo'lga qo'yishda o'zaro manfaatlarni xar tomonlama xisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarning ustunligi;

Ikkinchidan, teng xuquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar xamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

To'rtinchidan, xalqaro xuquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni xam ikki tomonlama, xam ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Tashqi aloqalarning integratsiyalashuvga qanday aloqasi bor?, degan savolni qo'yish o'rinli. Tashqi siyosat, aloqalarni o'rnatish mamlakatimizning ichki xayoti uchun osoyishta shart-sharoitlarni ta'minlashga, tub islohotlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Biz o'z oldimizga demokratik xuquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat strategik vazifani qo'yganmiz. Zamonaviy demokratik xuquqiy davlat deganda, jahon xamjamiyati bilan integratsiyaga Kirishi oladigan O'zbekistonning jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvining asosiy yo'nalishlari uning tashqi siyosatida o'z ifodasini topishi mumkin:

1. Davlatlararo, shuningdek nodavlat xalqaro tashkilotlar ishidagi ishtiroki.
Bular:

a) BMT O'zbekiston 1992 yildan Ber;

b) Yevropa xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti.

2. Bitim va kelishuvlar aossida ikkiyoqlama va ko'pyoqlama davlatlararo munosabatlar O'zbekistonning MDX doirasidagi faoliyati.

3. Markaziy Osiyo suveren davlatlari bilan xamkorlik. Bundan ko'zda tutilgan maqsad Markaziy Osiyoda yagona istiosdiy, ma'naviy va siyosiy muxitni barpo etish.

Ma'lumki O'zbekiston o'zining geografik va siyosiy o'rniga ko'ra Sharq va G'arb sivilizatsiyasi o'rtasidagi bog'lovchilik vazifasini bajaradi. Markaziy Osiyoda 50 mlndan ortiq aholi istiqomat qiladi.

4. Chegaradosh va Yaqin Sharq mamlaktalari bilan sho'rolar davrida uzilib qolgan aloqalarni qayta tiklash va mustaxkamlash;

5. Boshqa Osiyo mamlaktalari, xususan Xitoy, Xindiston bilan keng aloqalarni yo'lga qo'yish. Bu borada 2000 yildan boshlab tashkil topgan Shanxay tashkiloti muxim axamiyat kasb etadi. O'zbekiston Shanxay tashkilotga 2002 yildan beri a'zo. Bu tashkilotning asosiy maqsadi insoniyat aholisining 4G`1 qismi yashayotgan xududda xamkorlik va xavfsizlikni ta'minlash, istiqbolda mintaqada

yashovchi xalqlarning turmush sharoitlarini yaxshilash va munosib kelajaklarini ta'minlash.

6. O'zbekistonda jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan tengxuquqli, o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishi, uning jahon xamjamiyatiga integratsiyalashuvida muxim o'rin tutadi. Hozirda, O'zbekistonning, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya va boshqalar bilan aloqalari tobora rivojlanib bormoqda. Bunday aloqalar zamonaviy texnologiyalarni, yangi investitsiyalarni jalb etish, zamon talablariga javob beradigan qadrlar tayyorlash borasida keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

7. O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga qo'shilib borishida madaniy aloqalar muxim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz dunyoviy sivilizatsiyaning qadimgi o'choqlaridan biri, u umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy boyliklar, qadriyatlari bilan mashhur.

8. Respublikaning jahon iqtisodiy xayotiga integratsiyalashuvi nihoyatda muxim ahamiyatga ega. Respublika o'zining tashqi iqtisodiy siyosatini ko'pgina nufuzli xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning a'zosi sifatida amalga oshirilmogda.

O'zbekiston 1994 yilda tashkil topgan Markaziy Osiyo iqtisodiy xamjamiyati (MOIH) a'zosi bo'lgan. Hozirda bu Markaziy Osiyo xamkorlik tashkiloti, MOHT deb yuritiladi. Bu tashkilotning faoliyati 4 yo'nalishda olib borilmogda:

- iqtisodiy xamkorlik;
- mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash;
- Afg'onistonni qayta tiklash;
- gumanitar xamkorlik.

O'zbekiston jahonning nufuzli iqtisodiy, moliyaviy tashkilotlari bilan xamkorlikda mamlakatda qudratli iqtisodiyotni barpo etish yo'lida xarakat qilmogda. Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, jahon banki, Islom taraqqiyot banki, BMT taraqqiyot dasturi shunday tashkilotlar jumlasidandir.

8. O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya doirasidagi faoliyati xam uning jahon xamjamiyatiga qo'shilib borishida muxim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari bilan tuzgan shartnomalari bundan dalolat beradi.

18-Mavzu. Ijtimoiy bilish. Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarish

Reja:

1. Ijtimoiy bilish, uning tarkibi.
2. Ijtimoiy bilish sub'ekti va ob'ekti.
3. Jamiyatni ilmiy bilish. Emperik va nazariy bilish.
4. Nazariy bilish va uning metodlari.

Tayanch tushunchalar:

Bilish, ilmiy bilish, ijtimoiy bilish, ijtimoiy xaqiqat, ijtimoiy bilishning empirik bosqichi, ijtimoiy bilishning nazariy bosqichi, ijtimoiy bilish metodlari: kuzatish, statistika, ijtimoiy eksperiment, xujjatlar bilan ishlash, tarixiylik va mantiqiylik, modellashtirish, tarixiy analogiya.

Adabiyotlar:

1. A.Karimov: Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch, T, "Ma'naviyat" 2008 y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T., «O'zbekiston», 1997 yil, 211-227-bet.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., «O'zbekiston» 1999 yil.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., «O'zbekiston» 1992 yil.
5. Falsafa asoslari. – T., «O'zbekiston» NJIU, 2005 yil, 365-370, 372-376 betlar.
6. S.E.Krapivenskiy. Sotsialnaya filosofiya. – Moskva, «VLADOS», 1998 yil, 380-404 betlar.
7. Falsafa. O'quv qo'llanma. – T., «Sharq», 1999 yil, 433-445 betlar.
8. Bilish falsafasi. – T., «Universitet» nashr., 2005 yil, 197-212 betlar.

9. O.G.Danilyan, V.M.Garanenko. *Filosofiya* – Moskva, izd. Eksmo, 2005 g., str. 449-458.
10. *Falsafa. Qomusiy lug'at.* – T., «Sharq» 2004 yil.
11. Karima Tulenova. *Predvidenie i realnost.* – T., «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» ilmiy nashr., 1998 yil.
12. *G'arb falsafasi.* – T., «Sharq» nashr., Matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh taxririya. 2004 yil.
13. *Jaxon falsafasi tarixidan lavxalar. I qism* – T., O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashr., 2004 yil.

Nazorat uchun savollar:

1. Ijtimoiy bilish deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy bilishdan qanday maqsadlar ko'zda tutiladi?
3. Ijtimoiy bilish tabiatni bilishdan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
4. Ijtimoiy bilishning bosqichlari deganda nima nazarda tutiladi?
5. Ijtimoiy bilishning tarkibiga nimalar kiradi?
6. Ijtimoiy bilishning empirik bosqichida kanday metodlardan foydalaniladi?
7. Ijtimoiy bilish nazariy bosqichida qo'llaniladigan usullarni sanang va izohlang.
8. Ijtimoiy bashorat nima?

Falsafa olam odam taraqqiyotining eng umumiy qonunlari, odamning olamdagi o'rni to'g'risida baxs yuritadigan fan. Falsafiy bilimlar mazmunida qadimiy davrdan to hozirgi qadar qo'yilgan va qo'yilib kelinayotgan uch savolga berilgan javoblar o'z ifodasini topgan. Bular:

- Olam nima?
- Olam qanday?
- Olamni bilish mumkinmi?

Bu savollar jamiyatga nisbatan ham qo'yilgan va unga berilgan javoblar oqibatida falsafiy bilimlar ijtimoiy xayotning muxim tomonlarini aks ettirishga xizmat qilgan. Oqibat natijada falsafaning o'ziga xos sohasi – ijtimoiy falsafiy bilimlar shakllangan va rivojlangan. Ijtimoiy falsafa jamiyat. Inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilishning mlxiyati, qonuniyatlari to'g'risida baxs yuritishini avvalda ta'kidlab o'tgan edik.

Olamni bilish mumkinmi degan savolga javob falsafaning bilish nazariyasida – gnoseologiyada o'z ifodasini topgani singari jamiyatni bilish muammolari ijtimoiy falsafaning asosini tashkil etadi. Ijtimoiy falsafa olamning tarkibiy qismi jamiyat, uni bilish muammolari bilan shug'ullanadi.

Ta'kidlash joizki, eng qadimiy davrlardan boshlab jamiyat, uning mohiyati, jamiyatni bilish muammolari olimlarni qiziqtirib kelgan. Jamiyatni bilishning tarixiy ildizlarini «Avseto»da, «Tavrot»da, Gerodot asarlarida uchratish mumkin. insoniyat jamiyatiga tarixiy-falsafiy yondashuv tamoyillari Abu Rayhon Beruniy, ibn Xaldunlar merosida o'z ifodasini topgan. Jamiyatga ilmiy yondashuv namunalarini Abu Nasr Forobiy asarlarida ko'rish mumkin. mutafakkir inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotini ilm bilan bevosita boglaydi. U o'zining «Baxt-saodatga erishuv xaqida» risolasida inson kamoloti uchun qanday ilmlar zarurligini uqtirib o'tadi va bunday bilimlar ichida insonning inson bo'lishidan qutilgan maqsad va muddaoni o'rganishni, shuningdek, madaniy, ya'ni madinaga (Ya'ni shaharga yoki jamoaga) oid bilimlarni egallashning muximligiga e'tibor qaratadi.

Jamiyatni ilmiy anglash masalasi falsafada XVIII asrdan boshlab aloxida ijtimoiy bilimlar tizimi sifatida shakllana boshlaydi. Bunda Neapollik olim, professor VIKO JAN BATISTA (1668-1744 y.), nemis olimi, ma'rifatparvar IOGANN GOTFRID GERDER (1744-1803 y.), frantsuz faylasufi, utopik sotsial loyixa muallifi Sen-Simon Klod Anri (1760-1825 y.)larning xizmatlari katta bo'ladi.

Viko Jan Batista tarixiy jarayonlarning ob'ektivligi xaqidagi g'oyani ilgari suradi. U «Millatlarning umumiy tabiati to'g'risidagi yangi fanning asoslanishi» kitobida yer yuzidagi barcha millatlar taraqqiyotining tarixiy aylanma nazariyasini ishlab chiqadi va bunda ijtimoiy xayot shakllarining o'zaro aloqadorlikda olib o'rganadi va ijtimoiy xayotga butunlik sifatida yondoshadi.

Gerder Iogann Gotfrid «Insoniyat tarixi falsafasida doir g'oyalar» asarida Germaniya ijtimoiy tafakkurida XVIII asr oxirlarigacha xukm surgan teologik qarashlarni bartaraf etishga xarakat qildi, sotsial tarixiylik g'oyalarini rivojlantirdi va birinchi bo'lim ijtimoiy taraqqiyot g'oyasini ilgari surdi.

Frantsiya revolyutsiya orqali o'z maqsadiga erisha olmaganini ko'rgan San-Simon qashshoqlik tufayli kelib chiqqan va ijtimoiy mulkni mulksizlar o'rtasida taqsimlashga intilgan revolyutsiyalar jamiyatni parokandalikka boboshdoqlikka olib keladi. bunda yo'l qo'yimalk uchun jamiyatni o'rganish, ilmga asoslangan ijtimoiy tizimni yaratish zarur, deb xisoblaydi. San-Simon jamiyatni qonuniy rivojlanuvchi bir butun organizm, deb biladi. U jamiyat tarixini tadqiq qilish insoniyatni sivilizatsiyali taraqqiyotda turli siyosiy ilyuziyalardan asraydi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha jamiyatning asosiy jixatlarini o'rganmoq uchun kishilarning real faoliyatlarini tadqiq qilish lozim. san-Simon inson xaqidagi fan (ijtimoiy fiziologiya)ni ishlab chiqadi.

Nemis mumtoz falsafasining yirik vakili Gegel geogrg Vilgelm Fridrix (1770-1831 y.) ijtimoiy bilish soxasida o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy kontseptsiyani ilgari suradi. Uning qarashlarida tabiiy, tarixiy va ma'naviy dunyo yagona jarayon sifatida talqin qilingan, bu jarayonning xar bir qismi boshqasi bilan ichki aloqadorlikda ekani ifodalangan. Gegel jahon tarixini yagona, ob'ektiv qonuniyatli jarayon sifatida o'rganadi. Gegelning katta yutug'i shunda Ediki, u butun moddiy va ma'naviy borliqni, shu jumladan jamiyatni doimo rivojlanish jarayonida olib qaradi, jamiyat taraqqiyoti masalasiga dialektik yondoshdi. Lekin Gegelning tarix kontseptsiyasi muayyan darajada cheklangan edi, chunki u tarixiy taraqqiyot sabablarini «mutloq g'oya», «ruh irodasi»dan iborat. Deb bildi va ijtimoiy taraqqiyotni Pruss monarxiyasi bilan cheklab qo'ydi. Lekin jamiyatni taxlil etishning dialektik metodini asoslab berganligi Gegel falsafiy qarashlarining eng katta yutug'i edi.

Ijtimoiy bilish hozirgi davr falsafasining xam muxim muammosi bo'lib hisoblanadi. Inson o'z ongi, tafakkuri bilan jamiyatni bila oladimi? Uning ijtiomiy bilimlari qay darajada xaqiqat bo'la oladi? Degan savollariga javob xozirgi davr falsafasida ijtiomiy bilishga doir 2 xil munosabatni keltirib chiqardi. Bu narsa ijtimoiy falsafada: 1. Naturalizm

2. Gumanitarizm falsafiy yo'nalishlarining shakllanishiga turtki bo'ldi.

1 – ko'rgazmali chizma:

IJTIMOY BILISHNING XOZIRGI ZAMONGA XOS TALQINI

NATURALIZM

Tabiiy va tabiiy-texnik bilimlarning ahamiyatini b'rttirish asosida gumanitar soxa, ya'ni ijtimoiy bilimlarning keragi yo'qligini asoslaydi.

GUMANITARIZM

Ijtimoiy bilimlardan boshqa bilim soxalarini e'tiborga olmaydi; gumanitar ong va ijtimoiy bilimlarni mutlaqlashtirish o'lasini ilgari o'ynaydi

Naturalizm yo'nalishi tarafdorlari tabiiy va ijtimoiy bilish orasida hech qanday farq yo'q, deb xisoblaydilar. Polyak olimi Ye.Topolskiy tarixiy bilishni inkor qiladi. Uning fikricha, tarixni bilishga doir muammolar bir vaqtning o'zida bilishning boshqa shakllarida xam mavjud. Bundan tabiiy fanlar soddasidagi bilimlarga xaqiqiy ilmiy bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqariladi. Garchi bu qarash hozirgi davr falsafasiga xos hisoblansa-da, aslida bunday qarashlarning ildizi Yevropada 17-18 asrlarga borib taqaladi. Ma'lumki, XVII-XVIII asrlarda tabiatshunoslik rivojlanish bosqichiga kirgan, mexanika eng rivojlangan fan edi. Mexanika qonunlarini jamiyatni tushunishga tatbiq etish mumkik, degan qarash mavjud edi. Shunday nuqtai-nazar nemis olimi Genrix Rikkert (1863-1936 y.) qarashlariga xos. U fanlarni tarixiy fanlar va qonun yaratuvchi fanlarga bo'ladi va ularni o'zaro bir-birlarini inokr etuvchi soxalar, deb biladi. Uning fikricha, tabiiy ilmiy bilish umumiy qonuniyatlarni bilishga qaratilgandir; tarix bo'lsa, yagona, betakror xodisalarni o'rganadi. Rikker o'z qarashlarida tarixiy qonuniyatlarni inkor etadi.

Ikkinchi nuqtai-nazar gumanitarizm. Mazkur nuqtai-nazar yangi tarix falsafasi namoyondalari nemis olimi Osvald Shpengler (1880-1936 y.), ingliz olimi Arnold Toynbi (1889-1975 y.) asarlarida aks etgan.

Ijtimoiy bilish ilmiy bilishning o'ziga xos ko'rinishi xisoblanadi. Ilmiy bilish olamni chuqur, atroflicha o'rganishni talab qiladi. Ilmiy bilish natijalari ilmiy bilimlarda, fan mazmunida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy bilish jamiyat, insonni chuqur o'rganishni talab qiladi.

Ijtimoiy bilish – jamiyatni, unda kechayotgan ijtimoiy xodisa, jarayonlarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi, yashashi va rivojlanishi qonuniyatlarini bilishdir. Ijtimoiy bilishdan ko'zda tutilgan maqsad jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot xaqidagi ob'ektiv mazmunga ega bilimni – ijtimoiy xaqiqatlarni xosil qilishdir.

Ijtimoiy xaqiqat deganda ijtimoiy bilimning ijtimoiy borliqqa, jamiyatga mos kelishi (adekvatligi) nazarda tutiladi.

Ijtimoiy bilish o'zining bir qator jixatlari bilan tabiatni bilishdan farqlanadi.

- Jamiyat moddiy olamning eng murakkab ko'rinish. Jamiyatni bilish deganda, unda kechgan va kechayotgan voqea-xodisalarni ijtimoiy jarayonlarni anglash jarayoni nazarda tutiladi.

- Jamiyat uni tashkil etuvchi kishilar, turli ijtimoiy guruxlar, tarixiy-etnik birliklar faoliyatlarining barcha ko'rinishlarini xamda ularning maxsul-natijalarini o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyat esa o'z-o'zidan shakllanuvchi, o'z-o'zidan rivojlanib boruvchi ijtimoiy tizim. Bu tizimning barcha xususiyatlari kishilar faoliyatlari orqali namoyon bo'ladi. Demakki, jamiyatni bilish deganda avvalo kishilar faoliyatlarini vash u faoliyatning asosiy motivlari (kishilarning maqsad-manfaatlarini)ni taxlil etish nazarda tutiladi. Kishilar faoliyatlari mohiyatini anglash jamiyat xaqida chin bilimlar xosil qilish imkonini beradi.

- Odamlar faoliyatlari jarayonida o'zaro bir-birlari bilan aloqa-munosabatga kirishadilar. Shu ma'noda jamiyat kishilararo ob'ekti vtarzda sodir bo'ladigan ijtimoiy aloqa va munosabatlarning maxsuli va ko'rinishidir. Bu aloqa va munosabatlar jamiyat xayotining barcha sohalarini, moddiy va ma'naviy xayotni qamrab oladi. Shunday ekan, jamiyatni bilish uchun undagi mavjud turli ijtimoiy aloqa va munosabatlar o'rganish talab qilinadi.

- Ijtimoiy bilish ijtimoiy extiyoj va manfaatlarni o'rganishga qaratilgan bo'ladi. Ijtimoiy manfaatlarda esa tarixiy zaruriyat o'z ifodasini topadi. Tarixiy

zaruriyatni anglash jamiyatdagi o'zgarishlarning mohiyatini anglash asosida yuzaga keladi.

- Falsafiy tafakkur olamga, shu jumladan jamiyatga dialektik munosabatda bo'lishni taqazo etadi. Jamiyat uzluksiz harakat, o'zgarish, taraqqiyot jarayonlarini kechiradigan ijtimoiy tizimdir. Ana shunday xolat uzluksiz qayta shakllanib, rivojlanib boradigan ijtimoiy bilimlarda o'z ifodasini topadi.

- Ijtimoiy bilish o'zining mazmuni, qanday maqsadga yo'naltirilganligi, tarkibi, unda qo'llaniladigan o'ziga xos usul va vositalariga ko'ra bilimning boshqa ko'rinishlaridan farqlanadi.

Ijtimoiy bilimning mazmunida jamiyat xayoti to'laligicha, barcha aloqa va munosabatlari bilan birga yaxlitlik, bir butunlik sifatida aks etadi. Bu xoll jamiyatni to'g'ri anglash, tarasqiyot tendentsiyalarini aniqlash imkonini beradi.

- Ijtimoiy bilish jamiyat xayotini to'g'ri anglash vash u asosda ongli faoliyat ko'rsatish imkonini beradi. Jamiyatni bilish uni oqilona boshqarish va kelajak taraqqiyoti istiqbollari aniqlashda muxim axamiyatga ega bo'ladi.

- Ijtimoiy bilish tarkibi deganda:

a) ijtimoiy bilish sub'ekti;

b) ijtimoiy bilish ob'ekti;

v) ijtimoiy bilimning o'zi nazarda tutiladi.

Ijtimoiy bilish sub'ekti – inson (tadqiqotchi), ob'ekti – jamiyat xayoti.

Ijtimoiy bilimni xosil qilish murakkab dialektik xarakterga ega jarayon bo'lib xisoblanadi. Umuman ilmiy bilish, shu jumladan ijtimoiy bilish uzviy ravishda o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ikki bosqich – darajada namoyon bo'ladi:

1. Ijtimoiy bilishning empirik bosqichi:

2. Nazariy bosqichi.

Ijtimoiy bilishning bu ikki darajasi o'z mazmunniga ko'ra, ko'zda tutilgan maqsadga xamda bilimni xosil qilishda qo'llaniladigan usullarga ko'ra o'zaro bir-biridan farq qiladi.

2 – ko'rgazmali chizma:

IJTIMOIIY BILISH

Maqsad: chin bilim xosil qilish (ijtimoiy xaqiqat). Ijtimoiy bilimlarning ijtimoiy borliqqa mos kelishi (adekvatligi) ijtimoiy xaqiqat.

IJTIMOIIY BILISH DARAJALARI

EMPIRIK BILISH

Kuzatish

Statistik usul

Ijtimoiy eksperiment

Xujjatlar, manbalar

bilan ishlash

NAZARIY BILISH

Tarixiylik va mantiqiylik

Modellashtirish

Tarixiy analogiya

Ijtimoiy bashorat

Empirik bilish jarayonida o'rganilayotgan ijtimoiy ob'ekt xaqidagi dastlabki bilimlar hosil bo'ladi.

Bu bilimlar qayta ishanishi, maxsus metodlar qo'llanishi natijasida ijtimoiy ob'ekt xaqida chin bilimlar xosil bo'ladi.

Ijtimoiy empirik bilishda dastlab qo'llaniladigan maxsus usul kuzatish, deb yuritiladi. Kuzatish metodi eng qadimgi davrlardan boshlab qo'llangan. Kuzatish metodidan foydalanishda uning o'ziga xosligini hisobga olish muxim bo'lib xisoblanadi. Kuzatuv orqali muayyan ijtimoiy jarayonlar, kishilar, ijtimoiy guruhlarning xatti-harakatlari, faoliyati o'rganiladi. Kuzatuv xar xil metodlarda olib borilishi mumkin. Bularga:

a) muntazam, ma'lum bir vaqt mobaynida davomli kuzatuv:

b) epizodlik kuzatuv; dala sharoitida kuzatuv, epizodlik kuzatuv, maxsus laboratoriya sharoitidagi kuzatuvlarni misol qilib olish mumkin.

Kuzatuv metodidan to'g'ri foydalana bilish muxim ahamiyatga ega. Bunda kuzatuvning maqsadini aniq belgilash, ob'ektning xolat, xususiyatlariga e'tibor berish; kuzatuv natijalarini qayd qilib borish; to'plangan natijalarni matematik statistika metodlari yordamida xisoblab chiqish talab etiladi. Ijtimoiy jarayonlarni kuzatish tabiiy jarayonlarni kuzatishdan jiddiy farqlanadi. Tabiiy jarayonlar kuzatilganda insonning ob'ektga ta'siri unda muayyan bir o'zgarishni xosil qilish shart emas. Tabiiy jarayonlar qanday bo'lsa, shundayligicha, yoki maxsus laboratoriya ishlari jarayonida amalga oshirilishi mumkin. ijtimoiy jarayonlarni kuzatish deganda jamiyat a'zolari: alohida kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-xarakatlari, munosabatlarini o'rganish nazarda tutiladi. Bunda kuzatuvchining faoliyatiga kuzatiladigan ob'ekt befarq bo'la olmaydi. Bunda ishonarli natijani qo'lga kiritmoq uchun ko'proq ichdan kuzatish usulidan foydalaniladi. Bunda o'rganilayotgan ob'ekt (inson, muayyan ijtimoiy gurux)ni shu jamoaga a'zo boshqa odamlar qatorida amalga oshirish mumkin bo'ladi. Kuzatish ijtimoiy ob'ektlarda xronokartalar shaklida olib borilishi mumkin.

Statistika ma'lumotlaridan foydalanish bilvosita amalga oshiriladigan kuzatuv xisoblanadi. Bunda tadqiqotchi ijtimoiy xayotni o'rganish uchun statistik ma'lumotlarni o'rganadi, taxlil qiladi, o'zaro bir-birlari bilan solishtirish orqali muayyan xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jamiyat xayotining talay tomonlarini o'rganishda statistik usuldan, maxsus ishlab chiqilgan yordamchi qo'llanmalardan foydalanish mumkin. ijtimoiy bilishda eksperiment usulidan keng foydalaniladi.

Ijtimoiy eksperiment metodini qo'llashda uning o'ziga xosligini inobatga olish lozim bo'ladi. Gap shundaki tabiiy fanlar doirasida qo'llanadigan eksperiment turli faktlarda takrorlansa xam, aynan bir xil ma'lumot olish imkonini beradi. Ijtimoiy eksperiment bundan farqli o'laroq konkret tarixiy vaziyatni xisobga olishni taqozo etadi. Turli davrlarda va turlicha sharoitda o'tkaziladigan ijtimoiy eksperiment turlicha xulosalarni chiqishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy eksperiment olib borilayotgan ob'ektni boshqa ijtimoiy ob'ektlarda ajratib olish qiyin. Shuning uchun xam sotsial eksperiment natijalari doimo yaxshi natija beravermaydi. Ijtimoiy shart-sharoit, muxit eksperimentning ijobiy natijalarini ta'minlab bermasligi mumkin. Ijtimoiy eksperiment jamiyat amaliy faoliyatida qo'llashga yo'naltirilgan bo'ladi. Ijtimoiy tadqiqotlarda xujjatlar, manbalar taxlili muxim o'rin tutadi.

Ijtimoiy bilishning empirik bosqichi ijtimoiy ob'ekt xaqida dastlabki bilimlarni xosil qila imkonini beradi, bu xali ijtimoiy xayot muammolarini chuqur o'rganish usun yetarli emas.

Shuning uchun xam ijtimoiy bilishning nisbatan yuqori darajasini olib borish talab etiladi.

Bunda kuzatish, eksperiment natijasida xosil qilingan dastlabki bilimlar maxsus metodlardan foydalangan xolda qayta ishlanadi, o'rganiladi. Nazariy bilishdan maqsad, ijtimoiy jarayonlarni chuqur o'rganish va unda maxsus metodlardan foydalana bilish talab etiladi.

Bunday metodlarga tarixiylik va mantiqiylik, modellashtirish, tarixiy analogiya ijtimoiy bashorat kabilar kiradi.


Tarixiylik va mantiqiylik metodi: Biz o'rganilayotgan ob'ektni chuqur anglamog'imiz uchun uning kelib chiqishi, asosi nimalardan iborat ekanini aniqlaymiz. Tarixiylik ob'ektning real tarixini, unda mavjud bo'lgan xodisalarni aniqlash imkonini beradi. Tarixiy dalillarni mantiqiy asoslar bilan berish ob'ektni to'g'ri anglash imkonini beradi.

Modellashtirish usulida ijtimoiy jarayonlar mohiyatini anglash uchun ob'ekt asos bo'la olmagan sharoitda uning o'xshashni yaratish vash u asosda o'rganish nazarda tutiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy bilish, jamiyat, undagi ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri anglash va baxolashga imkon beradi jamiyatni ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini yaratadi, shuningdek jamiyat taraqqiyoti istiqbollarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini yaratadi. Buni quyidagi ko'rgazmali chizmada aks ettirish mumkin:

3 – ko'rgazmali chizma:

JAMIYATNI ILMIY BILISH



Inson o'z kelajagini taxmin va gumonlarga asoslanib emas, balki fan amaliyotning chuqur ilmiy xulosalariga asoslanib bilib oladi. Bundan jamiyatni ilmiy bilish uning kelajagini prognoz qilishga yordam beradi, degan xulosani chiqarish mumkin. inson va insoniyat bilimlari bugungi xayot notekisliklarini tushuntiribgina qolmay, kelajakni oldindan ko'ra bilishga imkon yaratadi.

Bashorat (prognoz) biron-bir xodisaning kelajakdagi xolati xaqidagi ilmiy tadqiqotlarga asoslangan extimoliy xarakterdagi muloxaza.

Bashorat

a) tabiiy-ilmiy;

b) ijtimoiy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy bashoratdan jamiyat xayotida keng foydalaniladi; ular yordamida fan va texnika taraqqiyoti prognozlari, iqtisodiy prognozlar, siyosiy prognozlar ilgari surilishi mumkin. Fan va amaliyot jamiyatni oldindan bilishning eng ishonchli qurolidir.

Jamiyat hayotini chuqur o'rganishda yuqorida bayon etilgan metodlar bilan bir qatorda ekspert baxolash, ekstrapolyatsiya, tarixiy analogiya, kompyuter orqali namunalashtirish metodlaridan xam foydalaniladi.

Ekstrapolyatsiya muayyan biron-bir xodisaning bir qismini kuzatish natijasida olingan xulosani boshqa qismga, boshqa xududga, yoki kelgusiga tadbqiq etish.

Ekspert baxolash tarixiy jarayon xaqidagi chuqur va aniq ilmiy tasavvurlarga, ilmiy tadqiqot natijalariga tayangan xolda baxs berish. Tarixiy analogiya biron-bir jarayon, xodisa xaqida o'tmish xodisalariga qarab xulosa chiqarish.


Ijtimoiy bilish avvlao jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochishga vash u asosda ongli faoliyat ko'rsatishga yordam beradi. Jamiyat taraqqiyoti qonuniy jarayon, unda amal qiladigan qonunlar umuminsoniy xarakterga ega. Ayni vaqtda bu qonunlar alohida olingan mamlakatda o'ziga xos tarzda amal qiladi.

Ma'lumki, jaxon miqyosida mustamlakachilikning tugatilishi yangi bosqichning, mamlakatlar demokratik taraqqiyot bosqichini boshlab berdi, bu xolni O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining o'ziga xos «o'zbek modeli» mamlakatimizning ijtimoiy bilish sohasidagi qo'lga kiritgan katta yutug'i xisoblanadi. «O'zbekcha model» mamlakatimizning taraqqiyot istiqbollari o'zida aks ettiradi.


Bu model Respublika Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va uning «O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» kabi asarlarida o'z ifodasini topgan. Unda to'g'ri ko'rsatilganidek, bizning bosh strategik maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish orqali demokratiya xukukiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat. Ayni vaqtda taraqqiyotning har bir bosqichi – yangi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Bunga jamiyatni ilmiy bilish asosida erishildi. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda olib berilayotgan islohotlar, ichki va tashqi siyosatimizning mazmuni aynan ijtimoiy bilish natijasida xosil bo'lgan. Belgilangan strategik maqsad – kelajagi buyuk davlat, taraqqiy etgan mamlaktni barpo etish – kelajak istiqbolimiz.

Sxema 1


Moddiy olamning tarkibiy qismi.



Sxema 3.




Fuqarolik jamiyati murakkab tuzilishga ega bo'lgan jamiyat.



birkorlar, aktsiyaner nuvchi nodavlat tashkilot-
lik jamiyatlari lar.

Dunyo aholisining o'sib borish sura'tlari

Sxema2.



neolit neolit


1987 y. 1999 y

davriga davri oxiri


qadar (3000 yil av.)

Ko'rgazmali chizma 1.


Iqtisodiy ishlab chiqarish usullari



Jamiyatning etnik tarkibi




Sxema 3.



Sxema 1.

Jamiyatning siyosiy tizimi.




Davlat

siyosiy
partiyalar

jamoat
tashkilotlar

Sxema 1.



1 – ko'rgazmali chizma:

IJTIMOIIY BILISHNING XOZIRGI ZAMONGA XOS TALQINI

NATURALIZM

Tabiiy va tabiiy-texnik bilimlarning ahamiyatini b'yrttirish asosida gumanitar soxa, ya'ni ijtimoiy bilimlarning keragi yo'qligini asoslaydi.

GUMANITARIZM

Ijtimoiy bilimlardan boshqa bilim soxalarini e'tiborga olmaydi; gumanitar ong va ijtimoiy bilimlarni mutlaqlashtirish g'oyasini ilgari chiqaradi.

2 – ko'rgazmali chizma:

IJTIMOIIY BILISH

Maqsad: chin bilim xosil qilish (ijtimoiy xaqiqat). Ijtimoiy bilimlarning ijtimoiy borliqqa mos kelishi (adekvatligi) ijtimoiy xaqiqat.

IJTIMOIIY BILISH DARAJALARI

EMPIRIK BILISH

Kuzatish

Statistik usul

Ijtimoiy eksperiment

Xujjatlar, manbalar

bilan ishlash

NAZARIY BILISH

Tarixiylik va mantiqiylik

Modellashtirish

Tarixiy analogiya

Ijtimoiy bashorat

JAMIYATNI ILMIY BILISH

Jamiyat, undagi ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri anglash, baxolash imkonini beradi

Jamiyatni boshqarish imkonini beradi.

Taraqqiyot istiqbollarini aniqlash – bashorat qilish (prognozlash)ga yordam beradi.

IJTIMOIIY FALSAFA

FANIDA

ishlatiladigan atamalarning izohlari

ABSENTEIZM (*lot. Absens – yo‘qlar, kelmaganlar*) – konstitutsiyaviy huquq fanida saylovchilarning saylov yoki referendumda uzrli sabablarga ko‘ra ishtirok etmasligini anglatuvchi atama.

AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHI - jamiyatni boshqarishning oliy organi. Jamiyat har yili aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini (aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishini) o‘tkazishi shart. Aksiyadorlarning umumiy hisobot yig‘ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin ko‘pi bilan olti oy ichida o‘tkaziladi.

AKSIYADORLIK JAMIYATI - ustav fondi jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi subekt.

BANKLAR - tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag‘lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to‘lovlarni amalga oshirish.

BOSHQARUV SHAKLI - bu huquqiy institut bo‘lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va maxalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o‘zaro munosabatlari tartibini o‘z ichiga oladi.

VOTUM (*lot. votum — xohish, iroda*) – saylov jamoasi yoki vakillik muassasasining ko‘pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov votumi — prezident, parlament, munitsipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kampaniyasining natijasi. Boshqaruvning parlamentar shaklidagi davlatlar parlamenti amaliyotida votum — qoidaga ko‘ra, quyi palataning hukumat yoki alohida vazirning siyosiy yo‘li, muayyan xatti-harakati yoki qonun loyihasini ma’qullashi (**ishonch** votumi) yoki ma’qullamasligidir (**ishonchsizlik** votumi). Ishonch votumi to‘g‘risidagi masalani qo‘yish tashabbuskori hukumatning o‘zi, parlament fraksiyasi yoki deputatlar guruhi bo‘lishi mumkin. Hukumatga ishonchsizlik bildirilishi amaliyotda shu hukumatning iste’fo berishiga va yangi hukumatni tuzishga (hukumat tangligiga) yoki parlamentni (quyi palatani) tarqatib, parlamentga muddatidan oldin saylovlar o‘tkazishga olib kelishi mumkin. Ikkinchi variant hukumatga parlamentni muddatidan oldin tarqatib yuborishni po‘pisa qilish va shu orqali noma’qul qonun loyihalarini parlamentdan o‘tkazish imkonini beradi. **Ko‘plik (plyural)** votum – ayrim mamlakatlarda bunday votumga ko‘ra saylovchilarning ayrim toifasi saylovda ikki yoki undan ortiq ovozga ega bo‘ladi. **Bilvosita (eventual)** votum – mutanosib saylovlar tizimida ovoz berish natijalarini aniqlash tartibi, unga ko‘ra ma’lum nomzodga berilgan va saylov kvotasidan ortiqcha bo‘lgan ovozlar shu partiya ro‘yxatidagi boshqa nomzod hisobiga o‘tkaziladi. **Majburiy** votum - ayrim mamlakatlarda barcha yuridik salohiyatli fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ishtirok etish bo‘yicha yuridik majburiyati (bu tartibni buzganlarga jarima solinishi mumkin).

VAZIR (arab. yuk ko‘taruvchi) – o‘rta asrlarda O‘rta va Yaqin Sharq davlatlarida, shu jumladan, O‘rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon)

boshlig'i. Yuqori mansabdor shaxs. V. hukumat a'zosi hamda ma'lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxsdir.

VAZIRLAR MAHKAMASI – Isroil, Latviya, Yaponiya, Shri-Lanka, Qozog'iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

VAZIRLAR MAHKAMASINING FARMOYISHLARI - Vazirlar Mahkamasining tezkor va boshqa joriy masalalar bo'yicha qarorlari. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasi va 93-moddasiga asoslangan holda Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlarini hamda Bosh vazir farmoyishlarini bekor qilishga haqli. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ularda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

VAZIRLIK – ko'pchilik davlatlarda davlatning markaziy idora organi, ijtimoiy-madaniy qurilish va ma'muriy-siyosiy faoliyatning ayrim tarmoqlarini boshqaradi. Yangi Vazirliklar tuzish, mavjudlarini tugatish, ularning rahbarlarini tayinlash O'zbekistonda Prezident vakolatiga kiradi va davlatning oliy vakillik organi – Oliy Majlis tomonidan tasdiqlanadi.

VALYUTA - chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari va sof quyma oltin valyuta boyliklari hisoblanadi.

VETO (*lot. Veto - taqiqlayman*) — hozirgi zamon davlatlarida qandaydir bir organning qarorini to'xtatib qo'yadigan yoki kuchga kirishga yo'l qo'ymaydigan harakat. Davlat boshlig'iga parlament qabul qilgan qonunlarga Veto qo'yish (qarorlarni taqiqlash) huquqining berilishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Vetoning **mutlaq** (yoki **rezolotiv**), bunda davlat boshlig'i parlament qabul qilgan qonunni uzil-kesil qaytarish huquqiga ega bo'ladi va **nisbatan (kechiktiradigan** yoki **suspensiv**) turlari farqlanadi.

DAVLAT APPARATI (inglizcha *machinery of government so‘zi*) – davlat organlari tizimi bo‘lib, ular faoliyati orqali davlat hokimiyati va uning funksiyalari amalga oshiriladi.

DAVLAT BOSHQARUVI –davlat organlarining tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo‘lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta‘minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo‘ladi.

DAVLAT BOSHQARUVI USULLARI – davlat tomonidan boshqaruv sohasidagi vazifalar qanday hal qilinishi tushuniladi. Davlat o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida hamda vazifa va funksiyalarni bajarish uchun turli xil usullardan foydalanadi. Ishontirish va majburlash keng tarqalgan ma‘muriy usullardir.

DAVLAT BOSHLIG‘I – (inglizcha “head of the state”) -oliy davlat lavozimi bo‘lib, u ijro hokimiyati soxibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxs. Monarxiyalarda —Buyuk Britaniya, Daniya, Shvetsiya, Ispaniya, Yaponiyada – d.b. monarx (korol, imperator, emir) bo‘lib, uning hokimiyati qoidaga ko‘ra, hukmron shajara vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o‘tkaziladi. Respublikalarda (Italiya, Fransiya, GFR, AQSh, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) d.b. prezident bo‘lib, u yoki bevosita aholi tomonidan saylanadi (Meksika, panama, Kolumbiya), yoki bilvosita (AQSh, Argentina), yoxud ko‘p bosqichli saylovlar (Italiya, GFR, Hindiston) natijasida saylanadi. Ko‘pchilik davlatlarda individual davlat rahbari mavjud, prezidentlik respublikalarida davlat rahbari ayni paytda hukumat rahbari ham hisoblanadi. (AQSh, Meksika, Argentina, Afrikaning ayrim davlatlarida).

DAVLAT QO‘MITALARI – (O‘zRda) umumdavlat vazifalarni bajaradigan sohalararo davlat boshqaruvi markaziy idoralari. D.q. tegishli tarmoq muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. D.q. tegishli tarmoqdagi ahvol uchun mas‘ul hisoblanadi. “O‘zR Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonuni (1993 y. 6 may) va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari D.q. ning huquqiy holatini belgilab bergan.

DAVLAT NAZORATI – davlat organlari chiqaradigan qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta‘minlaydigan davlat hokimiyatini amalga oshirish shakllaridan biri. Davlat nazoratini turli organlar amalga oshiradi. Odatda nazorat vazifasi asosan parlamentlarda to‘plangan, ammo keyingi o‘n yillikda ko‘pgina mamlakatlarda parlamentdan tashqari, biroq parlament nomidan ish yuritadigan nazorat instansiyalari keng tarqaldi (masalan, *ombudsman*, *hisob palatasi*), *ma‘muriy yustitsiya* organlarining soni va roli o‘sdi.

DAVLAT ORGANI – davlat mexanizmining tarkibiy qismi bo‘lib, u davlat oldida turgan vazifa va funksiyalarning muayyan konkret qismini, yo‘nalishini amalga oshiradi va shu maqsadda tegishli davlat-huquqiy vakolatlariga, zaruriy kompetensiyaga ega bo‘ladi.

DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRISH - davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga, davlatga qarashli mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar tashkilotlarga aylantirishdir.

DEPUTAT (lotincha deputatus – “vakil”) – qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga saylangan shaxs, aholining ma‘lum qismi – o‘z saylov organi saylovchilarning yoki butun millatning vakili.

DEPUTAT (parlament) ETIKASI (*gr. Ethika, ethoc – odat, xulq*) — deputatlar ichki parlament muloqoti axloqiy va ma‘naviy normalari yig‘indisi. Deputat etikasiga rioya qilish majburiyati har bir deputatning faqat axloqiy emas, balki yuridik majburiyati ham bo‘lib, ham ijtimoiy, ham ijtimoiy ta‘sir vositalari bilan ta‘minlanadi.

DEPUTAT MAQOMI — vakillik davlat hokimiyati organlari deputatlarining huquqiy holati bo‘lib, u deputatlik mandatining siyosiy-huquqiy tabiati, uning yuzaga kelishi, to‘xtatilishi, amalda bo‘lish muddati, deputatlar vakolati, ular faoliyatining kafolatlanganligi, shuningdek, deputatlarning hisobdorligi, nazorat qilinishi va javobgarligi bilan bog‘langan ijtimoiy munosabatlarni boshqaradigan huquqiy normalar majmui bilan aniqlanadi. Deputat maqomini mustahkamlovchi huquqiy normalar konstitutsiyalarda, maxsus qonunlar, palatalar reglamentlarida beriladi.

DEPUTATLIKKA NOMZOD – qonunda belgilangan tartibda davlat hokimiyati vakillik organlari deputatligiga nomzod sifatida tegishli saylov komissiyalari tomonidan ro‘yxatga olingan, passiv saylov huquqiga ega bo‘lgan fuqaro. Davlat hokimiyati vakillik organlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish siyosiy partiyalar tomonidan, qolaversa, xalq deputatlari tuman, shahar kengashlari deputatligiga nomzodlar ko‘rsatish huquqiga esa siyosiy partiyalar bilan bir qatorda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan amalga oshiriladi.

DEPUTATNING RASMIY (SO‘ROVI) TALABI — vakillik muassasasi deputatining davlat boshqaruv organiga yoki mansabdor shaxsga mazkur vakillik muassasasi vakolatiga kiradigan masala bo‘yicha axborot va tushuntirishlar berish talabi bilan murojaati.

YOPIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI - aksiyalari faqat o‘z muassislari yoki oldindan belgilangan doiradagi shaxslar orasida taqsimlanadigan jamiyat.

JAMIYATNING IJROIYA ORGANI - jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qiladigan organ bo‘lib, u yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi (direktor) yoki kollegial ijroiya organ (boshqaruv, direksiya) tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

JAMIYATNING KUZATUV KENGASHI - jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladigan organ.

JAMOAT TASHKILOTI – fuqarolik jamiyati institutlarining muhim shakllaridan biri bo‘lib, o‘z huquqlari, erkinliklarini xamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va hayotning boshqa sohalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xohish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat tashkiloti sifatida e’tirof etiladi.

JAMOAT FONDI – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoliqi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e’tirof etiladi.

JAMOATCHILIK NAZORATI – fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri bo‘lib, u fuqarolik jamiyatini shakllanitirish jarayonida davlatning iqtisodiy sohaga, xo‘jalik yurituvchi tuzilmalar, ayniqsa, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash hamda qonunlar ijrosi bo‘yicha davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan olib boriladigan ijtimoiy nazorat shakllaridan biridir.

IMZO VARAQASI – siyosiy partiyaning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga bo‘lib o‘tadigan saylovlarda ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash yuzasidan saylovchilar imzosini to‘plash uchun tuziladigan hujjat.

INSON HUQUQLARI – insonning davlatga munosabati bo‘yicha huquqiy maqomini, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi imkoniyat va da’volarini ifodalovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali amalga oshirilishi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA MILLIY MARKAZ – inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yanada kengaytirish, xalqaro va huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo‘yicha madaniyatini oshirish maqsadida tashkil etilgan markaz.

ICHKI AUDIT XIZMATI - aktivlarining balans qiymati bir milliard soʻmdan koʻp boʻlgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, tasis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda malumotlarning toʻliq hamda toʻgʻri aks ettirilishi taminlanishini, xoʻjalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-tamoyillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

ISHONCHLI VAKILLAR – saylov jarayonida siyosiy partiyalar tomonidan koʻrsatilgan nomzodlar nomidan harakat qiluvchi shaxslar. Ishonchli vakil istagan vaqtda oʻz vakolatlarini zimmasidan soqit qilishga haqli. Ishonchli vakil saylov komissiyasiga aʼzo boʻlishi mumkin emas.

KASABA UYUSHMALARI – kasaba uyushmasi koʻngilli jamoat tashkiloti boʻlib, ham ishlab chiqarish, ham noishlab chiqarish sohalaridagi faoliyat turiga qarab, oʻz aʼzolarining mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini hamda manfaatlarini himoya qilish uchun mushtarak manfaatlar bilan bogʻlangan mehnatkashlarni birlashtiradi.

KREDIT UYUSHMALARI - kreditlar berish hamda boshqa moliyaviy xizmatlar koʻrsatish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy teng huquqli aʼzolik asosida tuziladigan kredit tashkilotidir.

KUZATUVCHI – Oʻzbekiston Respublikasida saylov jarayonida deputatlikka nomzodlar koʻrsatgan siyosiy partiyalar va fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlar tomonidan tayinlanadigan hamda qonunda belgilangan tartibda kuzatuvchi sifatida roʻyxatga olinadigan shaxs. Kuzatuvchilar mahalliy va xalqaro kuzatuvchilarga boʻlinadi. Ularning vakolatlari tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan boʻlishi kerak.

KOʻPPARTIYAVIYLIK – hozirgi demokratik davlatlarda siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplaridan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmni ancha umumiyroq boʻlgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. K. P. prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning oʻz dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonun oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi.

QONUN – davlat hokimiyatining oliy vakillik organi tomonidan yoki bevosita xalqning xohish - irodasiga ko‘ra (masalan, *referendum* o‘tkazish yo‘li bilan) qabul qilingan va qoida tariqasida, eng muxim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik hujjat.

QONUN LOYIHASI – qonun chiqaruvchi organga qabul qilish uchun taklif qilinayotgan yoki referendumda ko‘rishga kiritish uchun tayyorlangan qonunning matni.

QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYAT – bu Konstitutsiyada mustahkamlangan oliy davlat vakillik idorasining qonunlar qabul qilish, ularni o‘zgartirish va bekor qilish bo‘yicha alohida vakolatlari hisoblanadi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir.

QONUNIYLIK – bu jamiyatdagi barcha huquq sub’ektlari tomonidan qonun va qonun osti hujjatlariga to‘la rioya qilinishidir.

QONUNNI E‘LON QILISH – qonunni ma‘lum nashrda bosib chiqarish yo‘li bilan hammaga ma‘lum qilish. Qonunni e‘lon qilishning rasmiy va norasmiy turlari farqlanadi.

QONUNOSTI AKTI – davlat hokimiyati organlarining qonunga nisbatan pastroq yuridik kuchga ega bo‘lgan huquqiy akti. U qonunga asosan va uning ijrosini ta‘minlash yuzasidan chiqariladi.

QONUNCHILIK TASHABBUSI – belgilangan tartibga muvofiq, (vakolatli organ yoki mansabdor shaxs tomonidan) qonunchilik muassasasiga qonun loyihasini rasmiy kiritish. Q.t.– qonunchilik jarayonining birinchi bosqichi hisoblanadi. Q.t.shunday bir harakatlar yig‘indisidirki, buning natijasida qonun chiqaruvchi organga qonun loyihasi yoki qonunchilik taklifi kiritiladi va parlament yangi qonun chiqarish, amaldagisini o‘zgartirish yoki bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish uchun qabul qiladi.

QONUNCHILIKNI TIZIMLASHTIRISH – normativ-huquqiy aktlarni tartibga solish va takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan faoliyat bo‘lib, ularni belgilangan va o‘zaro ichki bog‘langan tizim holiga keltirishni anglatadi. Q.t. qonuniy tartibga solishni takomillashtirish, qonunchilikni eskirgan aktlar va o‘zaro qarama-qarshi normalardan xolos qilish, normativ hujjatlardan foydalanishni yengillashtirish va soddalashtirish, jamiyatning huquqiy madaniyati va huquqiy tarbiyasi darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega.

LIZING - moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing ob‘ektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

MANDAT (vakillik, deputatlik) (*lot. mandatum - topshiriq*) — birorta vakillik muassasasi deputati vakolatlarining qonuniyligini, deputat vakolatlari, huquq va majburiyatlari hajmini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek, parlament yoki boshqa vakillik hokimiyati organi deputati zimmasiga yuklatiladigan ommaviy vazifa, uning mazmuni (mandat xarakteri) konstitutsiya va boshqa konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi. Hozirgi demokratiya davlatlarida Mandatning huquqdorligi deputatning daxlsizligi (**immunitet**) va deputatlik faoliyati uchun taqdirlov puli olish (**indemnitet**)ni o‘z ichiga oladi. Mandat deputatning o‘z saylovchilari bilan o‘zaro munosabat shaklini ham belgilaydi. Hozirgi demokratiya davlatlarida **umummilliy** Mandat deb atalmish mandat bor, unga ko‘ra deputat qandaydir aniq bir saylov okrugining emas, balki butun millat vakili hisoblanadi. Deputat o‘z faoliyatida hech qanday nakaz bilan bog‘lanib qolishi mumkin emas (**imperativ** Mandat bilan) va o‘z Mandati muddati tugamaguncha chaqirib olinishi mumkin emas. Ko‘pgina davlatlar (Italiya, RFR, Fransiya va boshqalar) konstitutsiyalarida imperativ Mandatni bevosita taqiqlovchi ko‘rsatma bor. Sovetlar tipidagi konstitutsiyalar imperativ Mandatni, ya’ni deputatlarning o‘z saylovchilari oldidagi javobgarligini qaror toptiradi, unga ko‘ra saylovchilar o‘z deputatlariga nakazlar berish va ularni qonunda belgilangan tartibda chaqirib olish huquqiga ega (shuningdek, *q. Deputatlar nakazlari. Deputatlarni chaqirib olish Milliy vakillik prinsipi*).

MANDAT KOMISSIYASI — qator mamlakatlar davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish vakillik organlarida shu organ birinchi sessiyasi ishining boshida deputatlardan saylanadigan doimiy komissiyalardan biri. Deputatlar vakolatlarini tekshiradi va vakillik organiga saylangan deputatlar vakolatlarini tan olish to‘g‘risidagi taklifni ko‘rib chiqish uchun kiritadi, saylovlar to‘g‘risidagi qonunchilik buzilgan hollarda esa - ayrim deputatlar saylovlarini qonuniy kuchga ega emas deb tan olish to‘g‘risida taklif kiritadi. Mandat komissiyasi o‘z majburiyatini muddatidan oldin to‘xtatgan deputatga bog‘liq barcha savollar bo‘yicha ham xulosa beradi

MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH – mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni aholining manfaatlari, uning tarixiy, ijtimoiy-etnik va boshqa

xususiyatlaridan kelib chiqib, shu davlat konstitutsiyasi va qonunlari asosida mustaqil (mas'uliyatni zimmasiga olib) hal qilish uchun fuqarolar faoliyatini tashkil etish tizimi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni aholi hokimiyat vakillik organlari (munitsipal majlis, kengashlar, qo'mitalar va boshqalar), muvofiq keluvchi boshqaruv organlari, mahalliy referendumlar, fuqarolar kengashlari, bevosita demokratiyaning boshqa hududiy shakllari, shuningdek, aholining hududiy ijtimoiy o'zini o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshiradi.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI TUSHUNCHASI – nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni o'z qatnashchilari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

OVOZ BERISH – saylov jarayonining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, aktiv saylov huquqiga ega bo'lgan fuqaroning saylovda deputatlikka yoki saylab qo'yiladigan boshqa lavozimga nomzodga o'z ovozini berishga qaratilgan xatti-harakati.

OKRUG SAYLOV KOMISSIYASI – saylov okrugida saylovlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishga rahbarlik qiluvchi, okrugdagi uchastka saylov komissiyalariga uslubiy ko'maklashuvchi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tuziladigan, davlat hokimiyati vakolatiga ega bo'lgan maxsus kollegial organ.

OMBUDSMAN – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo'lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI – ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri bo'lib, u demokratiyani chuqurlashtirish va aholining siyosiy faolligini oshirishda, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotdagi voqelikka nisbatan dahldorlik xissini shakllantirishda, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati, shuningdek jamiyatda yuz berayotgan barcha o'zgarishlar, bo'layotgan jarayonlar xususida keng jamoatchilikka yetkazishda

muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka muvofiq ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlaridagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasi sifatida e'tirof etiladi.

OCHIQ AKSIYADORLIK JAMIYATI - qatnashchilari o'zlariga tegishli aksiyalarini o'zga aksiyadorlarning roziligisiz boshqa shaxslarga berishi mumkin bo'lgan aksiyadorlik jamiyati.

OSHKORALIK – demokratiyaning zarur sharti bo'lib, jamoatchilikning muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar faoliyatiga oid barcha ma'lumot va xabarlarini bilish huquqi hamda tegishli axborotlarni muhokama va nazorat etish uchun ro'y-rost e'lon qilishdir.

PALATALARNING QO'SHMA MAJLISI – ikki palatali tuzilmaga ega bo'lgan parlamentlar ish shakllaridan biri. Qator mamlakatlarda parlamentning qo'shma majlisi parlament vakolatiga kiradigan eng muhim masalalarni: urush holati yoki safarbarlikni e'lon qilish, davlat byudjetini tasdiqlash, respublika Prezidentini saylash va shu kabilarni hal qilish maqsadida, boshqalarida esa faqat davlat boshlig'i maktubini tinglash va boshqa tantanali holatlar o'tkaziladi.

PARLAMENT (deputatlar) FRAKSIYASI – parlament yoki uning palatasida bir partiyaga mansub deputatlar birlashmasi. Odatda Parlament fraksiyasi tarkibiga partiyaning yetakchilari va ko'zga ko'ringan arboblari kiradi.

PARLAMENT (ingl. parlament, frans. ragleg — gapirmoq) — demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada Belgiya, Moldova, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda oliy vakillik organi "parlament" deb yuritiladi; AQShda va Lotin Amerikasining ko'pgina mamlakatlarida p. kongress deb, Rossiya Federatsiyasida – Federal Majlis – Rossiya Federatsiyasi P. deb, Litva va Latviyada – Seym deb ataladi. Tuzilishiga ko'ra p. bir palatali yoki ikki palatali bo'ladi (qarang: Ikki palatali tizim, Bir palatali tizim). Tarixda uch palatali p. ham bo'lgan (masalan, JARda 1984-1994 yillarda). P. birinchi marta XIII asrda Angliyada tabaqalarning vakillik organi sifatida tashkil qilindi.

PARLAMENT INDEMNITETI – (ingl. *Indemnity* lotincha *indemnitatsdan* - *zararsizlik*) 1.Parlament deputatlarining javobgar emasligini belgilaydigan imtiyozlar. Deputatlarning javobgar emasligi deputatni u deputatlik

majburiyatlarini bajarish vaqtida sodir etgan barcha xatti-harakatlari (parlamentda nutq soʻzlash, ovoz berish, komissiyalarda ishtirok etish va boshqalar) uchun taʼqib etilmasligini anglatadi. Hech kim, shuningdek, parlamentning oʻzi ham bunday xatti-harakat uchun, hatto u parlament aʼzolidan chiqqanidan keyin ham deputatni javobgarlikka tortolmaydi. Parlamentdagi faoliyati uchun (deputatlarni) taqdirlash, bunga qarorgoh, yozishmalar, safarlar va shu kabilar xarajatlarini qoplash ham kiradi.

PARLAMENT KOMISSIYALARI – parlament tashkil qiladigan (palatalarning har birida yoki ikkala palata birgalikda – birlashgan Parlament komissiyalari) yordamchi organlar. Qonunchilik Parlament komissiyalari muhim rolni oʻynaydi, chunki parlament qabul qiladigan qonunlar loyihalari qaror va boshqa hujjatlar loyihalarining katta qismi koʻrib chiqish uchun shu komissiyalarga beriladi.

PARLAMENT MUZOKARALARI – parlament faoliyati shakllaridan biri boʻlib, deputatlarning qonun loyihasi yoki qarorlar loyihalarini parlament yoki uni alohida palatasi umumiy majlisda muhokama qilinishidan iboratdir. Parlament reglamenti belgilagan tartibda oʻtkaziladi.

PARLAMENT MUXOLIFATI – hukumatni tashkil qilishda ishtirok etmaydigan, qator prinsipial masalalarda hukumat siyosatiga qarshi chiqadigan birorta partiyaning parlamentdagi deputatlari guruhi yoki parlament fraksiyasi. Qator mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniyada) parlament reglamentlari yoki odatiy huquq normalari Parlament muxolifati maqomi va huquqlarini mustahkamlaydi, jumladan, parlament muxolifati aʼzolarining parlament (yoki uning palatasi) organlaridagi vakillik kvotasini belgilaydi, uning yetakchisiga maxsus maosh tayinlaydi.

PARLAMENT NAZORATI – davlat nazorati shakllaridan biri. Asosan umuman siyosiy, baʼzi holda maʼmuriy tusda boʻladi. Parlamentar davlatlarda va prezidentlik respublikalarida hukumat faoliyati ustidan Parlament nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday nazoratning asosiy metod va shakli ishonch toʻgʻrisidagi masala, tanbeh rezolyutsiyasi, interpellyatsiya, hukumatga ogʻzaki va yozma savollar (parlament savollari) parlament tekshirishidir.

PARLAMENT SESSIYASI (*lot. sessio - yigʻilish*) – parlament (parlament palatalari) va parlament komissiyalarining yalpi majlisi boʻlib oʻtadigan davr. Har bir yil mobaynida navbatdagi Parlament sessiyasining necha marta boʻlishi qonun yoki odat boʻyicha belgilanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati majlislari zaruratga qarab, yiliga kamida uch marta oʻtkaziladi

PARLAMENT SO‘ROVI – parlamentar davlatlarda hukumat faoliyati ustidan parlament nazoratining shakllaridan biri. Parlament savollarini deputatlar og‘zaki va yozma berishlari mumkin. Parlament reglamenti Parlament savollari berilishi mumkin bo‘lgan qoidalarni, ularni kiritish tartibini, shuningdek, hukumat yoki alohida vazir javobni taqdim etishi lozim bo‘lgan muddatni belgilaydi. Umumiy qoidaga ko‘ra, Parlament savoliga javob Parlament savoli qanday shaklda (og‘zaki yoki yozma) berilgan bo‘lsa, shunday shaklda qaytariladi. Parlament so‘roviga javobni davlat hokimiyati boshqaruv organlaring mansabdor shaxslari Qonunchilik palatasi majlislarida beradilar.

PARLAMENT TA‘TILLARI – parlament sessiyalari o‘rtasidagi davr, bundan deputatlar dam olish va o‘z okruglarida saylovchilar bilan ishlash maqsadida foydalanishadi.

PARLAMENTNI TARQATIB YUBORISH – parlamentar davlatlarda, shuningdek, aralash turdagi respublikalarda davlat hokimiyatini amalga oshirish konstitutsiyaviy mexanizmining asosiy elementlaridan biri. Parlamentni tarqatib yuborish (muddatidan oldin parlamentga saylovlarni e‘lon qilish) huquqi davlat boshlig‘iga tegishli (garchi bundan u, qoidaga ko‘ra faqat hukumat “iltimosiga” binoan foydalansada) hamda u hukumatning parlament oldidagi javobgarligi tartibotiga (institutiga) qarshi qo‘yiladigan tartib hisoblanadi.

SAYLOV – demokratiyaning asosiy belgisi bo‘lib, ovoz berish yordamida davlat hokimiyatining vakillik organlarini yoki mansabdor shaxsini, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini, jamoat birlashmalarini va boshqalarni bevosita xalqning xohish-irodasiga asoslangan holda, ular tomonidan yoki boshqa organ tomonidan shakllantirish bilan bog‘liq jarayondir. Saylov tushunchasi ko‘proq davlat hokimiyatining vakillik organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saylashga nisbatan qo‘llaniladi.

SAYLOV BYULLETENI – Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tegishli tartibda va shaklda tasdiqlanadigan, o‘zida deputatlikka nomzod haqidagi ma‘lumotlar (famiyasi, ismi, ota-sining ismi, tug‘ilgan yili, egallab turgan lavozimi (mashg‘ulotining turi) va uni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatgan siyosiy partiyani)ni aks ettirgan, fuqarolarning yashirin ovoz berish huquqini amalga oshirishini ta‘minlovchi saylov hujjatidir. Saylov byulletenlariga biror-bir belgi qo‘yish mumkin emasligi, hamma byulletenlar bir xil rangda va hajmda, shaklda bo‘lishi yashirin ovoz berishni kafolatlaydi. Saylov byulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasida to‘ldiriladi, byulletenni to‘ldirish vaqtida u yerda ovoz beruvchidan boshqa shaxslarning hozir bo‘lishi taqiqlanadi.

SAYLOV VARAQASI – saylov kuni ma'lum sabablarga ko'ra o'zining turarjoyida bo'lish imkoniyati bo'lmagan holda saylovchining ovoz berish huquqini amalga oshirish vositasi hisoblangan, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan, nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etilgan, saylovchilarning oldindan ovoz berish huquqini ta'minlovchi hujjat. Saylov varaqalari davlat tilida, shuningdek okrug saylov komissiyasining qaroriga binoan saylov okrugi hududidagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tillarda nashr etiladi.

SAYLOV JARAYONI – saylovlarni tashkil etish va o'tkazish yuzasidan amalga oshiriladigan tadbir va choralar yig'indisidir. Saylov jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: a) saylov kunini belgilash; b) saylov okruglarini belgilash va ularda saylov uchastkalarini tashkil etish, saylovchilar ro'yxatini tuzish; v) siyosiy partiyalar tomonidan nomzodlarni ko'rsatish va ro'yxatga olish; g) nomzodlar va siyosiy partiyalar tomonidan saylovoldi tashviqotini olib borish; d) ovoz berish va ovoz berish natijalarini aniqlash; ye) saylov natijalarini e'lon qilish.

SAYLOV KAMPANIYASI – saylov kampaniyasi boshlanganligi haqidagi Markaziy saylov komissiyasi qarori rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab saylov natijalari rasmiy e'lon qilinadigan kungacha bo'lgan oraliqdagi davr.

SAYLOV KAMPANIYASI BOSHLANGANLIGINI E'LON QILISH – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovi bo'yicha saylov kampaniyasi boshlanganligi avvalgi chaqiriq Qonunchilik palatasi deputatlarining vakolat muddati tugashidan kamida uch oy oldin Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan davr.

SAYLOV KVOTASI – bitta deputatni saylash uchun zarur bo'lgan eng kam ovoz soni. Saylov kvotasi har bir saylov okrugi uchun alohida hamda o'tkazilayotgan saylov turining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib mamlakat bo'yicha ham aniqlanishi mumkin.

SAYLOV KOMISSIYALARI – saylovlarni o'tkazishga mas'ul bo'lgan va ularni tashkiliy-moddiy jihatdan ta'minlaydigan davlat hokimiyati vakolatiga ega maxsus kollegial organlar. O'zbekistonda Markaziy saylov komissiyasi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tuziladi va u o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi.

SAYLOV MADANIYATI – saylovchilarning o'z siyosiy huquqlaridan oqilona foydalanib, saylovlarda faol ishtirok etishi, shuningdek, ularning hamda saylov

tashkilotchilarining saylovlarni o'tkazish, unda qatnashish va ovoz berish chog'ida amaldagi qonunlarga, o'rnatilgan tartiblarga amal qilishi, saylov qatnashchilarining bir-birlarini hurmat qilishi tushuniladi.

SAYLOV TIZIMI – demokratik jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi bo'lib, fuqarolarning saylash va saylanishdan iborat huquqini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisini anglatadi. Ushbu tushuncha davlatning saylab qo'yiladigan organlarini shakllantirish tartib-tamoyillarini ham o'z ichiga qamrab oladi.

SAYLOV O'TKAZISH KUNI – saylov jarayonida fuqarolarning o'z siyosiy xohish-irodalari amalga oshiriladigan, ko'rsatilgan nomzodlarga ovoz beradigan kun hisoblanadi.

SAYLOV UCHASTKASI – saylovchilarni tegishli ma'lumotlar bilan, shuningdek barcha saylov huquqiga ega fuqarolarning ovoz berishda ishtirokini hamda berilgan ovozlarni hisoblab chiqishni ta'minlaydigan, saylovchilar ro'yxati tuziladigan va hammaga ma'lum qilish maqsadida tashkil qilinadigan hududiy birlik.

SAYLOV HUQUQI – saylov bilan uzviy bog'liq tushuncha bo'lib, uning mazmunini: a) saylovni tashkil qilish va o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar yig'indisi; b) saylanadigan davlat organlari shakllanishini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi; v) siyosiy partiyalarning kelgusi faoliyat dasturlari bilan tanishish va muhokama qilish, saylanish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish va ovoz berish kabi huquqlar tashkil etadi.

SAYLOVOLDI TASHVIQOTI – Saylovoldi tashviqoti nomzodlarning shaxsi, bilimi va salohiyatini saylovchilar oldida to'la namoyon qilishga, saylovchilarni nomzodlar dasturlarining asosiy yo'nalishlari, mazmun-mohiyati va kelgusidagi rejaları bilan yaqindan tanishtirishga, saylovchilarni nomzod uchun ovoz berishga ishontirishga qaratilgan muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha demokratik davlatlarda, shu jumladan mamlakatimizda ham saylovlar jarayonida saylovoldi tashviqoti bosqichiga alohida e'tibor beriladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, saylovoldi tashviqotining nomzodlar ro'yxatga olingan kundan e'tiboran boshlanishiga oid tajribani Litva, Moldova, Armaniston davlatlarida, saylov kuni hech qanday tashviqot yuritishga yo'l qo'yilmasligi tartibini esa AQSh, Italiya, Fransiya, Rossiya davlatlari tajribasida kuzatish mumkin.

SAYLOVCHI – aktiv saylov huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi (qarang: aktiv saylov huquqi). Ovoz berishni o'tkazish va saylov

natijalarini aniqlash uchun aktiv saylov huquqiga ega fuqarolar saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi.

SAYLOVCHI MAJBURIYATI – aktiv saylov huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida qonunda belgilangan majburiyatlari (muayyan harakatni amalga oshirishga yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga qaratilgan) majmuidir.

SAYLOVCHI HUQUQI – aktiv saylov huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosining saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish jarayonida qonunda belgilangan huquqlari majmuidir. Jumladan, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”gi Qonunida saylovchining bir qator huquqlari o'z aksini topgan.

SAYLOVCHILAR RO'YXATI – uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladigan rasmiy hujjat bo'lib, ushbu ro'yxatga aktiv saylov huquqiga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiya tomonidan ko'rsatilgan nomzodni saylash huquqiga ega bo'lgan fuqarolar kiritiladi.

SIYOSIY PARTIYA – o'z a'zolari va tarafdorlarining siyosiy irodasini ifoda etadigan, shu davlat siyosiy yo'nalishini belgilashda, davlat hokimiyat organlarini shakllantirishda, shuningdek, hokimiyatni o'zining vakillik hokimiyat organlariga saylangan vakillari orqali amalga oshirishda ishtirok etishni o'ziga vazifa qilib olgan barqaror tuzilmaga va doimiy faoliyat xarakteriga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy birlashma. Partiyaning aniq yuridik ta'rifi muayyan davlatlar qonunchiligida beriladi va ular mahalliy siyosiy va huquqiy an'analarga ko'ra jiddiy farqlanishi mumkin.

SIYOSIY PARTIYA – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir (O'zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to'g'risida”gi Qonuni 1-moddasi).

TADBIRKORLIK FAOLIYATI (TADBIRKORLIK) - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat.

TAKRORIY OVOZ BERISH – saylovda nomzodlar yetarli ovoz to‘play olmaganda takroriy ovoz berish o‘tkaziladi. Takroriy ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning ovozini boshqa nomzodga nisbatan ko‘proq olgan deputatlikka nomzod saylangan deb hisoblanadi. Takroriy ovoz berishda saylovchilarning ishtirok etishi foizi hisobga olinmaydi.

TAKRORIY SAYLOV – “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi Qonunning 46-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatining takroriy saylovi quyidagi hollarda o‘tkaziladi: a) agar saylov okrugida saylov o‘tmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan bo‘lsa; b) agar takroriy ovoz berish Qonunchilik palatasiga deputat saylanganligini aniqlash imkonini bermagan bo‘lsa; v) agar saylov okrugi bo‘yicha deputatlikka ko‘pi bilan ikki nomzod ovozga qo‘yilgan va ulardan birontasi ham saylanmagan bo‘lsa.

TAFTISH KOMISSIYASI - jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish uchun jamiyat ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan saylanadigan organ. Jamiyat taftish komissiyasining vakolatlari qonun hujjatlari va jamiyat ustavi bilan belgilanadi.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT - O‘zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

TENG SAYLOV HUQUQI – saylov o‘tkazishning asosiy prinsiplaridan biri sifatida saylovlarda ishtirok etuvchi saylovchilar huquqlarining tenglik tamoyili asosida himoyalaniishi, ya’ni har bir saylovchi bir ovozga ega ekanligi, barchaga saylov talablari bir xilda joriy etilishi, hamma uchun bir xil tashkiliy-huquqiy sharoit yaratilishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ushbu prinsip O‘zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma’lumoti, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat’iy nazar, teng saylov huquqiga ega ekanliklarini ham anglatadi.

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI SAYLOV HUQUQI – saylov o‘tkazishning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lgan mazkur huquq orqali fuqarolar ovoz berishda bevosita, hech qanday qo‘shimcha vositalarsiz ishtirok etadi. Har qanday saylovda saylovchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov uchastkalarida ovoz beradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASI – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisiga saylovni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi referendumini tashkil etish va o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tuziladigan hamda o‘z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradigan, davlat hokimiyati vakolatiga ega maxsus kollegial organ. Markaziy saylov komissiyasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining saylov to‘g‘risidagi hamda referendum to‘g‘risidagi qonunlariga va boshqa qonunlarga amal qiladi.

UMUMIY SAYLOV HUQUQI – saylov o‘tkazishning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, ushbu prinsip ma’lum yoshga yetgan, to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi barcha fuqarolarining saylovda (saylash va saylanishda) ishtirok etish huquqiga ega ekanligini anglatadi.

UCHASTKA SAYLOV KOMISSIYASI – tuman, shahar hokimliklarining taqdimnomasiga binoan okrug saylov komissiyalari tomonidan tuziladigan saylov uchastkasida saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishga mas’ul bo‘lgan, davlat hokimiyati vakolatiga ega maxsus kollegial organ.

FERMER XO‘JALIGI - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub’ektdir.

FUQAROLAR YIG‘INI – shaharchalar, qishloqlar va ovullar, shuningdek shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalar fuqarolarining yig‘inlari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridir.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o‘z vakolatlarini tegishli hududda amalga oshiradi.

FUQAROLIK JAMIYATI – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma’naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin, demokratik huquqiy jamiyat.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI – fuqarolik jamiyatini shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, bu bevosita jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining nechog‘lik rivojlanganiga bog‘liq bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati institutlari orqali fuqarolar davlat va jamiyat siyosiy hayotida bevosita ishtirok etadi. Fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlari

sirasiga nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, OAVlari, mahalla, oila kabilar kiradi.

XUSUSIY KORXONA - mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkiloti. Xususiy korxonada tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

XUSUSIYLASHTIRISH – “jismoniy shaxslarning” va davlatga taalluqli bo‘lmagan yuridik shaxslarning ommaviy mulki ob’ektlarini yoki davlat aksiyali jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

HISOB PALATASI – davlatdagi oliy moliyaviy (moliyaviy-iqtisodiy) nazorat organining dunyoda eng keng tarqalgan nomi. Xuddi shu nomda Vengriya, Gretsiya, Ispaniya, Portugaliya, GFR, RF va qator boshqa mamlakatlarda ishlatiladi. AQShda Bosh hisobot boshqarmasi, Braziliya, Jazoir, Fransiya, Ruminiyada – **hisob sudi** deb ataladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 27 iyunda “Hisob palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bu farmonga ko‘ra, Hisob palatasi o‘zining faoliyati to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisga hisobot beradi. Hisob palatasining asosiy vazifasi davlat byudjeti ijrosini nazorat qilish, davlat aktiv va passivlarni holati va harakatini nazorat qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi

HOKIMIYAT VAKILI – davlatning biror bir organining nomidan ish ko‘rib, muayyan vazifalarni doimiy yoki vaqtincha amalga oshiruvchi va o‘z vakolatlari doirasida ko‘pchilik yoxud barcha fuqaro yoki mansabdor shaxslar uchun majburiy bo‘lgan harakatlarni sodir etish yoki farmoyishlar berish huquqiga ega bo‘lgan shaxs.

HOKIMIYATLAR BO‘LINISHI – davlat nazariyasining asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra yagona davlat hokimiyati mustaqil va bir-biriga bo‘ysunmaydigan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linadi (ular bilan bir qatorda ba‘zan ta‘sis etuvchi, saylovchi va nazorat hokimiyati ham ajratiladi).

HUKUMAT – davlatning oliy kollegial ijro etuvchi organi. Hukumat turli mamlakatlarda turlicha nomlanishi mumkin: Vazirlar kengashi (Fransiya, Italiya, Polsha), Vazirlar Mahkamasi (Buyuk Britaniya, O‘zbekiston), Davlat kengashi (XXR) va boshqalar. Hukumat **partiyasiz**, bir partiyali va koalitsion bo‘lishi mumkin. Prezidentlik respublikalarida (shunday organ konstitutsiyada nazarda tutilganlarida) Hukumatni prezident tuzadi, bunda u tayinlagan Hukumat a‘zolaridan har biri qator mamlakatlarda (Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘izistonda) parlament tomonidan tasdiqlanishi kerak.

HUQUQIY DAVLAT – davlat konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining tavsifi sifatida amal qiladi va davlatning quyidagi tamoyillarga so‘zsiz bo‘ysunishini nazarda tutadi: xalq suvereniteti, inson huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan buzilmasligi, davlatning konstitutsiyaviy tuzum bilan bog‘liqligi, konstitutsiyaning boshqa barcha qonunlar va qonunosti hujjatlaridan ustunligi, hokimiyatlarning bo‘linishi, huquqiy davlatning tashkiliy negizi bo‘lgan hokimiyatning organlari va davlat xizmatchilarining javobgarligi instituti, milliy huquq normalaridan xalqaro huquq normalarining ustunligi.

CHET EL INVESTITSİYALARI – chet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob’ektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromadga aytiladi.

EKOLOGIK NAZORAT –tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash qoida-talablarini barcha vazirlik, davlat qo‘mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o‘rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo‘llash bilan bog‘lik siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy chora-tadbirlar yig‘indisini o‘z ichiga oladi.